O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI

O’ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

# O’ZBEKISTONDA IBTIDOIY JAMOA TUZIMI DAVRIDAN XV ASRGACHA BO’LGAN TARIXIY DAVRNI O’Z ICHIGA OLGAN TEST VARIANTLARI

TOSHKENT – 2014

Muallif:
*Murodova D. – O'zDJTI "O'zbekiston tarixi va demokratik jamiyat qurish asoslari" kafedrasi katta o'qituvchisi.*

Taqrizchilar:
*Jahongirov B.B. – O'zDJTI "O'zbekiston tarixi va demokratik jamiyat qurish asoslari" kafedrasi katta o'qituvchisi.*
*Ernazarov F. – TDIU tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi.*

© O'zDJTI nashriyot-matbaa
bo'limi, 2014 y.

# O’ZBEKISTONDA IBTIDOIY JAMOA TUZUMI DAVRI VA ILK DAVLAT BIRLASHMALARI YUZASIDAN TEST SAVOLLARI

**1. Etnografiya fani nimani o’rgatadi?**

A. Qabilalar va xalqlarni urf-odati, xo’jalik va madanyati an’analarini o’rgatadi.

B. Hozirgi zamon tillarini.

C. Ko’mish marosimlarini.

D. Qadimgi yozuvlarni.

**2. Lingvistika nima?**

A. Hozirgi zamon tillarini qanday shakllanganligini o’rganish maqsadida qadimgi tillami tadqiq etuvchi fan.

B. Xalqlarning madaniyatini tadqiq etuvchi fan.

C. Qadimgi yozuvlarni tadqiq etuvchi fan.

D. Ko’mish marosimlarini tadqiq etuvchi fan.

**3. O’zbekiston tarixi bo’yicha eng qadimgi yozma manba?**

A. Avesto.

B. Behistun yozuvi.

C. Qoyatoshlarga chizilgan suratlar.

D. Alpomish dostoni.

**4. Avesto qaysi dinning muqaddas kitobi?**

A. Zardushtiylik dinining. B. Moniylik dinining.

C. Induizm dinining. D. Shomonlik dinining.

**5. Behistun qoyalari qayerda joylashgan?**

A. Erondagi Kirmonshoh shahri yaqinida.

B. Persepolda. C. So’g’diyonada. D. Parfiyada.

**6. Behistun qoyalari qaysi tillarda yozilgan?**

A. Qadimgi fors, elam va bobil. B. So’g’d.

C. Baqtr. D. Bobil.

**7. Gerodot kim, u qanday asar yozgan?**

A. Qadimgi Yunon tarixchisi. ’Tarix" asarini yozgan.

B. Rim tarixchisi. “Geografiya” asarini yozgan.

C. Yunon tarixchisi. “Illiada” asarini yozgan.

D. Rim tarixchisi. “Odisseya” asarini yozgan.

**8. Miloddan avvalgi I asrda yozilgan “Geografiya” asari kimga tegishli?**

A. Yunon tarixchi va geografi Strabonga.

B.Yunon tarixchisi Gerodotga.
C. Yunon tarixchisi Kvint Kursiy Rufga.
D. Xitoy geografi Sima Szyanga.

**9. So’g’d yozuvi qachon shakllangan?**

A. Miloddan avvalgi III-II asrlarda. B. III-IV asrlar.
C. II-III asrlar. D. IV-V asrlar.

**10. “Baqtriyaliklar qadimlikda misrliklar bilan bahs-lasha oladi” degan fikr kimga tegishli?**

A. Rim tarixchisi Pompey Trogga.
B. Yunon tarixchisi Gerodotga.
C. Yunon tarixchisi Kvint Kursiy Rufga.
D. Xitoy geografi Sima Szyanga.

**11. Urug’chilik jamoasi davri qanday qismlarga bo’linadi?**

A. Matriarxat va Patriarxat. B. Ona urug’i.
C. Ota urug’i. D. Ibtidoiy to’da.

**12. Ibtidoiy to’da davriga ta’rif bering.**

A. Turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi.
B. Ona atrofida to’plangan jamoa.
C. Ota atrofida to’plangan to’da.
D. Qabilalar ittifoqi.

**13. ‘‘Paleolit" so’zining ma’nosi nima?**

A. Qadimgi tosh davri. B. O’rta tosh davri.
C. So’nggi tosh davri. D. Yangi tosh davri.

**14. Yava orolidan topilgan eng qadimgi odam nima deb nomlanadi?**

A. Pitekantrop. B. Sinantrop.
C. Fergantrop. D. Neandertal.

**15. Chopper nima?**

A. Uchi bir tomonga qarab o'tkirlangan qadimgi qo'pol tosh qurol.
B. Ikki tomoni o’tkirlangan tosh qurol.
C. Tosh bolta.
D. Mayda tosh qurol.

**16. O’zlashtiruvchi xo'jalikka nimalar kiradi?**

A. Termachilik va ovchilik. B. Dehqonchilik va ovchilik.
C. Termachilik va chorvachilik. D. Dehqonchilik va chorvachilik.

**17. Fetishizm nima?**

A. Jonsiz narsa-buyumlarga sig'inish.

B. Ajdodlar ruhiga sig'inish.

C. Tabiat kuchlariga sig'inish.

D. Olovga sig'inish.

**18. So'nggi paleolitdan boshlab qanday odamlar yashay boshlagan?**

A. Kromanyon. B. Neandertal.

C. Sinantrop. D. Pitekantrop

**19. Diniy tasavvurlar qaysi davrda vujudga kelgan?**

A. O'rta paleolit davrida. B. Ilk paleolit davrida.

C. Orta paleolit davrida. D. Yangi tosh davrida.

**20. Epigrafika nimani o'rgatadi?**

A. Qoyatoshlarga yozilgan qadimgi bitiklarni.

B. Qabr toshlarini.

C. Qadimgi urf-odatlarni.

D. Qadimgi yozuvlarni.

**21. Qadimgi dunyo tarixi qachon boshlangan va qacon tugagan?**

A. Yer yuzida odam paydo bo'lganidan boshlangan va milodiy 476-yilda qadimgi Rim imperiyasining qulashigacha davom etgan.

B. I ming yilliklardan IV asrgacha.

C. IV-V asrlarda.

D. III-IV asrlarda.

**22. Sivilizatsiya nima?**

A. Tarixda eng qadimgi shahar va davlatlarning tashkil topishi.

B. Davlatlarning shakllanishi.

C. Madaniyatning shakllanishi.

D. Ilm-fan ravnaqi.

**23. Antropologlar kimlar?**

A. Qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari asosida ularning tashqi qivofasini o'rganuvchilar.

B. Qabr toshlarni o'rganuvchilar.

C. Qadimgi urf-odatlarni o'rganuvchilar.

D. Qadimgi yozuvlarni o'rganuvchilar.

**24. "Buyuk Aleksandr tarixi" asarining muallifi kim?**

A. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf.

B. Yunon tarixchisi Gerodot.
C. Yunon tarixchisi Kvint Kursiy Ruf.
D. Xitoy geografi Sima Szyan.

**25. Behistun yozuvlari kimning buyrug'iga asosan yozilgan?**

A. Doro I. B. Doro III.
C. Kir II. D. Doro II.

**26. Paleolit nechanchi ming yilliklarda davom etgan?**

A. Miloddan avvalgi 3-2 mln yil-miloddan avvalgi 12 ming yil.
B. Miloddan avvalgi 3-2 mln yil-miloddan avvalgi 40 ming yil.
C. Miloddan avvalgi 2-1 mln yil-miloddan avvalgi 7 ming yil.
D. Miloddan avvalgi 3-2 mln yil-miloddan avvalgi 6 ming yil.

**27. Xitoydan topilgan qadimgi odam nima deb nomlanadi?**

A. Sinantrop. B. Pitekantrop.
C. Neandertal. D. Zinjantrop.

**28. Neandertal odam O'zbekistonning qayeridan topilgan?**

A. Teshiktosh g'oridan. B. Seleng'ur g'oridan.
C. Obirahmat g'oridan. D. Ko'kbuloq g'oridan.

**29. Animizm nima?**

A. Atrof-muhitda jon va ruhlarning mavjudligiga ishonish.
B. Ajdodlar ruhiga sig'inish.
C. Hayvonlarni muqaddaslashtirish.
D. Jonsiz narsalarga ishonish.

**30. "Tarixiy yilnomalar" asarini kim yozgan?**

A. Xitoy tarixchisi Sim Szyang.
B. Yunon tarixchisi Gerodot.
C. Yunon tarixchisi Kvint Kursiy Ruf.
D. Xitoy geografi Sima Szyang.

**31. Qadimgi yunon tarixchisi Arrian qanday asar yozgan?**

A."Aleksandrning harbiy yurishlari".
B. Xarbiy hiylalar
C. Tarix
D.Buyuk Aleksandr tarixi

**32. Patriarxat davri nechanchi ming yillikdan boshlandan?**

A. Miloddan avvalgi 3-ming yillikdan.
B. Miloddan avvalgi 2-ming yillikdan.

C. Miloddan avvalgi 1-ming yillikdan.
D. Miloddan avvalgi 7 asrdan.

**33. O’rta paleolit davri davom etgan sana?**
A. Miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar.
B. Miloddan avvalgi 2-ming yillikdan.
C. Miloddan avvalgi 1-ming yillikdan.
D. Miloddan avvalgi 7 asrdan.

**34. Tarixiy manbalar nechaga bo’linadi?**
A. Moddiy va yozma manbalar. B. Moddiy manbalar.
C. Ma’naviy manbalar. D. Qo’lyozma manbalar.

**35. Kromanyon qayerdan topilgan?**
A. Fransiyadagi Kromanyon g’oridan.
B. Germaniyaning Neandertal g’oridan.
C. O’zbekistonning Teshiktosh g’oridan.
D. Afrikaning Zinj vodiysidan.

**36. Ilk paleolit davrida qaysi qadimgi odamlar yashagan?**
A. Avstrolopitek, Zinjantrop, Pitekantrop, Sinantrop.
B. Avstrolopitek, Pitekantrop, Sinantrop.
C. Avstrolopitek, Zinjantrop, Pitekantrop.
D. Zinjantrop, Pitekantrop, Sinantrop.

**37. Mezolit davrining mashhur manzilgohlari qaysilar?**
A. Obishir, Qo’shilish, Machay, Zarautsoy qoyatosh tasvirlari.
B. Ko’lbuloq, Qo’shilish, Machay.
C. Qorakamar, Qo’shilish, Machay.
D. Selungur, Qo’shilish, Machay.

**38. Gerodotning “Tarix” asari necha kitobdan iborat?**
A. 9 ta kitobdan. B. 10 ta kitobdan.
C. 8 ta kitobdan. D. 7 ta kitobdan.

**39. Matriarxat davri arxeologik jihatdan qaysi davrlarni o’z ichiga oladi?**
A. So’nggi paleolit, mezolit, neolit, eneolit.
B. Mezolit, bronza. C. Bronza, temir. D. Eneolit.

**40. Zinjantrop qayerdan topilgan?**
A. Sharqiy Afrikadagi Zinj vodiysidan, Olduvaydan.
B. Xitoydan.
C. Selengurdan.
D. Teshiktoshdan.

**41. Eneolit so’zining ma’nosi?**

A. Mis-tosh davri. B. Yangi tosh davri.
C. So’nggi tosh davri. D. Ilk tosh davri.

**42. Teshiktosh g’ori nechanchi yilda o’rganilgan?**

A. 1938-yilda. B. 1946-yilda.
C. 1939-yilda. D. 1937-yilda.

**43. Neandertal odam qaysi davrda yashagan?**

A. O’rta paleolit davrida. B. So’nggi paleolit davrida.
C. Ilk paleolit davrida. D. Mezolit davrida.

**44. O’zbekiston hududidagi qadimgi qoya tosh tasvirlari qaysi davrga tegishli?**

A. So’nggi paleolit davriga B. Mezolit davriga.
C. Neolit davriga. D. Eneolit davriga.

**45. Behistun vozuvlarida O’zbekiston hududidagi qaysi qadimgi viloyatlar tilga olingan?**

A. Xorazm, So’g’diyona, Baqtriya.
B. Marg’iyona, Baqtriya.
C. So’g’diyona, Xorazm.
D. Parfiya, Baqtriya.

**46. Tarixiy jihatdan ibtidoiy jamoa tuzumi davri necha qismga bo’linadi?**

A. Uch davrga: Ibtidoiy to’da davri, Urug’ jamoasi davri va Harbiy demokratiya davri.
B. Ikki davrga: Ibtidoiy to’da davri, Urug’ jamoasi davri.
C. Ibtidoiy to’da davri, Harbiy demokratiya davri
D. Ibtidoiy to’da davri.

**47. Neolit davri sanasi?**

A. Miloddan avvalgi 6-4 ming yillik.
B. Miloddan avvalgi 5-3 ming yillik.
C. Miloddan avvalgi 3-2 ming yillik.
D. Miloddan avvalgi 5-4 ming yillik.

**48. Paleolit davri qachon tugagan?**

A. Miloddan avvalgi 12-ming yillikda.
B. Miloddan avvalgi 10-ming yillikda.
C. Miloddan avvalgi 11-ming yillikda.
D. Miloddan avvalgi 7-ming yillikda.

**49. Arxeologiya so’zining ma’nosi?**

A. Qadimshunoslik. B. Tangalarni o’rganish.
C. Odam qoldiqlarini o’rganish. D. Xalqlarni o’rganish.

**50. Eneolit davri davom etgan sana?**

A. Miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar.

B. Miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar.

C. Miloddan avvalgi 2-1 ming yilliklar.

D. Miloddan avvalgi 1 ming yilliklar.

**51. Tangalarni o'rganuvchi fan nima deyiladi?**

A. Numizmatika. B. Muhrlarni.

C. Qabr toshlarni. D. Qoyatosh suratlarni.

**52. Qadimgi yunonlar tomonidan O'zbekiston hududidagi qadimgi ayrim viloyatlar qanday nomlar bilan tilga olingan?**

A. "Ming shahar o'lkasi", Yuksak bayroqli go'zal mamlakat", "Serquyosh o'lka".

B. Quyoshli o'lka.

C. Ming shahar o'lkasi", "Serquyosh o'lka".

D. Yuksak bayroqli go'zal mamlakat", "Serquyosh o'lka".

**53. Ibtidoiy to'da davri arxeologik jihatdan qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?**

A. Ilk va o'rta paleolit davrlarini.

B. Ilk paleolit davrlarini.

C. So'nggi paleolit davrlarini.

D. Yangi tosh davrini.

**54. So'nggi paleolit davri sanasi?**

A. Miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar.

B. Miloddan avvalgi 40-7 ming yilliklar.

C. Miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar.

D. Miloddan avvalgi 7-5 ming yilliklar.

**55. Avstfolopitek suyak qoldiqlari qayerdan topilgan?**

A. Janubiy Afrikadan. B. Xitoydan.

C. Fransiyadan. D. Shimoliy Afrikadan.

**56. Yer yuzida buyuk muzlash davri qachon boshlandi?**

A. Ilk paleolitning so'ngi davrida.

B. So'nggi Paleolit davrida.

C. Mezolit davrida.

D. Neolit davrida.

**57. O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqida ma'lumot beruvchi qadimgi yozma manba?**

A. Avesto. B. Behistun yozuvlari.

C. Qoyatosh suratlari. D. Alpomosh dostoni.

**58. Urug’ jamoasi deb nimaga aytiladi?**

A. Birgalikda yashagan va mehnat qilgan umumiy mehnat qurollari va qurol-yarog’larga ega bo’lgan qarindoshlar jamoasi.

B. To’dalar birlashmasi.

C. Urug’lar birlashmasi.

D. Qabila ittifoqi.

**59. Bronza davri sanasi?**

A. Miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar.

B. Miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar.

C. Miloddan avvalgi 3-1 ming yilliklar.

D. Miloddan avvalgi 2-1 ming yilliklar.

**60. Avestoda katta patriarxat oila nima deb nomlangan?**

A. Nmana. B. Vis.

C. Dahyu. D. Varzana.

**61. Yer yuzida muzlik davri qachon tugadi?**

A. Mezolit davri boshlanishi bilan. B. Paleolit davrida.

C. Eneolit davrida. D. Neolit davrida.

**62. Paxsa imoratlar qaysi davrdan boshlab qurila boshlandi?**

A. Neolitdan. B. Mezolitdan.

C. Eneolitdan. D. Bronza.

**63. Ishlab chiqaruvchi xo’jalik bular ...?**

A. Ziroatchilik va chorvachilik. B. Dehqonchilik.

C. Baliqchlik. D. Ovchilik.

**64. Avestodagi “vis” atamasi qanday ma’noni anglatadi?**

A. Urug’ jamoasi. B. Qishloq oqsoqoli.

C. Urug’ jamoasi. D. Katta oila.

**65. Miloddan avvalgi I ming yilliklar boshlarida O’rta Osiyo aholisi qanday guruhlarga ho’lingan?**

A. Kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar.

B. Savdogarlar, dehqonlar, chorvadorlar.

C. Jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar.

D. Savdogarlar, dehqonlar, kohinlar.

**66. Ko’p xonali uylar qaysi davrdan boshlab qurila boshlandi?**

A. Bronza davridan boshlab. B. Neolit davrida.

C. Eneolit davrida. D. Mezolit davrida.

**67. Zamonbobo manzilgohi O’zbekistonning qayeridan**

**topib o’rganilgan?**

A. Buxoro viloyati Qorako’l tumanidan.

B. Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidan.

C. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidan.

D. Surxondaryo viloyati Termiz shahridan.

**68. “Varzana” nima?**

A. Hududiy qo’shnichilik jamoasi. B. Urug’ jamoasi.

C. Qishloq oqsoqoli. D. Urug’ jamoasi.

**69. Hayvonlar qaysi davrda xonakilashtirilgan?**

A. Mezolit davrida. B. Neolit davrida.

C. Eneolit davrida. D. Bronza davrida.

**70. Zarautsoy qoya tosh tasvirlari qaysi davrga tegishli?**

A. Mezolit davriga. B. Neolit davriga.

C. O’rta Paleolit davriga. D. So’nggi paleolit davriga.

**71. Qo’l tegirmoni va charxpalakdan qachon foydalanila boshlandi?**

A. Bronza davrida. B. Mezolit davrida.

C. Neolit davrida. D. So’nggi paleolit davrida.

**72. Avestoda “qabila”qandav nomlangan?**

A. Zantu. B. Dahyu. C. Vis. D. Varzana.

**73. So’nggi paleolit davriga oid O’zbekiston hududidagi manzilgohlar qayerlardan topilgan?**

A. Samarqand shahri yaqinidan, Toshkentdagi Ko’lbuloq manzilgohi yuqori qatlamlaridan va Farg’ona vodiysidan.

B. Teshiktosh, Selungurdan.

C. Ko’lbuloq, Qorakamardan.

D. Obishir, Machaydan.

**74. Mezolit davrining mashhur manzilgohlari qaysilar?**

A. Obishir, Qo’shilish, Machay.

B. Teshiktosh, Qorakamar.

C. Teshiktosh, Selungur.

D. Ko’lbuloq, Qorakamar.

**75. Avestodagi “dahya” atamasi qanday ma’noni anglatadi?**

A. Qabilalar itiffoqi. B. Urug’ jamoasi.

C. Qishloq oqsoqoli. D. Urug’ jamoasi.

**76. Neolit davri nimani kashf etilishi bilan boshlandi?**

A. Sopolni. B. Kulolchilik charxini.

C. Tegirmonni. D. Suv charxini.

**77. Ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik xo'jalik tarmog'i sifatida keng tarqalgan davr qaysi?**

A. Neolit davri. B. Bronza davri.

C. Eneolit davri. D. Mezolit davri.

**78. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysi qadimgi manbalarda qanday nomlar bilan atalgan?**

A. Bu hudud Avestoda So'g'da.

B. Behistun yozuvlarida So'g'uda.

C. Yunon-rim manbalarida So'g'diyona.

D. Barchasi to'g'ri.

**79. Xorazmliklar qayerlarda yashaganlar?**

A. Amudaryoning quyi oqimida.

B. Amudaryoning yuqori oqimida.

C. Sirdaryoning yuqori qismida.

D. Sirdaryoning quyi qismida.

**80. Xorazm qanday nomlar bilan tilga olingan?**

A. Bu hudud Avestoda Xvarizam,

B. Behistun yozuvlarida Xvarazmish.

C. Yunon-rim manbalarida Xorasmiya.

D. Barchasi to'g'ri.

**81. Baqtriyaliklar qayerlarda yashaganlar?**

A. Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli va Tojikistonning janubida.

B. Zarafshon hududlarida.

C. Xorazm hududlarida.

D. O'zbekistonning janubida.

**82. Baqtriya qanday nomlar bilan tilga olingan?**

A. Bu hudud Avestoda Bahdi.

B. Behistun yozuvlarida Baqtrish.

C. Yunon-rim manbalarida Baqtriana, Baqtriya.

D. Barchasi to'g'ri.

**83. Sakatigrahauda qayerlarda yashagan?**

A. Toshkent vilovati va Qozog'istonning janubiy hududlarida.

B. Orol dengizi bo'ylari va Sirdaryoning quyi oqimida.

C. Zarafshon hududlarida.

D. O'zbekiston janubiy hududlarida.

**84. Sakatiayaradarayalar (daryoning narigi tomonida**

**yashovchi saklar) qayerlarda yashagan?**

A. Orol dengizi bo'ylari va Sirdaryoning quyi oqimida.

B. Orol dengizi bo'ylari va Sirdaryoning yuqori oqimida.

C. Zarafshon hududlarida.

D. O'zbekiston janubiy hududlarida.

**85. Qadimda Sirdaryo qanday nom bilan atalgan?**

A. Yaksart. B. Politimet. C. Oks. D. Araks.

**86. Pomirning tog'li tumanlari va Farg'onada saklarning qaysi guruhi yashagan?**

A. Saka-xaumovarka. B. Saka-tigrahauda.

C. Saka-tigradaraya. D. Saka-tigrahauda, Saka-tigradaraya.

**87. Qadimgi Xorazm, So'g'diona va Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti?**

A. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik.

B. Baliqchilik.

C. Chorvachilik.

D. Hunarmandchilik.

**88. Sak va massagetlarning asosiy mashg'uloti?**

A. Chorvachilik. B. Baliqchilik.

C. Chorvachilik. D. Hunarmandchilik.

**89. O'rta Osiyoda shaharsozlikning rivojlanishiga nima sabab bo'ldi?**

A. Xalqaro savdo va madaniy aloqalar.

B. Hunarmandchilik.

C. To'quvchilik.

D. Qurilish.

**90. Afrosiyob shahar xarobalari qayerdan topilgan?**

A. Samarqand shahrining sharqiy chekkasidan.

B. Qashqadaryoning markazidan.

C. Termizdan.

D. Buxorodan.

**91. Afrosiyob qachon bunyod etilgan?**

A. Miloddan avvalgi VII-VII asrlarda.

B. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda.

C. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda.

D. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda.

**92. Qashqadaryodan topilgan qadimgi shahar xarobalari**

**qaysilar?**

A. Yerqo’rg’on va Uzunqir. B. Afrosiob.
C. Kuchuktepa. D. Qizilqir.

**93. Qadimgi davrga oid Ko’zaliqir shahri qayerdan topilgan?**

A. Xorazmdan. B. Surxondaryodan.
C. Termizdan. D. Buxorodan.

**94. Qadimgi Xorazm davlatining markazi qayer bo’lgan?**

A. Ko’zaliqir shahri. B. Qizilqir.
C. Qo’y qirilgan qal’a. D. Yerqo’rg’on.

**95. O’zbekiston hududida temir davriga o’tish qachondan boshlandi?**

A. Miloddan avvalgi IX-VII asrda.
B. Miloddan avvalgi X-IX asrda.
C. Miloddan avvalgi IX-VIII asrda.
D. Miloddan avvalgi VIII-VII asrda.

**96. Amudaryo qadimda qanday nomlangan?**

A. Oks. B. Yaksart.
C. Politimet. D. Vaxsh.

**97. Gerodot ma’lumotlariga ko’ra massagetlar e’tiqod qiladigan yagona tangri qaysi?**

A. Quyosh. B. Olov. C. Suv. D. Oy.

**98. Massagetlar Quyosh xudosiga qanday hayvonni qurbon qilishgan?**

A. Otni. B. Sigirni.
C. Suyukli farzandlarini. D. Unday an’ana bo’lmagan.

**99. Zardushtiylik dini O’rta Osiyoda qachondan keng tarqala boshlaydi?**

A. Miloddan avvalgi I ming yillikdan.
B. Miloddan avvalgi IX asrda.
C. Miloddan avvalgi VIII asrda.
D. Miloddan avvalgi VII asrda.

**100. Zardushtiylikda quyosh va yorug’lik xudosi?**

A. Mitra – hosildorlik va farovonlik homiysi.
B. Anaxita.
C. Axuramazda.
D. Axriman.

**101. Zardushtiylikning ulug' va donishmand oliy xudosi?**
A. Ahuramazda .
B. Anaxita.
C. Mitra – hosildorlik va farovonlik homiysi.
D. Axriman.
**102. Mitra qanday qiyofada tasvirlangan?**
A. O'spirin va jangchi qiyofasida. B. Ayol qiyofasida.
C. Hayvon qiyofasida. D. Erkak qiyofasida.
**103. Zardushtiylikda yovuzlik va o'lim xudosi qaysi?**
A. Axriman. B. Axuramazda.
C. Mitra. D. Anaxita.
**104. Zardushtiylikda hosildorlik va suv ilohasi?**
A. Anahita. B. Axriman.
C. Axuramazda. D. Mitra.
**105. Ahuramazda va odamlar o'rtasidagi bosh vositachi qaysi xudo bo'lgan?**
A. Mitra. B. Anahita.
C. Axriman. D. Axuramazda.
**106. Zardushti qachon diniy ta'limot payg'ambariga aylangan?**
A. 30 yoshda. B. 40 yoshda.
C. 50 yoshda. D. 60 yoshda.
**107. Zardusht vazlari qachon yagona kitobga jamlangan?**
A. Miloddan avvalgi III asrda 21 kitobga.
B. Miloddan avvalgi IV asrda.
C. Miloddan avvalgi II asrda.
D. Miloddan avvalgi V asrda/
**108. Ossuariy nima?**
A. Suyaklar solinuvchi suyakdon.
B. O'liklarni dafn etuvchi maqbara.
C. Otashkada.
D. Ibodatxona.
**109. Qaysi Eron shohi dastlab O'rta Osiyoga yurish qilgan?**
A. Kir II. B. Doro I.
C. Doro II. D. Doro III.
**110. Miloddan avvalgi 545-540-yillar oralig'ida Kir II tomonidan qaysi hududlar egallanadi?**

A. Parfiya, Marg’iyona va Baqtriya.
B. Faqat Baqtriya.
C. So’g’diyona, Marg’iyona.
D. Parfiya, So’g’diyona.

**111. Kir II massagetlar ustiga yurishni qachon boshlagan?**
A. Miloddan avvalgi 530-yilda.
B. Miloddan avvalgi 522-yilda.
C. Miloddan avvalgi 348-yilda.
D. Miloddan avvalgi 456-yilda.

**112. Forslar bostirib kelganda massagetlar hukmdori kim edi?**
A. To’maris.
B. Shiroq.
C. Spitamen.
D. Farasman.

**113. Doro I nechanchi yilgacha hukmronlik qilgan?**
A. Miloddan avvalgi 486-yilgacha.
B. Miloddan avvalgi 522- yilgacha.
C. Miloddan avvalgi 348- yilgacha.
D. Miloddan avvalgi 456- yilgacha.

**114. Doro hukmronligining birinchi yilida qayerda fors istilochilariga qarshi qo’zg’olon ko’tariladi?**
A. Marg’iyonada.
B. So’g’diyonada.
C. Baqtriyada.
D. Parfiyada.

**115. Qo’zg’olonga kim boshchilik qilgan?**
A. Frada.
B. Farasman.
C. Spitamen.
D. Shiroq.

**116. Doro I hukmronligining nechanchi yilida saklar ustiga yurish boshlaydi?**
A. Uchinchi yilida, Miloddan avvalgi 519-yilda.
B. Miloddan avvalgi 522-yilda.
C. Miloddan avvalgi 456-yilda.
D. Miloddan avvalgi 564-yilda.

**117. Bu yurish haqida qaysi manbada ma’lumot keltirilgan?**
A. Behistun bitiklarida hamda, miloddan avvalgi II asrda yashagan tarixchi Poliyen asarlarida.
B. Gerodot Tarix asarida.
C. Arrian Geografiya asarida.
D. Kvint Kursiy Ruf Geografiya asarida.

**118. Doro I bostirib kelganda saklar sardori kim edi?**
A. Skunxa (Behistun bitiklarida). B. To'maris.
C. Spitamen. D. Shiroq.

**119. Ahamoniylar bo'ysundirilgan butun mamlakatlarni qanday ma'muriy qismlarga bo'lib boshqarganlar?**
A. Satrapliklarga. B. Viloyatlarga.
C. Nomlarga. D. Tumanlarga.

**120. Forslar O'rta Osiyoni egallaganidan so'ng bu yerni nechta satraplikka bo'lib boshqarganlar?**
A. Uchta satraplikka. B. To'rtta satraplikka.
C. Ikkita satraplikka. D. Beshta satraplikka.

**121. Eronning qaysi davlat bilan olib borgan urushida O'rta Osiyo xalqlari ham qatnashganligi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan?**
A. Yunoniston bilan. B. Hindiston bilan.
C. Rim bilan. D. Mesopotamiya bilan.

**122. O'rta Osiyoda Ahamoniylar sulolasi hukmronligi qancha vaqt davom etdi?**
A. 200 yildan ko'proq. B. 300 yil.
C. 100 yil. D. 150 yil.

**123. Doro I Marg'iyonada boshlangan Frada boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun kimni jo'natadi?**
A. Baqtriya satrapi Dodarshishni. B. Bessni.
C. Kambizni. D. Doro III ni.

**124. "Amudaryo xazinasi" qachon va qayerdan topilgan?**
A. 1877-yilda Qo'bodiyon vodiysidan, Qadimgi Baqtriya hududidan.
B. 1778-yilda So'g'diyonadan.
C. 1776-yilda Marvdan.
D. 1876-yilda Xorazmdan.

**125. Aqinak nima?**
A. Xanjar. B. Bolta.
C. Kamon. D. O'q yoy.

**126. "Sagaris" nima?**
A. Jangovar oybolta. B. Xanjar.
C. Kamon. D. O'q yoy.

**127. Bargustivon nima?**

A. Otlar ustiga yopilgan temirdan to’qilgan sovut.

B. Xanjar. C. Kamon. D. O’q yoy.

**128. Ahamoniylar sulolasining so’nggi hukmdori kim?**

A. Doro III. B. Doro II.

C. Doro I. D. Kambiz.

**129. Makedoniyalik Aleksandr qachon Doro III qoshin-larini mag’lubiyatga uchratib, Fors davlatini qulatadi?**

A. Miloddan avvalgi 330-yilda.

B. Miloddan avvalgi 427-yilda.

C. Miloddan avvalgi 323-yilda.

D. Miloddan avvalgi 327-yilda.

**130. Aleksandr bostirib kelayotganda Baqtriya satrapi kim edi?**

A. Ahamoniylar sulolasidan bo’lgan Bess.

B. To’maris. C. Artakserks. D. Doro II.

**131. Nechanchi yilda Makedoniyalik Aleksandr qo’shinlari Amudaryodan kechib o’tadi?**

A. Miloddan avvalgi 329-yilda.

B. Miloddan avvalgi 327-yilda.

C. Miloddan avvalgi 328-yilda.

D. Miloddan avvalgi 330-yilda.

**132. Qadimgi Nautaka hozirgi qaysi hududlarga to’g’ri keladi?**

A. Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi.

B. Termiz. C. Shahrisabz. D. Kesh.

**133. Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi So’g’diyo-nada boshlangan qo’zg’olonga kim boshchilik qiladi?**

A. Spitamen. B. Shiroq.

C. Bess. D. Frada.

**134. “Politimet” qaysi daryoning qadimgi nomi?**

A. Zarafshon daryosining. B. Amudaryo daryosining.

C. Sirdaryo daryosining. D. Chirichiq daryosining.

**135. Spitamen va Aleksandr o’rtasidagi hal qiluvchi jang qachon bo’lgan?**

A. Miloddan avvalgi 328-yil kuzida.

B. Miloddan avvalgi 327-yil bahorida.

C. Miloddan avvalgi 326-yil bahorida.

D. Miloddan avvalgi 327-yil kuzida.

**136. Aleksandr O'rta Osiyoda nechta shahar qurdirgan?**
A. 12 ta. B. 3 ta. C. 6 ta. D. 7 ta.
**137. Xorazmda Miloddan avvalgi VII asrda shaharsozlik boshlanganligini qaysi shahar misolida ko'rishimiz mumkin?**
A. Ko'zaliqir. B. Tuproqqal'a.
C. Qalaliqir. D. Qo'y qirilgan qal'a.
**138. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Xorazmda mahalliy hukumdorning qarorgohi bo'lgan qal'a qaysi?**
A. Qal'aliqir. B. K o'zaliqir.
C. Tuproqqal'a. D. Qo'y qirilgan qal'a.
**139. Xorazmda Miloddan avvalgi VI-II asrlarda o'ziga xos madaniyat vujudga kelganligini ko'rsatuvchi yodgorliklar qaysilar?**
A. Jonbosqal'a va Qo'yqirilganqal'a.
B. Ko'zaliqir.
C. Tuproqqal'a.
D. Qo'y qirilgan qal'a.
**140. Qaysi qal'adan aylana shaklida qurilgan mustahkam ibodatxona topilgan?**
A. Qo'y qirilgan qal'adan. B. Ko'zaliqir.
C. Tuproqqal'a. D. Qo'y qirilgan qal'a.
**141. Kushon davlatiga kimlar asos solgan?**
A. Yuechjilar. B. Xunlar.
C. Baqtriyaliklar. D. Sug'diylar.
**142. Kushon davlati qachon tashkil topgan?**
A. Miloddan avvalgi I asrda. B. I asrda.
C. I-II asrda. D. Miloddan avvalgi II asrda.
**143. Kushon davlatining birinchi hukmdori kim?**
A. Kudzula Kadfiz. B. Vima Kadfiz.
C. Kanishka. D. Xuvishka.
**144. Kudzula Kadfiz davrida qaysi hududlar Kushon davlati tarkibiga qo'shib olingan?**
A. Afg'oniston va Kashmir. B. Baqtriya va So'g'd.
C. Marg'iyona va Baqtriya. D. Kashmir va Panjob.
**145. Qaysi hukmdor davrida poytaxt Baqtriyadan Peshovarga ko'chiriladi?**
A. Kanishka davrida. B. Kudzula Kadfiz.
C. Vima Kadfiz. D. Xuvishka.

**146. Kimning hukmronligi davrida pul islohoti amalga oshirilgan?**

A. Vima Kadfiz davrida. B. Kanishka davrida.

C. Kudzula Kadfiz. D. Xuvishka.

**147. Kushon tangalari qanday ko'rinishda bo'lgan?**

A. Oltin, kumush va mis ko’rinishida, hukmdorlar nomi ko’rsatilgan.

B. Faqat oltindan zarb etilib, hind ma'budlari tasvirlangan.

C. Mis va bronzadan zarb etilib, unda hukmdorlar tasvirlangan.

D. Bronzadan tasvirlanib, zardushtiylik ilohlari tasvirlangan.

**148. Kanishka davrida Kushon davlati qaysi davlatlar bilan elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan?**

A. Hindiston, Xitoy va Rim. B. Mesopotamiya, Misr.

C. Xitoy, Misr. D. Misr, Yunoniston.

**149. Kanishka nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?**

A. 78-123 yillarda. B. 123-145 yillarda.

C. 78-100 yillarda. D. 100-123 yillarda.

**150. Rim imperiyasi hududidan Kushon davlatiga tegishli qanday topilmalar topilgan?**

A. Tangalar va suyakdan yasalgan haykalchalar.

B. Terrakotalar.

C. Oynalar.

D. Kulolchilik mahsulotlari.

**151. Kushon davlati haqida ma'lumot beruvchi yod-gorliklar qaysilar?**

A. Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Zartepa, Qoratepa.

B. Chingiztepa, Bandihon.

C. Qiziltepa, Ayrtom.

D. Zartepa, Chingiztepa, Qizilcha.

**152. Kushon davlati iqtisodiyotining asosini qaysi sohalar tashkil etgan?**

A. Sug'orma dehqonchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik.

B. Hunarmandchilik, chorvachilik.

C. Savdo-sotiq.

D. Chorvachilik.

**153. Kushon davlati davrida qanday yangi moslamalardan keng foydalanilgan?**

A. Suv tegirmoni va chig'irdan.

B. Kulolchilik charhidan.
C. Suv ko'prikdan.
D. Chig'irdan.

**154. Kushonlar davlati davrida O'rta Osiyoda keng tarqalgan yozuv.**
A. Oromiy yozuvi hamda kushon shaklli yozuvi.
B. Baqtriya yozuvi.
C. Pahlaviy yozuvi.
D. Kharoshti.

**155. Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida qanday yozuvlar tarqalgan?**
A. Oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va so'g'diy yozuvlari.
B. Baqtriya yozuvi.
C. Pahlaviy yozuvi.
D. Kharoshti.

**156. Kushon davlati aholisi qaysi dinlarga e'tiqod qilgan?**
A. Zardushtiylik, buddaviylik. B. Moniylik.
C. Induizm. D. Buddaviylik.

**157. Kushonlar davriga oid qaysi yodgorliklardan buddaviylik ibodatxonalari topilgan?**
A. Eski Termiz (Qoratepa, Fayoztepa), Ayritom va Dalvarzintepa.
B. Chingiztepadan.
C. Kampirtepadan.
D. Qoratepadan.

**158. Kushonlar davriga oid hukmdor saroyi qayerdan topilgan?**
A. Xolchayon yodgorligidan. B. Dalvarzintepa.
C. Qoratepa. D. Chingiztepa.

**159. Fil suyagidan yasalgan shahmat donalari qayerdan topilgan?**
A. Dalvarzindan. B. Xolchayondan.
C. Qoratepadan. D. Chingiztepadan.

**160. Kushon xitoychada qanday talaffuz etilgan?**
A. Gushuan. B. Gunshun.
C. Guyshua. D. Guyshuan.

**161. Vima Kadfiz hukmronligi davrini aniqlang.**

A. 51-78 yillar. B. 78-123 yillar.
C. 88-123 yillar. D. 75-123 yillar.

**162. Hukmdor nomi ko'rsatilgan tangalar kimning davrida zarb etilgan?**

A. Kudjula Kadfiz. B. Kanishka.
C. Vima Kadfiz. D. Unday tangalar yo'q.

**163. Panjob va Kashmir kimning hukmronligi davrida kushonlar davlatiga qo'shib olingan?**

A. Kanishka. B. Kudjula Kadfiz.
C. Vima Kadfiz. D. Xuvishka.

**164. Kushon yozuvi qanday shaklda bo'lgan?**

A. Burchakli. B. To'rtburchakli.
C. Aylana shaklida. D. Barcha javoblar to'g'ri.

**165. Kiutszyuku kim?**

A. Kudjula Kadfiz. B. Vima Kadfiz.
C. Kanishka. D. Vasudeva.

**166. Kushon davlatining iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida Kadfiz II qanday tadbir qo'llagan?**

A. Oltin tangalar zarb ettirgan.
B. Kumush tangalar zarb ettirgan.
C. Mis tangalarni muomalaga kiritgan.
D. Kashmirga yurish qilgan.

**167. Kushon davriga oid "podsho Geray" avlodlariga mansub turli kattalikdagi haykallar qaysi yodgorlikdan topilgan?**

A. Xolchayon. B. Dalvarzintepa.
C. Qoratepa. D. Chingiztepa.

**168. II-III asrga oid yer haydaydigan omochning temir uchi qaysi yodgorlikdan topilgan?**

A. Talibarzu. B. Ayritom.
C. Xolchayon. D. Dalvarzintepa.

**169. Kushonlar davriga oid Kampirtepa yodgorligi qayerda joylashgan?**

A. Sho'rob qishlog'ida.
B. Termiz shahrida.
C. Denovda.
D. Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida.

**170. Kadfiz I zarb ettirgan tangalarda qanday so'zlar**

**bitilgan?**

A. Shohlar shohi buyuk haloskor. B. Shohlar shohi.
C. Yabg'u. D. Kadfiz.

**171. Rim bilan aloqalar qaysi hukmdor davrida yo'lga qo'yilgan?**

A. Kadfiz II. B. Kadfiz I.
C. Kanishka. D. Kiotszyuku.

**172. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Termizdan 20 *km* sharqda joylashgan ko'hna shahar qaysi?**

A. Ayrtom. B. Afrosiyob.
C. Kampirtepa. D. Zartepa.

**173. 0,5 gektar maydondan 10 ta ko'mish marosimiga oid inshootlar qaysi yodgorlikdan topilgan?**

A. Kampirtepa. B. Afrosiyob.
C. Ayritom. D. Zartepa.

**174. Kushonlar davlatida bosh kohin etib kimlar tayinlangan?**

A. Podsho.
B. Podshoning eng yaqin kishisi.
C. Podshoning rafiqasi.
D. Podshoning qizi.

**175. Kushonlar davlati qachon barham topgan?**

A. Milodiy III asr. B. Milodiy IV asr.
C. Milodiy VI asr. D. Milodiy V asr.

## ILK O'RTA ASRLARDA IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOT (IV-VII ASRLAR)

**176. O'zbekiston tarixining ilk o'rta asrlar va rivojlangan orta asrlar davri qachondan boshlanadi?**

A. IV asrdan XVI asrgacha. B. IV asrdan XIV asrgacha.

C. IV asrdan XIII asrgacha. Д. VIII asrdan XIII asrgacha.

**177. Bu davr qaysi davlatlar misolida o'rganiladi?**

A. Xorazm, Xioniylar, Kidariylar, Eftalilar, Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar davlatlari.

B. Xorazm, Xioniylar, Kidariylar, Eftalilar, Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar Xorazmshohlar, Kushoniylar, saljuqiylar davlatlari.

C. Somoniylar, Qoraxoniylar Xorazmshohlar, saljuqiylar, shayboniylar hmda Amir Temur va Temuriylar davlatlari.

D. Eftalilar, Turk xoqonligi, Somoniylar, QoraxoniylaK Xorazmshohlar, Kushoniylar, saljuqiylar davlatlari.

**178. O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlarning so'nggilari qaysilar?**

A. Qang' va Kushon. B. Kushon va saljuqiylar.

C. Qang' va Parfiya. D. Parfiya va Davan.

**179. Ilk o'rta asr qishloq hukmdori kim edi?**

A. Dehqon. B. Yabg'u.

C. Noib. D. Satrap.

**180. Chokarlar kim?**

A. Dehqonning qo'riqchilari 30-40, ba'zan 50-100 kishidan iborat bo'lgan.

B. Saroy soqchilari 50-80. ba'zan 70-90 kishidan iborat bo'lgan.

C**.** Noibning xos soqshilari 1000-2000 kishidan iborat bo'lgan.

D. Katta yer egalari.

**181. Kadivar kim?**

A. Qishloqda dehqonga qaram aholi, qaram qehqon.

B. Qishloqda katta yer egalari.

C. Noibga qaram qehqon.

D. Qishloqda katta nufuzga ega bo'lgan din rahnamolari.

**182. Kashovarz kim?**

A. Qishloq jamoalarida yashovchi umumiy mol-mulkka ega bo’lgan erkin ziroatchi.

B. Qishloq jamoalarida yashovchi erkin hunarmandlar.

C. Qishloq jamoalarida yashovchi umumiy mol-mulkka ega bo’lgan erkin ziroatchilarning qullari.

D. Qishloq jamoalarida yashovchi erkin dehqonlar.

**183. V asr o’rtalarida obikor yerlarning asosiy qismi kimlarning qaramog’ida edi?**

A. Qishloq jamoalarining. B. Erkin ziroatchilarning.

C. Qishloq jamoalarida yashovchi erkin dehqonlarning.

D. Qishloq jamoalarida yashovchi erkin hunarmandlarning.

**184. Qang’ davlati tarkibidan birinchi bo’lib qaysi davlat ajralib chiqdi?**

A. Xorazm. B. Kushon.

C. Parkana. D. Parfiya.

**185. Ilk o’rta asrlardan Xorazmda qaysi sulola hukmronlik qilgan?**

A. Afrig’iylar. B. Eftalilar.

C. Kidariylar. D. Xioniylar.

**186. Qadimgi Xorazm davlati poytaxti qayer bo’lgan?**

A. III asr o’rtalarida hozirgi Qoraqalpog’istonning Ellikqal’a tumanida joylashgan Tuproqqal’a bo’lgan.

B. III asr o’rtalarida hozirgi Afg’onistonning Balx shahrida.

C. IV asr o’rtalarida hozirgi Qoraqalpog’istonning Ellikqal’a tumanida joylashgan Tuproqqal’a bo’lgan.

D. VI asr o’rtalarida hozirgi Qoraqalpog’istonning Ellikqal’a tumanida joylashgan Tuproqqal’a bo’lgan.

**187. Bu poytaxt shaharning umumiy maydoni qancha bo’lgan?**

A. 26 ga. B. 28 ga.

C. 24 ga. D. 23 ga.

**188. Shahar markazidagi ibodatxonaning shimoli-g’arbiy qismida balandligi 25 metrli bo’lgan qanday bino joylashgan?**

A. Uch minorali Xorazmshohlar qasri.

B. Afrig’iylar qasri.

C. Uch minorali Kidariylar saroyi.

D. Xioniylar qasri.

**189. Xorazmshoxlar poytaxti qachon Kat shahriga ko'chiriladi?**

A. 305-yilda. B. 300-yilda.

C. 405-yilda. D. 235-yilda.

**190. Afrig'iylar ichki va tashqi savdoda qanday tanga-lardan foydalangan?**

A. Betiga shoh va orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan kumush tangalardan.

B. Betiga ot va orqasiga shoh tasviri tushirilgan oltin tasviri tushirilgan.

C. Betiga shoh va orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan oltin tangalardan.

D. Betiga shoh va orqasiga mahalliy ilohning tasviri tushirilgan oltin tangalardan.

**191. IV asr o'rtalarida O'rta Osiyo hududiga qanday ko'chmanchi qabilalar kirib kelgan?**

A. Xion qabilalari. B. Afrig'iylar qabilalari.

C. Kushoniylar. D. Eftaliylar.

**192. Xion qabilalari qayerdan kirib kelgan?**

A. Sharqiy Turkiston va Yettisuv hududidan.

B. Sharqiy Turkiston va hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanidan.

C. Hozirgi Qoraqalpog'istonning Yettisuv hududidan.

D. Hozirgi Turkiston sharqiy hududidan.

**193. 353-yilda xioniylar qayerni egallaydi?**

A. So'g'd shahrini. B. Baqtriyani.

C. So'g'd va Baqtriyani. D. So'g'd va Davanni.

**194. So'g'd egallangandan so'ng xioniylar qaysi davlat bilan to'qnashadi?**

A. Erondagi Sosoniylar davlati bilan.

B. Turk hoqonligi bilan.

C. Eftalilar bilan.

D. Kidariylar bilan.

**195. Xioniylar va Sosoniylar davlati to'qnashgan vaqtda sosoniylar shohi kim edi?**

A. Shopur II. B. Shopur I.

C. Hormuzd. D. Pero'z.

**196. O’rta Osiyoda Xioniylar hukmronligi qachon to’liq o’rnatilgan?**

A. IV asrning 70-yillari. B. IV asrning 78-yillari.
C. VI asrning 70-yillari. D. VII asrning 70-yillari.

**197. Xioniylar davlati necha yil davomida hukmronlik qilgan?**

A. 120 yildan ortiq. B. 100 yildan ortiq.
C. 130 yil. D. 200 yil mobaynida.

**198. V asrning 20 yillarida Xorazm va Amudaryo havzasiga kimlar kirib kelgan?**

A. Chorvador toxarlar. B. Kidariylar.
C. Turk qabilalari. D. Eftalilar.

**199. Nima sababdan toxarlar asos solgan davlat tarixda kidariylar nomi bilan mashhur?**

A. Toxarlarga Kidar ismli hukumdor yo’lboshchi edi.
B. Kidar xalq nomi bo’lgan.
C. Kidar joy nomi bo’lgan.
D. Kidar ismli faylasuf bo’lgan.

**200. Toxarlar kimlarning avlodi hisoblanadi?**

A. Kushonlarni. B. Salavkiylarni.
C. Sosoniylarni D. Xioniylarni.

**201. Kidariylar Xioniylar davlatining qaysi qismida joylashgan?**

A. Janubida. B. Shimoli-sarqida.
C. Shimolida. D. G’arbida.

**202. Kidariylar poytaxti?**

A. Balx. B. Baqtriya.
C. Xorazm. D. So’g’diyona.

**203. V asrning 30-40 yillarida kidariylar qaysi davlat bilan dushman bo’lib qoladi?**

A. Sosoniylar. B. Xioniylar.
C. Eftaliylar. D. Toxarlar.

**204. Nechanchi yilda bo’lgan urushda kidariylar soso-niylardan qaqshatqich zarbaga uchraydi?**

A. 456-yil. B. 453-yil.
C. 456-458-yillar. D. 434-yil.

**205. Sosoniylardan so’ng kidariylar shimol tomondan kimlar bilan to’qnashadilar?**

A. Eftaliylar bilan. B. Xioniylar bilan.
C. Eftaliylar bilan. D. Toxarlar bilan.

**206. Eftaliylar qarshiligidan so'ng kidariylar qayerga chekinadilar?**

A. Shimoliy Hindistonga B. Sharqiy Turkistonga.
C. Janubiy Hindistonga. D. Afg'onistonga.

**207. Shimoliy Hindistonda kidariylar necha yil hukmronlik qiladilar?**

A. 75 yil. B. 76 yil.
C. 67 yil. D. 57 yil.

**208. Eftalilar O'rta Osiyo hududiga qachon kirib keladilar?**

A. V asr o'rtalarida. B. VI asr o'rtalarida.
C. V asr oxirlarida. D. V asr o'rtalari va VI asr oxirlarida

**209. Eftal degan nom ilk bor qaysi manbalarda uchraydi?**

A. "Xeptal" shaklida V asr arman manbalarida.
B. Haytal shaklida arab manbalarida.
C. Hetal shaklida fors manbalarida.
D. Haftal shaklida turk manbalarida.

**210. Eftal nomi qayerdan kelib chiqqan?**

A. "Eftalon" deb atalgan shoh nomidan (Vaxshunvar deb ham atalgan).
B. Xalq nomidan.
C. Joy nomidan.
D. Daryo nomidan.

**211. Eftallar So'g'dni egallagunlarigacha u yerda kim hukmronlik qilardi?**

A. Xioniylar. B. Eftaliylar.
C. Sosoniylar. D. Kidariylar.

**212. Eftallar 456-yilda qayerga o'z elchilarini yuborganlar?**

A. Xitoyga. B. Rimga.
C. Shimoliy Hindistonga. D. Xitoy va Rimga.

**213. Sosoniylar eftaliylarga qarshi necha marotaba yurish qilgan?**

A. 3 marotaba. B. 2 marotaba.
C. 10 marotaba. D. 1 marotaba.

**214. Ikki o'rtadagi urushlar qaysi sosoniy shohi davrida avjiga chiqqan?**

A. Pero'z davrida. B. Shopur II.
C. Shopur I. D. Xormuzd.

**215. Urushda asirlikka tushgan Pero'zni kim asirlikdan qutqargan?**

A. Vizantiva imperatori Zenon.
B. Vizantiya imperatori Yustin.
C. O'gli Shopur I.
D. Shopur II.

**216. Ikkinchi marta asirga tushgan Pero'zni o'rniga garovga yuborilgan og'lining ismi?**

A. Kubod. B. Shopur.
C. Shopur II. D. Xormuzd.

**217. Pero'z nechanchi yil eftaliylarga qarshi uchinchi urushni boshlagan?**

A. 484-yil. B. 487-yil.
C. 500-yil. D. 484-yil.

**218. Qaysi Sosoniy hukmdorlar davrida eftalilar bilan munosabatlar yaxshilangan?**

A. Kubod va Anushervon davrlarida.
B. Pero'z. C. Shopur. D. Xormuzd.

**219. Eftaliylar davlati o'z tarkibida qaysi hududlarni birlashtirgan?**

A. O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkistonni.
B. O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Sharqiy Hindistonni.
C. O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Turkistonni.
D. Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston, O'rta Osiyo Sharqiy qismini.

**220. Eftalilarning kelib chiqishiga ko'ra asosiy mash-g'uloti?**

A. Chorvachilik. B. Ziroatchilik.
C. Dehqonchilik. D. Hunarmandchilik.

**221. Eftaliylar davrida dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlangan hududlar?**

A. Toxariston va So'g'd. B. So'g'd va Balx.

C. Toxariston va Baqtriya. D. So'g'd, Toxariston va Baqtriya.

**222. Sholi asosan qayerlarda ekilgan?**

A. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida.

B. Qashqadaryo va Samarqandda.

C. Qashqadaryo va Amudaryo hududida.

D. Amudaryo hududi va Zarafshon vodiylarida.

**223. V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida paxta ekilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar qaysi manbalarda uchraydi?**

A. Xitoy manbalarida. B. Hind manbalarida.

C. Grek tarixchilari. D. Xitoy va Hind manbalarida.

**224. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona vodiysi nimasi bilan mashhur edi?**

A. Zotli arg'umoqlari bilan.

B. Uzumdan tayyorlangan sharobi bilan.

C. Zotli arg'umoqlari va uzumdan tayyorlangan sharobi bilan.

D. Beda o'simligi bilan.

**225. Eftaliylar davrida ziroatkor yerlarning katta qismi kimlarning tasarrufida edi?**

A. Qishloq jamoalarining.

B. Yabg'ularning.

C. Qishloq jamoalari va harbiy sarkardalarning.

D. Janglarda qahramonlik ko'rsatgan harbiylarga.

**226. Xvabular kimlar?**

A. Qabila va urug' jamoalari oqsoqollari.

B. Qabila oqsoqollari.

C. Katta yer egalari.

D. Qabila, urug' jamoalari oqsoqollari va katta yer egalari.

**227. V asrda barpo etilgan Darg'om kanali qayerda joylashgan?**

A. Samarqand viloyati janubida.

B. Zarafshon hududida.

C. Surxondaryo janubida.

D. Samarqand viloyati va Surxondaryo janubida.

**228. O'rta asrlarda Surxondaryo hududi qanday nomlangan?**

A. Chag'oniyon. B. Dalvarzintepa.
C. Baqtriya. D. Toxariston.

**229. Shaxrisabz qanday nomlangan?**
A. Kesh. B. Nasaf.
C. Chag'oniyon. D. Qarshi.

**230. Qarshi qanday nomlangan?**
A. Nasaf. B. Kesh.
C. Chag'oniyon. D. Qarshi

**231. O'rta asrlarda Ipak yo'li savdosida so'g'diylar qanday vazifani bajarganlar?**
A. Vositachilik. B. Elchilik.
C. Savdogarlik. D. Hukmronlik.

**232. Eftallar dastlab tashqi savdoda qanday tangalardan foydalanganlar?**
A. Sosoniylar kumush tangalaridan.
B. Sosoniylar mis tangalaridan.
C. Kushoniylar kumush tangalaridan.
D. Sosoniylar va eftallar oltin tangalaridan.

**233. Eftallar dastlab Ichki savdoda qanday tangalardan foydalanganlar?**
A. Chaqa tangalardan. B. Mis tangalardan.
C. Kumush tangalardan. D. Kumush va chaqa tangalardan.

**234. Pandus nima?**
A. Ko'tarma yo'lak. B. Ko'prik.
C. Daralarga qurilgan ko'tarma yo'lak.
D. Daryolarning kechuv joyiga qurilgan ko'prik.

**235. V-VI asrda O'rta Osiyoda qanday yozuvlar keng tarqalgan?**
A. So'g'd, xorazm va eftaliy. B. So'g'd, oromiy.
C. Oromiy va eftaliy. D. Xorazm, so'g'd va oromiy.

**236. Eftallar yozuvi qaysi yozuv asosida paydo bo'lgan?**
A. Baqtriya yozuvi asosida. B. So'g'd yozuvi asosida.
C. Oromiy yozuvi asosida. D. Kushoniy yozuvi asosida.

**237. Eftallar yozuvi nechta harfdan iborat bo'lgan?**
A. 25 harfdan (chapdan o'ngga qarab).
B. 30 harfdan (o'ngdan chapga qarab).

C. 50 harfdan (belgilar asososida).
D. 100 harfdan (lotin yozuvi asosida).

**238. Eftallar nimaga sig'inganlar?**
A. O't va quyoshga (Otashparaslik).
B. Budda diniga etoqod qilganlar.
C. Ajdodlar ruhiga topinganlar.
D. Ajdodlar ruhiga va quyoshga (Otashparaslik).

**239. Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyodan keltirilgan qanday toshlardan foydalangan?**
A. Rangli shishalardan. B. Ohaktoshdanlardan.
C. Mozaikadan. D. Freskalardan.

**240. Qaysi hududlardagi turkiy qabilalarni birlashishidan Turk xoqonligi vujudga kelgan?**
A. Oltoy va Janubiy Sibir hududlaridagi.
B. Ashin qabilasi birikuvidan.
C. Sharqiy Turkiston hududlaridagi.
D. Shimoliy Hindiston.

**241. Turk xoqonligi nechanchi asrda tashkil topgan, uning asoschisi kim?**
A. VI asr o'rtalarida, Bumin. B. V asrda, Istemi.
C. VI asrda, Baxrom Chubin. D. VI asrda, Qorachurin.

**242. Bumin qachon xoqon bo'lgan?**
A. 552-yil. B. 554-yil.
C. 500-yil. D. 446-yil.

**243. Xoqonlikning markazi qayer bo'lgan?**
A. Oltoy. B. Ili daryosi havzasi.
C. Janubry Sibir hududlari. D. Oloy o'lkasi.

**244. Turklarning g'arbga yurishlariga kim boshchilik qilgan?**
A. Istemi. B. Bumin.
C. Qorachurin. D. Bahrom Chubin.

**245. Istemi qanday unvon olgan?**
A. "Yabg'u xoqon". B. Ilekxon.
C. Tudun. D. Budun.

**246. 555-yilgacha turklar davlati chegarasi janubda qaysi davlat hududigacha borib yetadi?**
A. Eftaliylar. B. Xitoylar.
C. Forslar. D. Arablar.

**247. Turklar tomonidan Yoyiq va Itil bo'lari qachon egallangan?**

A. 558-yilda. B. 550-yilda.

C. 650-yilda. D. 557-yilda.

**248. Yoyiq va Itil hozirgi qaysi daryolar?**

A. Ural va Volga. B. Kaspiy va Ural.

C. Kaspiy va Volga. D. Vaxsh va Orol dengizi.

**249. 575-576-yillarda qayerlarni egallaydilar?**

A. Shimoliy Kavkaz yerlarini. B. Sharqiy Turkistonni.

C. Shimoliy Hindistonni. D. O'rta Osiyoni.

**250. Turklar Shimoliy Kavkaz yerlarini egallab, Qrim yarim oroliga kirib borganlarida Sosoniylar eftaliylardan qaysi hududlarni tortib oladilar?**

A. Toxariston va Chag'oniyonni.

B. Marg'iyona va So'g'diyonani.

C. Shimoliy Baqtriya yerlarini.

D. Toxariston va Shimoliy Baqtriya yerlarini.

**251. Eron va Turk xoqonligi o'rtasidagi munosabatlar qanday mustahkamlangan?**

A. Xusrav I Anushervon Turk xoqoni Istemiga kuyov bo'lgan.

B. Forslar turklarga Soliq to'lab turganlar.

C. Savdo aloqalari o'rnatilgan.

D. O'zaro tinchlik sulhi imzolangan.

**252. 563-yil turklarni Eftallar yerlariga bostirib kirishiga Eron qanday yordam bergan?**

A. Balxga hujum qiladi.

B. Qo'shin bilan ta'minlaydi.

C. Turklar bilan ittifoq tuzadi.

D. Eftaliylarga qarshi hujum qiladi.

**253. Chirchiq daryosi o'rta asrlarda qanday nomlangan?**

A. Parak. B. Politimet.

C. Oks. D. Vaxsh.

**254. Nechanchi yilgacha Eron va Turk xoqonligi tomonidan Eftaliylar hududi bosib olingan?**

A. 563-yildan 567-yilgacha. B. 543-yildan 549-yilgacha.

C. 548-yildan 630-yilgacha. D. 567-yilda.

**255. Eftallar davlati tugagach Eron va Turk xoqonligi o'rtasidagi chegara qayer belgilangan?**

A. Amudaryo qirg'og'i. B. Sirdaryoning quyi oqimi.
C. Eronning shimoliy hududi. D. Turkmaniston.

**256. Turk xoqonligining asosi qanday ma'muriy birliklardan iborat edi?**

A. Qabilalar ittifoqidan. B. Oqsoqollar kengashidan.
C. Satrapliklardan. D. Qabilalar ittifoqi va Oqsoqollar kengashidan.

**257. Turk xoqonligida davlat boshlig'i nima deb atalgan?**

A. Xoqon. B. Podsho.
C. Yabg'u. D. Sulton.

**258. Turk xoqonligida davlat qanday ma'muriy boshqaruvga asoslangan edi?**

A. Urug' aymoqchilik udumlariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruvga.
B. Tumanlar va viloyatlar.
C. Bekliklar.
D. Harbiy bo'linmalar.

**259. Turk xoqonligida ko'manchi chorvador aholi qanday nomlangan?**

A. Budun yoki qora budun. B. Dehqon.
C. Kashovarz. D. Kadivar.

**260. Qabilalar ittifoqi qanday nomlangan?**

A. O'n o'q budun yoki O'n o'q el. B. Kengash.
C. Harbiy ittifoq. D. Tuman.

**261. Turk xoqonligida kimlar "Yabg'u" yoki "Jabg'u" deb atalgan?**

A. O'n o'q budun hokimlari. B. Kengash raisi.
C. Harbiy ittifoq boshlig'i. D. Tuman hokimi.

**262. Yabg'u darajasiga kimlar ko'tarilislii mumkin bo'lgan?**

A. Xoqon urug'iga mansublar.
B. Harbiy yurishlarda jasorat ko'rsatgan sarkardalar.
C. Urug'ning nufuzli kishilari.
D. Xoqonning o'g'li va Urug'ning nufuzli kishilari.

**263. O'n o'q budun yabg'ulari qanday nom bilan ulug'langan?**

A. "Yabg'u xoqon". B. "Ulug' xoqon".
C. "Buyuk xoqon". D. "Xoqon".

**264. “Shod ” qanday mansab bo’lgan?**

A. O’n o’qning qo’shin qo’mondoni.

B. Xoqonning xos soqshisi.

C. Saroy soqchilari boshlig’i.

D. Harbiy yurishlarda jasorat ko’rsatgan sarkardalarga beriladigan unvon.

**265. Dehqon va chorvadorlardan qanday soliq olingan?**

A. Yasoq. B. O’lpon.

C. Ushr. D. Qopchur.

**266. Boshqaruvning qanday tartibi xoqonlikni zaiflashuviga sabab bo’lgan?**

A. Bo’ysundirilgan hududlar mahalliy hokimlar tomonidan mustaqil boshqarilganligi.

B. Umumiy,yagona boshqaruvning yo’qligi.

C. Doimiy urushlar.

D. Yagona iqtisodiy birlikning yo’qligi.

**267. Turk xoqonligi qachon ikki qismga bo’linib ketgan?**

A. VI asrning 80-yillar oxirida.

B. VI asrning 84-yillar boshlari.

C. VII asrning oxirida.

D. V asrning 80-yillar oxirida.

**268. Sharqiy xoqonlik tarkibiga qayerlar kirgan?**

A. Janubiy Sibir, Urxun xavzasi (Mo’g’uliston), Shimoliy Xitoy.

B. Sharqiy Turkiston, Sibir.

C. Markaziy Osiyo hududlari.

D. Farg’ona vodiysi.

**269. Sharqiy xoqonlik markazi qayerda joylashgan?**

A. O’tukan vodiysida (Mo’g’uIistonda).

B. Sharqiy Turkistonda.

C. Xitoyda.

D. Sibirda.

**270. G’arbiy Tutk xoqonligi tarkibiga qayerlar kirgan?**

A. Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Amudaryo va Sirdaryo havzalari hamda ularga tutash hududlar.

B. Janubiy Sibir, Urxun xavzasi (Mo’g’uliston), Shimoliy Xitoy.

C. Sharqiy Turkiston, Sibir.

D. Xitoy.

**271. G’arbiy Turk xoqonligining markazi?**

A. Yettisuv.

B. Sharqiy Turkiston.

C. Amudaryo va Sirdaryo havzalari.

D. Toxariston.

**272. Sharqiy Turk xoqonligi aholisining asosiy mash-g’uloti?**

A. Chorvachilik. B. Dehqonchilik.

C. Temirchilik. D. Chorvachilik va dehqonchilik.

**273. G’arbiy Turk xoqonligi aholisining asosiy mash-g’uloti?**

A. Dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq.

B. Temirchilik va savdo-sotiq.

C. Chorvachilik va hunarmandchilik.

D. Dehqonchilik, temirchilik va savdo-sotiq.

**274. Mahalliy hokimlarga yabg’u unvoni kim tomonidan berilgan?**

A. Xoqon tomonidan.

B. Oqsoqollar kengashi tomonidan.

C. Xalq yig’ini tomonidan.

D. Harbiy boshliqlar tomonidan.

**275. G’arbiy Turk xoqonligining kuchaygan davri?**

A. VII asrning birinchi choragi. B. VIII asrning o’rtalari.

C. VIII asrning ikkinchi choragi. D. VII asrning oxiri.

**276. G’arbiy Turk xoqonligi kuchaygan davrda davlat chegarasi qayerlarga yetib boradi?**

A. Sharqda Oltoy, janubda Sind daryosi bo’ylarigacha.

B. Shimoliy Hindiston va Kaspiy dengizigacha.

C. Sharqiy Turkiston va Xitoy.

D. Markaziy Osiyo va Eron.

**277. G’arbiy Turk xoqonligida kimning hukmronligi davrida boshqaruv tartiblari isloh qilingan?**

A. Xoqon To’n yabg’u (618-630) hukmronligi davrida.

B. Xoqon Tunyuquq davrida.

C. Xoqon Istemi davrida.

D. Xoqon Bumin davrida.

**278. Xoqonlikda nima maqsadda mahalliy hokimlarga “yabg’u” unvoni berilgan?**

A. Viloyat hokimlarini xoqonlik ma’muriyati bilan bog’lash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida.

B. Xoqonlarning vakolatlarini kengaytirish maqsadida.

C. Mahalliy hokimlarga keng imtiyozlar berish maqsadida.

D. Tarqoqlikning oldini olish maqsadida.

**279. O’rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxarislon hokimliklari ustidan nazoratni kuchaytirish uchun yuborilgan xoqonlikning noiblari nima deb ataladi?**

A. Tudunlar. B. Noiblar.

C. Budunlar. D. Yabg’ular.

**280. G’arbiy lurk xoqonligining zaiflashuviga nima sabab bo’lgan?**

A. Ichki siyosiy kurashlar. B. Iqtisodiy qaramlik.

C. Siyosiy tarqoqlik. D. Tashqi hujumlar.

**281. Turk xoqonligida shahar aholisining asosiy mash-g’uloti?**

A. Ichki va tashqi savdo bilan shug’ullanish.

B. Hunarmandchilik va tashqi savdo bilan shug’ullanish.

C. Temirchilik va ichki savdo bilan shug’ullanish.

D. To’qimachilik va savdo sotiq.

**282. C’arbiy Turk xoqonligi va Xitoy o’rtasidagi iqtisodiy aloqalar qachon faollashgan?**

A. VII asrning birinchi yarmida. B. VII asrning oxirida.

C. VIII asrning birinchi yarmida. D. VIII asrning o’rtalarida.

**283. 585-586-yillarda Buxoroda boshlangan dehqonlar qo’zg’oloniga kim boshchilik qilgan?**

A. Abruy. B. Muqanna.

C. Mazdak. D. Abu Muslim.

**284. Abruy boshchligidagi qo’zg’olonlardan vahimaga tushgan dehqon va boy savdogarlar qayerga ko’chib o’tadilar?**

A. Turkiston va Tarozga. B. Xitoyga.

C. Farg’onaga. D. Chochga.

**285. Dehqon va savdogarlar qo’zg’olonchilarga qarshi kurashda kimdan yordam so’raydilar?**

A. Turk xoqonidan. B. Xitoyliklardan.

C. So’g’dliklardan. D. Chochliklardan.

**286. Turk xoqoni Qoracho'rin Buxorodagi qo'zg'olonni bostirish uchun kim boshchiligida qo'shin yuboradi?**

A. O g'li Sheri Kishvar (EI Arslon) boshchiligida.
B. Bahrom Chubin boshchiligida.
C. Istemi boshchiligida.
D. Bumin boshchiligida.

**287. Mahalliy hokimliklar orasida eng yirigi?**

A. So'g'd ixshidlari davlati. B. Choch.
C. Farg'ona. D. Ustrushona.

**288. Ilk o'rta asrlarda Samarqand, Buxoro va Kesh vohalaridagi o'n bitta yirik mulklar qanday ittifoqqa birlashgan?**

A. So'g'd ixshidlari ittifoqiga. B. Choch ittifoqiga.
C. Harbiy birlashmalar ittifoqiga. D. Harbiy uyushmaga.

**289. So'g'd tog'laridan asosan qanday qazilmaiar qazib olingan?**

A. Oltin, jez, novshadil, yalama tuz. B. Kumush, jez.
C. La'l, oltin. D. Ohaktosh.

**290. Toxariston hududida nechta viloyat joylashgan edi?**

A. 27 ta tog' va tog' oldi viloyat. B. 12 ta.
C. 11 ta. D. 21 ta.

**291. Toxariston poytaxti?**

A. Balx shahri. B. So'g'd.
C. Nishopur. D. Choch.

**292. Toxariston aholisi qysi dinga e'tiqod qilgan?**

A. Budda. B. Zardushtiylik.
C. Moniy. D. Ajdodlar ruhiga.

**293. Toxariston yozuvi nechta xarfdan iborat bo'lgan?**

A. 25 harfdan. B. 30 harfdan.
C. 34 harfdan. D. 50 harfdan.

**294. Toxariston o'z ichiga hozirgi qaysi hududlarni olgan?**

A. Janubiy O'zbekiston, Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston hududlarini.
B. Janubiy O'zbekiston, Tojikiston, Shimoliy Hindiston hududlarini.
C. Tojikiston, Shimoliy Hindiston, Shimoliy Afg'oniston hududlarini.
D. Janubiy O'zbekiston, Tojikiston, Sarqiy Turkiston.

**295. Toxariston nomi qayerdan olingan?**

A. Miloddan avvalgi II asrda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan toxarlar nomidan.

B. Miloddan avvalgi I asrda Yunon-Baqtriya davlatini bosib olgan saklar nomidan.

C. Milodiy I asrda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan yuechjilar nomidan.

D. Miloddan avvalgi III asrda Yunon-Baqtriya davlatiga bostirib kelgan turk qavmi nomidan.

**296. Farg'onada ilk o'rta asrlarda hukmdorlar nima deb atalgan?**

A. Ixshid. B. Xudot.
C. Tudun. D. Yabg'u.

**297. Ilk o'rta aslarda Farg'onaning yirik shaharlari?**

A. Koson, Axsikat, Quva. B. Marg'ilon, Quva.
C. Qo'qon, Marg'ilon. D. Quva, Marg'ilon.

**298. Ilk o'rta asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida qaysi hokimliklar mavjud bo'lgan?**

A. Choch va Iloq. B. Ustrushona, Farg'ona.
C. Chirchiq, Ohangaron. D. Nasaf, Kesh.

**299. Chochning markazi qayer bo'lgan?**

A. Choch. B. Binket.
C. Navkat. D. Xarashkat.

**300. Iloqning markazi?**

A. Tunkat. B. Choch.
C. Binket. D. Navkat.

**301. Chochda hukmdor nima deb atalgan?**

A. Tudun. B. Ixshid.
C. Xudot. D. Budun.

**302. Iloq hukmdori?**

A. Dehqon. B. Ixshid.
C. Yabg'u. D. Xudot.

**303. VII asrning birinchi choragida G'arbiy Turk xoqonining qarorgohi qayerga ko'chirilgan?**

A. Choch viloyatiga. B. Toxaristonga.
C. Balxga. D. Baqtriyaga.

**304. Chochda zarb etilgan tangalarda qanday tasvir tushirilgan?**

A. Old tomonida hukmdor (mulkdor) orqasida gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba’zan sulolaviy ayri tamg’a tushirilgan.

B. Malika va shoh tasviri.

C. Shoh tasviri va yozuv.

D. Hukmdor va iloh tasviri.

**305. Choch saroyida hukmdordan keyingi o’rinda kim turgan?**

A. Hukmdor malikasi. B. Hukmdor o’g’li.

C. Harbiy qo’shin qo’mondoni. D. Diniy rahnamo.

**306. Ilk o’rta asr O’rta Osiyo hokimliklarida boshqaruv ma’muriyatining asosiy vazifasi asosan nimadan iborat edi?**

A. Fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni yig’ib olish va jamoat ishlariga ularni safarbar etish.

B. Fuqarolar huquqini himoya qilish.

C. O’z hududini tashqi dushmandan himoya qilish.

D. Markaziy hokimiyatga soliq undirish.

**307. O’rta asr shaharlari necha qismdan iborat bo’lgan?**

A. 3 qismdan. B. 5 qismdan.

C. 6 qismdan. D. 12 qismdan.

**308. Ark (ko’xandiz) shaharning qavsi qismi?**

A. Shaharning hokim qasri joylashgan qismi.

B. Hukmdkrning maxsus saroyi joylashgan qismi.

C. Shahar markazi.

D. Hunarmandlar joylashgan qismi.

**309. Rabod qaysi qismi?**

A. Shaharning tashqi qismi. B. Markaziy qismi.

C. Shaharning ichki qismi. D. Hunarmandlar joylashgan qismi.

**310. Shaharning ichki qismi nima deb atalgan?**

A. Shahriston. B. Rabot.

C. Ark. D. Ko’handiz.

**311. Binkat arkining (Toshkent) jami nechta darvozasi bo’lgan?**

A. 22 ta. B. 32 ta.

C. 36 ta. D. 42 ta.

**312. Bu haqda kimlar ma’lumot bergan?**

A. Arab mualliflari ibn Xavqal va Istahriy.

B. Sam’oniy. C. Beruniy. D. Narshaxiy.

**313. So'g'd va Xorazm yozuvlari qaysi yozuv asosida vujudga kelgan?**

A. Oromiy yozuvi asosida. B. Baqtr yozuvi asosida.

C. Kushon yozuvi asosida. D. Grek yozuvi asosida.

**314. Toxariston yozuvi qaysi yozuv asosida vujudga kelgan?**

A. Baqtriya yozuvi asosida. B. Oromiy yozuvi asosida.

C. Grek yozuvi asosida. D. Kushon yozuvi asosida.

**315. So'g'd yozuvi topilmalari qayerlardan topib o'rganilgan?**

A. Panjikent yaqinidagi Mug' qal'asidan, Sharqiy Turkistondagi Turfan shahri yaqinidan, Samarqanddagi Afrosiyob xarobalaridan.

B. Afrosiyob, Dalvarzin, Ayritom.

C. Panjikent, Farg'ona. D. Xitoy, Oloy.

**316. So'g'dda o'g'il bolalarga yozuv va hisob necha yoshdan o'rgatilgan?**

A. 5 yoshga to'lgach. B. 7 yoshga to'lgach.

C. 9 yoshga to'lgach. D. 12 yoshga to'lgach.

**317. 20 yoshga kirganlaridan so'ng qayerlarga jo'natilgan?**

A. Savdo ishlarini o'rganishi uchun o'zga mamlakatlarga.

B. Harbiy urushlarga.

C. Ilm o'rganishi uchun o'zga mamlakatlarga.

D. Elchi sifatida o'zga mamlakatlarga.

**318. Turkiy run (ko'k turk) yozuvi nechta harfdan iborat bo'lgan?**

A. 38-40 harfdan. B. 100 harfdan.

C. 40-50 harfdan. D. 3000 harfdan.

**319. VI-VII asrlarda O'rta Osiyo aholisi qanday dinlarga e'tiqod qiiganlar?**

A. Zardushtiylik, nasroniylik, moniylik, qa'm dinlariga.

B. Zardushtiylik, nasroniylik va budda.

C. Nasroniylik, moniylik va budda.

D. Zardushtiylik va budda.

**320. Ilk o'rta asrlarda aholining ko'pchilik qismi qaysi dinga e'tiqod qilgan?**

A. Zardushtiylik. B. Budda.

C. Nasroniylik. D. Moniylik.

**321. Qayer O'rta Osiyodagi nasroniylik markazlaridan biri hisoblangan?**

A. Samarqand viloyatidagi Urgut tumani.
B. Surxondaryo viloyatidagi Termiz shahri.
C. Surxondaryo viloyatidagi Tarmita.
D. Amudaryo qirg'ogida joylashgan hududlar.

**322. Moniy dini qanday arkonlarga asoslangan?**

A. Ibodat, ro'za va sadaqa. B. Tarkidunyolik.
C. Moddiy farovonlik. D. Ezgulik.

**323. Kimlar asosan shomoniylik diniga sig'inganlar?**

A. Turk xoqonligining chorvador aholisi.
B. Baqtriya aholisi.
C. Surxondaryo viloyatida yashovchi kulollar.
D. Turk xoqonligining dehqon aholisi.

**324. Turklar shomon dinini nima deb ataganlar?**

A. "Qa'm". B. Moniy.
C. Zardushtiylik. D. Nasroniylik.

**325. Qa'm diniga mansub aholi nimaga e'tiqod qilgan?**

A. Ko'k tangriga. B. Quyoshga.
C. Osmon jismlariga. D. Har xil hayvonlarga.

**326. Ko'k tangri sharafiga nima qurbonlik qilingan?**

A. Qoraqashqa ot. B. Ola sigir.
C. Tuya. D. Qora qo'chqor.

**327. O'rta asrlarda duradgorlik nima deb atalgan?**

A. Najjorlik. B. Sarroflik.
C. Sarroflik. D. Saffor.

**328. Bolaliktepa yodgorligi qayerda joylashgan?**

A. Surhon vohasida. B. Balxda.
C. Baqtriyada. D. Xorazmda.

**329. Ilk o'rta asrlarda haykaltaroshlikning rivojlanishiga nima sabab bo'ldi?**

A. Buddaviylik dini.
B. Ellin madaniyatining keng tarqalishi.
C. Qo'shni davlatlar bilan savdo a'loqalarining rivojlanishi.
D. Hunarmandchilikning rivojlanishi.

**330. Bahaybat Budda haykallari qayerlardan topilgan?**

A. Farg'ona vodiysida Quvadan va Qo'rg'ontepa yaqinida Ajinatepadan.

B. Termizdan.
C. Surxondaryodagi Fayoztepa yodgorligidan.
D. Xorazmdan.

**331. Ajinatepadan topilgan Budda haykalining balandligi qancha?**

A. 12 metr. B. 10 metr.
C. 23 metr. D. 7 metr.

**332. Ilk o'rta asrlarga oid ganchkorlik san'ati namunalari qayerdan topib o'rganilgan?**

A. Buxoro hukmdorlarining Varaxshadagi qarorgohi xarobalaridan
B. Qadimgi Xorazmning To'rtko'l tumanidan 26 chaqirim masofadagi Guldursun qala'sidan.
C. Amudaryoning quyi oqimidan.
D. Surxondaryo vohasidagi Kuchuktepa yodgorligidan.

**333. Arkon nima?**

A. Dindagi eng muhim vazifa.
B. Saroy ayonlarining umumiy atalishi.
C. Saroy bosh vaziri.
D. Nufuzli davlat arboblari.

**334. Ilk o'rta asrlarda musiqa san'ati qanday yutuqlarga erishgan?**

A. Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent o'yinchi yigit va raqqosa qizlari bilan mashhur bo'lgan. Buxoro shahrida hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan.
B. Sharq mamlakatlari musiqa san'ati bilan uyg'unlashgan.
C. G'arb mamlakatlari musiqa san'ati bilan uyg'unlashgan.
D. Raqs san'ati rivoj topgan.

**335. Islom dini nechanchi asrda paydo bo'lgan?**

A. VII asrda Arabiston yarim orolida.
B. VIII asrda Arabistonning Makka shahrida.
C. VII asrda Arabistonning shimoliy hududida.
D. VIII asrda Arabiston yarim orolida.

**336. "Islom" so'zining ma'nosi?**

A. Bo'ysunish, itoat etish.
B. O'qi.
C. E'tiqod.

D. Bo’ysunish, itoat etish va o’qi.

**337. “Muslimlar” kimlar?**

A. Islom dinini qabul qilganlar, musulmonlar.

B. Islom dinini qabul qilgan erkaklar.

C. Islom dinini tarqatish yo’lida jabr ko’rganlar.

D. Islom dinining rahnamolari.

**338. Islom dini targ’iboti dastlab qaysi shaharda boshlangan?**

A. Makkada. B. Karbaloda.

C. Qohirada. D. Eronda.

**339. Arablar nechanchi yilda yagona davlatga birlash-tirilgan?**

A. 630-yilda. B. 650-yilda.

C. 570-yilda. D. 640-yilda.

**340. Abu Bakr nechanchi yillarda xalifalik qilgan?**

A. 632-634-yillarda. B. 658-659-yillarda.

C. 600-630-yillarda. D. 623-634-yillarda.

**341. “Xalifa” so’zining ma’nosi?**

A. O’rinbosar. B. Payg’ambarning yaqin kishisi.

C. Hazrati Alining izdoshi. D. Islom dini targ’ibotchisi.

**342. Arablar O’rta Osiyoga kirib kelgunlarigacha qayerlarni egallaganlar?**

A. Misr, Suriya, Iroq, Falastin, Eron.

B. Misr, Suriya, Iroq va Movorounnahr.

C. Suriya, Iroq, Falastin, Eron, Turkiston.

D. Misr, Suriya, Iroq, Falastin, Turkmaniston.

**343. 651-yilda arablar tomonidan qaysi shahar jangsiz egallangan?**

A. Marv. B. Xorazm. C. Xuroson. D. Balx.

**344. Arablar tomonidan qaysi hududlar Xuroson deb atalgan?**

A. Afg’onistonning shimoli, Eronning shimoliy-sharqiy qismi, Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo’lgan hududlari.

B. Janubiy Turkmanistondan to Sharqiy Turkistongacha bo’lgan hududlari.

C. Turkmaniston janubi, Qozog’istonning shimoliy-sharqiy qismidan to Afg’onistonning shimoligacha bo’lgan hududlari.

D. Qirg'izistonning shimoli, Eronning shimoliy-sharqiy qismi va Amudaryogacha bo'lgan hududlari.

**345. Xuroson markazi qaysi shahar bo'lgan?**

A. Marv. B. Balx. C. Toxariston. D. Buxoro.

**346. Xuroson viloyatini kim boshqargan?**

A. Noib. B. Hokim. C. Halifa. D. Xoqon.

**347. Amudaryo shimolidagi hududlar arablar tomonidan qanday atalgan?**

A. Movorounnahr (daryoning narigi tomoni).

B. Transoksiana.

C. Ikki daryo oralig'i.

D. Daryonong o'ng sohili.

**348. Arablarning Movorounnahrga ilk bor hujumlari qaysi shaharlarni egallashdan boshlangan?**

A. Maymurg' (654) va Chag'oniyonni (667).

B. Buxoro, 650-yil.

C. Samarqand, 601-yil.

D. Termiz, 602-yil.

**349. 673 yilda Amudaryodan o'tib Buxoroga kim bostirib kiradi?**

A. Ubaydulloh ibn Ziyod. B. Qutayba ibn Muslim.

C. Ashros. D. Abu Muslim.

**350. Kimning farmoni bilan?**

A. Xalifa Muoviya I. B. Ashros.

C. Xorun ar-Rashid. D. Abu Muslim.

**351. Ubaydulloh ibn Ziyod qaysi shaharlarni egallagan?**

A. Poykand va Romitanni. B. Kesh va Naxshabni.

C. Maymurg' va Chag'oniyonni. D. So'g'd va Farg'onani.

**352. U Buhoro hukmdoridan qancha miqdorda boj undiradi?**

A. Bir lak (yuz ming) dirham. B. Mingta tuya.

C. Ming bosh qora mol. D. Ikki lak (ikki yuz ming) dirham.

**353. Arablar Marvga qaytayotib yana qaysi shaharni egallaydi?**

A. Termiz. B. Buxoro.

C. Farg'ona. D. Xorazm.

**354. 704-yilda kim Xuroson noibi etib tayinlanadi?**

A. Qutayba ibn Muslim. B. Muoviya I.
C. Gurak. D. Ubaydulloh ibn Ziyod.

**355. U o'z yurishlarini qaysi viloyatni egallashdan boshlaydi?**

A. 705-yilda Balxni. B. 708-yilda Xurosonni.
C. 705-yilda Movorounnaxrni. D. 710-yilda Balxni.

**356. Poykand shahri necha kun qamal qilingan?**

A. 50 kun, 707-yilda. B. 70 kun, 770-yilda.
C. 80 kun, 706-yilda. D. 100 kun, 760-yilda.

**357. Povkanddan so'ng u o'z yurishlarini qayerga qaratgan?**

A. Buxoroga. B. Samarqandga.
C. Xorazmga. D. Keshga.

**358. Bu vaqtda Buxoro hukmdori kim edi?**

A. Tug'shoda (692-724). B. Tarxon.
C. Turkon Xotun. D. Xisrav.

**359. Mahalliy aholini islom diniga kirgizish uchun qanday islohot o'tkazgan?**

A. 2 dirhamdan pul bergan.
B. Bo'ysunmaganlar qatl etilgan.
C. Yer maydonlari taqdim etilgan.
D. 10 dirhamdan pul bergan.

**360. 710-yil qayerga yurish qilingan?**

A. Naxshab va Kesh egallanib, Samarqandga yurish boshlangan.
B. Buxoroga.
C. Samarqandni ishg'ol etib, Keshga.
D. So'g'dga.

**361. Qutayba nima sababdan Samarqandga yurishni to'xtatib, Xorazmga yurish qiladi?**

A. Xorazm shohi Chag'on ukasi Xurzod boshchnigidagi qo'zg'olonni bostirish uchun Qutaybadan yordam so'raganligi uchun.
B. Samarqandni yenga olmagani uchun.
C. Xorazmni ishg'ol qilish osonligi uchun.
D. Samarqand osongina taslim bo'lgani uchun.

**362. Samarqandga hujum nechanchi yildan boshlangan?**

A. 712-yildan. B. 716-yildan.
C. 750-yildan. D. 812-yildan.

**363. Bu vaqtda So’g’d hukumdori kim edi?**

A. Tarxun taxtdan ag’darilib, o’rniga Gurak (710-737 podsho etib ko’tarilgan edi.

B. Xurzod. C. Chag’on. D. Tarxun.

**364. Mag’lubiyatga uchragan So’g’d oldiga qanday shartlar qo’yilgan?**

A. Bir yo’la 2 ning dirham, 30 ning nafar odam va yiliga 200 ming dirxam to’lash, askar saqlamaslik va masjid bino qilish.

B. Islom dinini qabul qilish.

C. Katta miqdorda o’lpon to’lash.

D. Xalifalikni askarlar bilan ta’minlash.

**365. Qutayba tomonidan Gurak qayerlarga hokim etib tayinlangan?**

A. Samarqand, Kesh va Naxshab.

B. Buxoro, Termiz, Samarqand.

C. Farg’ona, Nasaf, So’g’d.

D. Termiz, Choch.

**366. 713-yilda Qutayba o’z yurishlarini qayerga qarat-gan?**

A. Choch va Farg’ona vodiysi tomonga.

B. Kesh va Naxshab tomonga.

C. Samarqandga.

D. Maymurg’ va Chag’oniyonga.

**367. Farg’ona vodiysi qachon egallangan?**

A. 715-yilda. B. 756-yilda.

C. 730-yilda. D. 780-yilda.

**368. Arablar tomonidan Farg’ona vodiysidan so’ng qayer-gacha bo’lgan hududlar egallangan?**

A. Qoshg’argacha. B. Xurosongacha.

C. Xo’tangacha. D. Yorkentgacha.

**369. Bosib olingan viloyatlarni kimlar boshqargan?**

A. Amirlar. B. Hokimlar.

C. Noiblar. D. Xalifalar.

**370. Qutayba nima sababdan o’ldiriladi?**

A. Yangi Xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko’targani uchun arablar tomonidan Farg’ona vodiysida o’ldiriladi.

B. Mahalliy xalqqa zulm o’tkazgani uchun.

C. Markaziy hokimiyatga bo’ysunmagani uchun.

D. Xalifalik buyruqlarini bajarmagani uchun.

**371. Arablar egallagan hududlaridan qanday soliqlar olganlar?**

A. Xiroj, ushr, zakot, jizya. B. Ushr, targ'u.

C. Zakot. D. Jizya.

**372. Jizya – bu?**

A. Islom dinini qabul qilmagan aholidan olinadigan soliq, jon solig'i.

B. Hosilning 1/10 qismi. C. Yer solig'i.

D. Hunarmandlardan olinadigan soliq.

**373. Zakot – bu?**

A. Mol-mulkning 1/40 qismi hajmida olinadigan soliq.

B. Mol-mulkning 1/10 qismi hajmida olinadigan soliq.

C. Jon solig'i. D. Yer solig'i.

**374. Xiroj – bu?**

A. Hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan soliq.

B. Mol-mulkning 1/10 qismi hajmida olinadigan soliq.

C. Jon solig'i. D. Yer solig'i.

**375. Ushr – bu?**

A. Idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmida olingan soliq.

B. Hosilning 1/3 qismida olinadigan soliq.

C. Jon solig'i. D. Yer solig'i.

**376. Islom dini kirib kelguncha Movorounnahr aholisi ko'pchilik qaysi dinga e'tiqod qilgan?**

A. Zardushtiylik. B. Budda.

C. Moniy. D. Shaman.

**377. Islom dinini qabul qilganlar dastlab qaysi soliqlardan ozod qilingan?**

A. Xiroj va jizya. B. Ushr va jizya.

C. Zakot va xiroj. D. Barcha turdagi soliqlardan.

**378. Arab yozuvigacha Movorounnahrda keng tarqalgan yozuv?**

A. So'g'd yozuvi. B. Oromiy yozuvi.

C. Baqtr. D. Kushon.

**379. Qanday jarayon mahalliy xalqni xalifalikka qarshi qo'zg'olonlarni boshlanishiga olib kelgan?**

A. Talonchilik siyosati, madaniyatning oyoq osti qilinishi, zulmni va xalifalik qonun qoidalarini zo'rlik bilan joriy etilishi

B. Soliqlarning oshishi.
C. Jazoning og'irligi.
D. Jabr-zulmning ortishi.

**380. Qaysi xalifa yangi yerlarni zabt etishni to'xtatib, moliyaviy islohot o'tkazish to'g'risida farmon beradi?**

A. Umar ibn Abdulaziz (717-719). B. Ashros (750-790).
C. Ma'mun. D. Amin.

**381. Qaysi hudud xalifalikning xiroj va jizya solig'ini bekor qilish to'g'risida qarorni bajarishdan bosh tortgan?**

A. Xuroson noiblari. B. Samarqand noiblari.
C. Buxoro noiblari. D. Chog'oniyon noiblari.

**382. Xalifalikning barchadan jizya olish haqidagi qarori qanday oqibatlarga olib keldi?**

A. Movorounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinga qaytish boshlandi.
B. Movorounnahrda xalq qo'zg'olon ko'tardi.
C. Fuqarolar urushi boshlandi.
D. Movorounnahr xalifalikdan ajralib chiqish uchun qo'zg'olon ko'tardi.

**383. 720-yilda So'g'dda boshlangan qo'zg'olonga kim boshchilik qilgan?**

A. Samarqand ixshidi Gurak va Panjikent xokimi Divashtich.
B. Xurzod. C. Tarxun. D. Ashros.

**384. So'g'dliklarga kimlar yordaniga kelgan?**

A. Yettisuvdan turklar. B. Farg'onaliklar.
C. Xitoyliklar. D. Termiz aholisi.

**385. 721-yil Xurosonga kim noib etib tayinlanadi?**

A. Said Xarashiy. B. Divashtich.
C. Ashros. D. Gurak.

**386. Xuroson noibi Ashros qanday islohot o'tkazgan?**

A. Islom dinini qabul qilganlardan Xiroj va jizya solig'ini olishni bekor qilgan.
B. O'z nomidan oltin tangalar zarb ettirgan.
C. Shahar qurilishiga e'tibor qaratgan.
D. Eski diniy e'tiqod marosimlari o'tkaziladigan ibodatxonalarini buzib tashlatgan.

**387. Xurosonda kimning noibligi davridan boshlab islom dinini yangi qabul qilganlar jiz'yadan ozod etilib, barcha uchun xiroj to'lash shart qilib qo'yildi?**

A. Nasr ibn Sayyor (738-748). B. Ashros.
C. Ma'mun. D. Amin.

**388. Buxorxudotning qiziga uylangan Xuroson noibi kim?**

A. Nasr ibn Sayyor. B. Ashros.
C. Gurak. D. Divashtich.

**389. Arab xalifaligida toj-taxt uchun kurash qachon boshlangan?**

A. VII asr 40-yillarida. B. VIII asr 45-yillarida.
C. VII asr 70-yillarida. D. VI asr 60-yillarida.

**390. Ummaviylarga qarshi norozilik qaysi xalifa davrida kuchayadi?**

A. Marvon II (744-750) davrida. B. Nasr davrida.
C. Amin davrida. D. Ma'mun davrida.

**391. Abu Muslim qanday harakatga yetakchilik qilgan?**

A. Ummaviylarga qarshi harakatga.
B. Abbosiylarga qarshi harakatga.
C. Ozodlik uchun kurashga.
D. Xalifalikni markazlashtirishga.

**392. Nechanchi yildan u Xurosonda o'z targ'ibotini boshlaydi?**

A. 746-yildan. B. 768-yildan.
C. 789-yildan. D. 740-yildan.

**393. Abu Muslim qayerni o'z qarorgohi etib belgilagan?**

A. Moxuvon qal'asini. B. Som qal'asini.
C. So'g'dni. D. Xurosonni.

**394. Harakatga qo'shilganlarning ko'pchiligini kimlar tashkil etgan?**

A. Qullar. B. Dehqonlar.
C. Misgarlar. D. Temirchilar.

**395. Qullar uchun qayerda maxsus joy tashkil etilgan?**

A. Shavval qishlog'ida. B. Termizda.
C. Samarqandda. D. Chochda.

**396. Ularga kim boshliq etib tayinlangan?**

A. Dovud ismli targ'ibotchi. B. Gurak.
C. Divashtich. D. Abbos.

**397. Bu harakatdan arab zodagonlarining maqsadi nima edi?**

A. Hokimyatni abbosiylarga olib berish.
B. Xalifalikni mustahkamlash.
C. Xalifalikdan ajrab chiqish.
D. Markazlashgan davlat tuzish.

**398. Mahalliy mulkdorlarning maqsadi?**

A. Xalifalikdan ajralib chiqish.
B. O'z hokimiyatlarini mustahkamlash.
C. Xalifalik taxtini egallash.
D. Markazlashgan davlat tuzish.

**399. Ummaviylarga qarshi ko'tarilganlar qanday libos kiyib olganlar?**

A. Qora libos. B. Moviy rang libos.
C. Ko'k libos. D. Sariq libos.

**400. 748-yili Abu Muslim tomonidan qayer egallangan?**

A. Xuroson poytaxti Marv. B. Buxoro.
C. Samarqand. D. Chog'oniyon.

**401. Ummaviylardan bo'lgan so'nggi xalifa kim?**

A. Marvon II. B. Nasr.
C. Amin. D. Ma'mun.

**402. Abu Muslim boshchnigidagi qo'zg'olonchilar qachon poytaxtni egallab, Marvonni taxtdan ag'dardilar?**

A. 749-yilda. B. 768-yilda
C. 789-yilda. D. 739-yilda.

**403. Ummaviylar o'rniga qaysi sulola xalifalik taxtiga o'tirgan?**

A. Abbosiylar sulolasi. B. Toxiriylar.
C. Somoniylar. D. Qoraxoniylar.

**404. Abbosiylardan bo'lgan birinchi xalifa kim?**

A. Abul Abbos Saffoh. B. Abu Muslim.
C. Nasr. D. Ma'mun.

**405. Movarounnahrdagi ichki ziddiyatdan foydalangan qaysi davlat qo'shinlari Turkistonga bostirib kiradi?**

A. Xitoy qo'shinlari. B. Turklar.
C. Forslar. D. Ko'chmanchilar.

**406. Arab va Xitoy qo'shinlari o'rtasidagi jang qayerda bo'lib o'tgan?**

A. Talos vodivsida, 751-yilda. B. Qorasharda, 768-yilda.
C. Yorkentda, 749-yilda. D. Dunxuanda, 785-yilda.

**407. Ummaviylar sulolasi nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?**

A. 661-750-yillarda. B. 678-789-yillarda.
C. 656-765-yillarda. D. 643-723-yillarda.

**408. Abbosiylar sulolasi nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?**

A. 750-1258-yillarda. B. 786-1234-yillarda.
C. 745-1256-yillarda. D. 768-1265-yillarda.

**409. 769-783-yillarda Movarounnhrda bo'lib o'tgan qo'zg'olon tarixga qanday nom bilan kirgan?**

A. "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni. B. Abu Muslim qo'zg'oloni.
C. Qora kiyimliklar. D. Sarbadorlar.

**410. Bu harakatga kim boshchilik qilgan?**

A. Muqanna – Xoshim ibn Xakim.
B. Abu Muslim. C. Divashtich. D. Gurak.

**411. Muqanna yoshligida qanday kasb bilan shug'ullangan?**

A. Kundugarlik (mato bo'yovchi).
B. Kulolchilik. C. Temirchilik. D. Misgarlik.

**412. Keyinchalik u qanday lavozimda ishlagan?**

A. Sarxang – kichik lashkarboshidan vazir darajasigacha ko'tarilgan.
B. Devon boshlig'i.
C. Saroy kotibi.
D. Soliq undiruvchi.

**413.Muqanna qayerni o'z qarorgohiga aylantirgan?**

A. Kesh yaqinidagi Som qal'asini.
B. Termizni.
C. Samarqandni.
D. Chochni.

**414. "Oq kiyimlilar" qo'zg'olonini bostirish maqsadida 775-yilda xalifa Mansur tomonidan yuborilgan qo'shinga kim boshchilik qilgan?**

A. Jabroil ibn Yahyo. B. Abu Muslim.
C. Marvon. D. Tarxun.

**415. Narshax qal'asidagi qo'zg'olonchilar arablarga qarshi qancha vaqt davomida kurash olib bordilar?**

A. To'rt oy. B. Olti oy.

C. Yetti oy. D. Uch oy.

**416. Narshaxdagi qo'zg'olonchilar yengilgach arablar qo'zg'olonchilarga qarshi asosiy kuchni qayerga tashlaydilar?**

A. Samarqand va Keshga. B. Samarqan va Buxoroga.

C. Choch va Farg'onaga. D. So'g'd va Keshga.

**417. 777 yida Oq kiyimlilarga zarba berish uchun harbiy kuch to'plash maqsadida Xuroson poytaxti Nishopurga kelgan arab xalifasi kim?**

A. Xalifa Mahdiy. B. Ma'mun.

C. Marvon. D. Amin.

**418. Samarqandda Oq kiyimlilar arablarga qarshi qancha vaqt davomida kurash olib borganlar?**

A. 2 yil. B. 3 yil. C. 5 yil. D. 7 yil.

**419. Oq kiyimlilar qo'zg'olonining oxirgi bosqichi qayerda bo'lib o'tgan?**

A. Kesh vodiysida. B. Buxoro vohasida.

C. Samarqandda. D. Chochda.

**420. Muqannaning Som qal'asi qachon qamal qilib egallanadi?**

A. 783-yilda. B. 789-yilda.

C. 749-yilda. D. 765-yilda.

**421. Muqanna qanday halok bo'lgan?**

A. O'zini yonib turgan tandirga tashlagan.

B. Dorga osilgan.

C. Boshi kesilgan.

D. Jangda halok bo'lgan.

**422. 806 yilda xalifalikka qarshi Movarounnahrda kim boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi?**

A. Rofe ibn Lays. B. Abu Muslim.

C. Muqanna. D. Amin.

**423. Xuroson noibi Ma'mun qo'zg'olonni bostirish uchun kimlardan yordam so'raydi?**

A. Somonxudot nabiralari Nux, Ahmad va Yaxyolardan.

B. Toxiriylardan. C. Qoraxoniylardan.

D. Turklardan.

## IX-XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MUSTAQIL DAVLATLARNING SHAKLLANISHI

**424. Qarluqlar qadimda qayerda yashagan?**
A. Oltoyning g'arbida, irtish daryosining o'rta oqimida.
B. Sharqiy Turkistonda.
C. Farg'onada.
D. Oloyda.

**425. VI-VII asrlarda qarluqlar qaysi davlat tarkibida bo'lgan?**
A. Turk hoqonligi. B. Eftaliylar.
C. Arablar. D. Mustaqil bo'lgan.

**426. Qarluqlar davlati qachon tashkil topgan?**
A. VIII asr o'rtalarida Yettisuvda.
B. VII asrda.
C. VII asr birinchi yarmida.
D. IX asrda.

**427. Qarluqlar davlatining poytaxti qayer bo'lgan?**
A. Chu daryosidan shimolroqda joylashgan Siyob shahri.
B. Oloy. C. Marv. D. Choch.

**428. Qarluqlar davlati hukumdori nima deb atalgan?**
A. "Yabg'u" yoki "jabg'u". B. Elekxon.
C. Arslonxon. D. Qorluqxon.

**429. Qarluqlar qachon islom dinini qabul qilgan?**
A. X asr o'rtalarida. B. XII asrda.
C. X asr oxirlarida. D. XIII asr boshlarida.

**430. Qarluqlar davlati aholisining asosiy mashg'uloti?**
A. Qo'ychilik va dehqonchilik. B. Hunarmandchilik.
C. Chorvachilik. D. Baliqchilik.

**431. Qaysi daryoning bir irmog'i hozir ham Qarluq deb ataladi?**
A. Irtish daryosining. B. Yoyiq daryosining.
C. Itil daryosining. D. Oks daryosining.

**432. O'g'uzlar VI asrning ikkinchi yarmi va VII asrda qaysi davlat tarkibida edi?**
A. Turk hoqonligi. B. Arablar.
C. Qarluqlar. D. Mustaqil edi.

**433. O’g’uzlar davlati qachon tashkil topgan?**

A. IX asr va X asr boshida. B. XI asr boshlarida.
C. IX asr oxirlarida. D. X asrda.

**434. O’g’uzlar davlatining poytahti qayer bo’lgan?**

A. Sirdaryo bo’yidagi Yangikent shahri.
B. Oloy shahri.
C. Siyob shahri.
D. Choch shahri.

**435. O’g’uzlarning asosiy mashg’uloti?**

A. Chorvachilik xususan qo’ychilik.
B. Dehqonchilik.
C. Temirchilik.
D. Kulolchilik.

**436. O’g’uzlar qachondan boshlab islom dinini qabul qilganlar?**

A. X asrdan boshlab. B. XII asrdan boshlab.
C. XI asrdan boshlab. D. XI asr o’rtalarida.

**437. Qarluqlar qaysi millatlarning etnogenezida muhum rol o’ynaydi?**

A. O’zbek va tojiklarning.
B. Turkmanlar va mongollarning.
C. Qirg’izlar va qozoqlarning.
D. O’zbek va qozoqlarning.

**438. O’g’uzlar qaysi halqlar etnogenezida muhum rol o’ynaydi?**

A. Turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq.
B. Qirg’iz, qozoq, tojik.
C. O’zbek, tojik, qoraqalpoq.
D. Turkman, qozoq, tojik.

**439. Arab halifasi Horun ar-rashid nechanchi yillarda hukumronlik qilgan?**

A. 786-806. B. 768-809.
C. 746-890. D. 789-806.

**440. 809-813-yillarida halifalik taxti uchun kimlar o’rtasida kurash boshlandi?**

A. Horun ar-Rashidning o’g’illari Ma’mun va Amin o’rtasida.
B. Tohiriylar va somoniylar.
C. Qoraxoniylar va g’aznaviylar.

D. Qorluqlar va o’g’uzlar.

**441. Halifalik markazidagi arablar kimni halifalik tahtiga ko’taradilar?**

A. Aminni. B. Ma’munni.

C. Abbosni. D. Marvonni.

**442. Ma’mun halifalik tahtiga o’tirgach kimlarni Movarounnahr viloyatlariga noib etib tayinlaydi?**

A. Somonhudot nabiralarini. B. Tohiriylarni.

C. Qoraxoniylarni. D. Saljuqiylarni.

**443. Samarqandga kim noib etib tayinlangan?**

A. Nuh. B. Nasr.

C. Yahyo. D. Ahmad.

**444. Farg’onaga kim noib etib tayinlangan?**

A. Ahmad. B. Nasr.

C. Yahyo. D. Nuh.

**445. Shosh va Ustrushonaga kim noib etib tayinlangan?**

A. Yaxyo. B. Ahmad.

C. Nasr. D. Nuh.

**446. Hirotga kim noib etib tayinlangan?**

A. Ilyos. B. Ahmad.

C. Nuh. D. Nasr.

**447. Tohir Ibn Husayn qachondan boshlab davlatni halifalikdan mustaqil boshqara boshlaydi?**

A. 822-yilda. B. 722-yilda.

C. 832-yilda. D. 856-yilda.

**448. Tohir ibn Husayndan so’ng Hurosonni kimlar boshqardi?**

A. O’g’illari Talha va Abul Abbos Abdulloh.

B. Somoniylar.

C. Qoraxoniylar.

D. Safforiylar.

**449. Qachon Huroson poytahti Nishopurga ko’chgan?**

A. Abul Abbos Abdulloh hukumronligi davrida (830-844).

B. Somoniylar davrida.

C. Qoraxoniylar davrida.

D. Gaznaviylar davrida.

**450. Tohiriylar mamlakatda dastlab qanday siyosat amalga oshirganlar?**

A. Dastlab hokimiyatni mustahkamlash va qishloq ho'jaligini tartibga solish.
B. Ma'muriy boshqaruvni tartibga solganlar.
C. Soliq siyosatini amalga oshirganlar.
D. Markazlashtirish siyosatini olib borganlar.

**451. Safforiylik?**
A. Misgarlik. B. Temirchilik.
C. Kulolchilik. D. Zargarlik.

**452. 873-yildan Hurosonda hokimiyat kimlarning qo'liga o'tgan?**
A. Safforiylar qo'liga. B. Somoniylar qo'liga.
C. Saljuqiylar qo'liga. D. G'aznaviylar qo'liga.

**453. Ahmad vafotidan (865)so'ng Movarounnahrga kim hukmdor bo'lgan?**
A. Uning o'g'li Nasr. B. Ahmad.
C. Nuh. D. Yahyo.

**454. Nasr qayerni Movarounnahr markaziga aylantiradi?**
A. Samarqandni. B. Buxoroni.
C. Keshni. D. Xursonni.

**455. Nasrdan oldin hukumdorlik qilgan Nuh va Ahmadlar qanday pul islohoti amalga oshirganlar?**
A. O'z nomidan mis chaqalar zarb etganlar.
B. O'z suratlari tushirilgan oltin tangalar zarb etganlar.
C. Dirham zarb ettirgan.
D. Fels zarb etilgan.

**456. Nasrning o'zi qanday pul islohoti amalga oshirgan?**
A. Kumush dirham zarb ettirib muomalaga kiritgan.
B. Oltin tangalar zarb ettirib muomalaga kiritgan.
C. Mis chaqalar zarb ettirgan.
D. Oltin va kumush dirham zarb ettirgan.

**457. Aka-uka Nasr va Ismoil o'rtasida qachon jang bo'lib o'tadi?**
A. 888-yilda. B. 868-yilda.
C. 788-yilda. D. 800-yilda.

**458. 893-yilda Ismoil Somoniy qaysi shaharni egallagan?**
A. Taroz shahrini. B. Termizni.
C. Farg'onani. D. Turkistonni.

**459. Safforiylar va somoniylar o'rtasida qachon urush bo'lib o'tgan?**

A. 900-yilda somoniylar g'alaba qozonganlar.

B. 901-yilda.

C. 809-yilda safforiylar g'alaba qozonganlar.

D. 873-yilda.

**460. Ismoil Somoniy tomonidan birlashtirilgan Movorounnahr va Huroson hududida tashkil topgan somoniylar davlatining markazi qayer edi?**

A. Buhoro shahri. B. Nasaf.

C. Samarqand. D. Xuroson.

**461. Somoniylarning davlat boshqaruvi qanday ma'muriyatlardan iborat edi?**

A. Dargoh va devonlardan. B. Markaziy boshqaruvdan.

C. Viloyat va tumanlardan. D. Harbiy birlashmalardan.

**462. Somoniylar davlatni nechta devonlik asosida boshqarganlar?**

A. 10 ta devonlik. B. 3 ta devonlik.

C. 7 ta devonlik. D. 5 ta devonlik.

**463. Devonlarni boshqaruv mahkamasi qaysi edi?**

A. Vazir devoni. B. Muhtasib devoni.

C. Markaziy devon. D. Boshqaruv devoni.

**464. Qaysi hukumron davrida devonlar uchun saroy qurilgan?**

A. Nasr II davrida (914-943). B. Nuh davrida.

C. Ilyos davrida. D. Ahmad davrida.

**465. Buxorodagi ilk madrasa qachon va qayerda bunyod etilgan?**

A. X asrda Kavishdo'zlar mahallasida Farjak madrasasi.

B. X asrda Ismoil somoniy maqbarasi.

C. Chor minor. D. Minorai kalon.

**466. Somoniylar davrida eng yuqori diniy mansab?**

A. Ustod bo'lib keyinchalik Shayhulislom nomi bilan ulug'langan.

B. Xatib. C. A'lam. D. Qozi.

**467. Ustoddan keyingi o'rinda qaysi mansab turgan?**

A. Xatib. B. A'lam.

C. Qozi. D. Shayxulislom.

**468. Hojib qanday unvon?**

A. Yaxshi xizmat qiladigan sarbozga beriladigan harbiy unvon.

B. Soliq undiruvchi.

C. Devon boshlig'i.

D. Viloyat hokimi.

**469. Somoniylar saroyidagi eng oily unvon qaysi?**

A. "Hojib ul-Hujob" yoki"Hojib ul-Buzruk".

B. Vazir. C. Xatib. D. Shayhulislom.

**470. "Hojib ul-buzruk" saroyda qanday vazifani bajargan?**

A. Saroyda yashab dargohning ishlarini boshqargan.

B. Soliq ishlari bilan mashg'ul bo'lgan.

C. Elchilik ishlari bilan shug'ullangan.

D. Ma'muriy ishlarni nazorat qilgan.

**471. Harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan qaysi devonlik shug'ullanhan?**

A. Ariz devoni. B. Muhtasib devoni.

C. Devoni buzurk. D. Vazir devoni.

**472. Somoniylar davlatida davlat hujjatlari va elchilik aloqalari bilan shug'ullangan vazir?**

A. Amir ul-mulk. B. Bosh vazir.

C. Shayxulislom. D. Qozi.

**473. Somoniylar davlatida mustovfiy qanday vazirlik bo'lgan?**

A. Moliya vaziri ishlari bilan shug'ullanuvchi.

B. Harbiy ishlar bilan shug'ullanuvchi.

C. Soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi.

D. Elchilik ishlari bilan shug'ullanuvchi.

**474. Sohibi Shurat qanday vazirlik?**

A. Harbiy ishlar vaziri.

B. Soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi.

C. Elchilik bilan shug'ullanuvchi.

D. Moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi.

**475. Somoniylar davrida sug'orish ishi mutaxassislari nima deyilgan?**

A. Mirob, jo'ybon va poykor. B. Obikor.

C. Barzikor. D. Poykor.

**476. Qog'oz qaysi shaharda ishlab chiqarilgan?**

A. Samarqandda. B. Buxoroda.

C. Keshda. D. Chochda.

**477. Qayiqsozlik qayerda taraqiy etgan?**

A. Xorazm va Termizda. B. Buxoroda.

C. Samarqand va Keshda. D. Farg'ona va So'g'dda.

**478. "Zandanachi" va "Vadoryi" matolari qayerda to'qilgan?**

A. Buxoro va Samarqandda. B. Xorazm va Termizda.

C. Samarqand va Keshda. D. Farg'ona va So'g'dda.

**479. Toshko'mir va neftdan qaysi hududlarda foydalanilgan?**

A. Farg'ona vodiysida. B. Buxoroda.

C. Samarqandda. D. Surxondaryoda.

**480. Ohangarlar kimlar?**

A. Rudalarni eritib ma'dan oluvchilar.

B. Misgarlar.

C. Qurolsozlar.

D. Temirchilar.

**481. VII-**IX **asrlarda Xitoy va Movorounnahr shaharlari o'rtasidagi savdoda qanday mahsulotlar muhim o'rinni egallagan?**

A. Choy, ipak, mato, tuz, ot. B. Shisha, tuz, ot.

C. Choy va shisha buyumlar. D. Ipak, mato, tuz, ot, shisha buyumlar.

**482. Bu davrda Xitoy bozorida bir otning bahosi qancha edi?**

A. 50 o'ram ipak mato yoki 56 kg oliy navli choy.

B. 20 ta tuya.

C. 100 ta xachirda kumush.

D. 18 ta tuya.

**483. VII-VIII asrlarda xitoyda qanday mahsulot "cha" yoki "ming" deb yuritilgan?**

A. Choy o'simligi. B. Beda.

C. Ipak. D. Jezlar.

**484. Somoniylar davrida ichki bozorda qanday tangalardan foydalanilgan?**

A. "Fals" deb atalgan mis chaqa tangalardan.

B. Dinor. C. Dirham. D. Kumush.

**485. Xalqaro savdoda qanday tangalardan foydalanilgan?**

A. Kumush tanga-dirhamlardan.

B. Oltin tangalardan.

C. Oltin va kumush tanga-dirhamlardan.

D. Mis tangalardan.

**486. Somoniylar kumush tangalari qanday nomlar bilan atalgan?**

A. “Ismoiliy”, “Muhammadiy”. B. Dinor.

C. Dirham. D. Fels.

**487. Somoniyalr kumush tangalari qaysi shaharlarda zarb qilingan?**

A. Davlat boshlig’i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda.

B. Farg’onada. C. Termizda. D. Shoshda.

**488. Somoniylar davrida yer egaligining necha xil turi mavjud bo’lgan?**

A. 5 turi Mulki sultoniy, mulk yerlari, vaqf yerlari, mulki hos, jamoa yerlari.

B. 4. C. 3. D. 2.

**489. Mulki hos yerlar kimlarga qarashli bo’lgan?**

A. Oliy martabali ruhoniylar va sayidlarga.

B. Harbiylarga.

C. Qarindoshlariga.

D. Yaxshi xizmat ko’rsatganlarga.

**490. Mulk xos yerlaridan qanday soliq olingan?**

A. Faqat ushr hosilining 1/10. B. 1/2.

C. 1/40. D. 2/40.

**491. Iqto yerlari qachondan berila boshlangan?**

A. X asrdan boshlab. B. XII asrda.

C. X asr o’rtalarida. D. XII asr oxirlarida.

**492. Iqto egalari qanday nomlangan?**

A. Muqto yoki Iqtodor. B. Mulkdor.

C. Yer egasi. D. Muqtodor.

**493. Iqto qancha muddatga berilgan?**

A. Dastlab ma’lum bir muddatga, keyinchalik esa butunlay hadya etilib, nasldan-naslga o’tgan.

B. 10 yilga. C. Umrbod. D. 5 yilga.

**494. Jamoa yerlari tassarufiga qaysi hududlar kirgan?**

A. Asosan lalmikor va tog' oldi yerlar.

B. Jamoa bo'lib ishlaydigan yerlar.

C. Ijaraga olib ishlangan yerlar.

D. Jamoa yerlari bo'lmagan.

**495. IX-X asrlarda kichik yer ijarachilari nima deb atalgan?**

A. Barzikor yoki qo'shchi. B. Kashovarz.

C. Kadivar. D. Ijarachi.

**496.Agar barzikor katta yer egasining yerida o'z urug'I va qo'shi bilan bilan dehqonchilik qilsa hosilning qancha qismini olgan?**

A. 1/3 dan 1/5 gacha. B. 2/10 dan 3/10 gacha.

C. 1/4 dan 2/4 gacha. D. 1/5 dan 2/5 gacha.

**497. 947-yilda somoniylar davlatida qanday siyosiy isyon boshlanadi?**

A. Somoniy hukumdori Nuh Ibn Nasrning amakisi Ibrohim boshchiligiida markaziy hokimiyatni egallash uchun.

B. Hokimiyatni Qoraxoniylarga berish uchun.

C. Soliqlarni kamaytirish uchun xalq isyoni.

D. Milliy ozodlik harakati.

**498. Buxoroda harbiy askarlarning g'alayoni nechanchi yilda bo'lgan?**

A. 961-yilda. B. 941-yilda.

C. 981-yilda. D. 965-yilda.

**499. G'aznaviylar davlatiga kim asos slogan?**

A. Somoniylarning G'azna viloyatidagi noibi Alptegin (962-963).

B. Mahmud G'aznaviy.

C. Ma'sud G'aznaviy.

D. Qutbiddin Muhammad.

**500. G'aznaviylar davlatining poytaxti?**

A. G'azna shahri. B. Qobul shahri.

C. Marv shahri. D. Buxoro shahri.

**501. Qaysi hukmdor davrida G'aznaviylar davlatining nufuzi ortib, Somoniylar tomonidan e'tirof etiladi?**

A. Sobuq Tegin (977-997). B. Alp Tegin.

C. Maxmud G’aznaviy. D. Ma’sud G’aznaviy.

**502. Xorazm qachon G’aznaviylar tomonidan egallangan?**

A. 1017-yilda. B. 1056-yilda.

C. 1017-yilda. D. 1034-yilda.

**503. G’aznaviylar davlati qachon tugatilgan?**

A. 1186-yilda. B. 1145-yilda.

C. 1156-yilda. D. 1234-yilda.

**504. G’aznaviylar davrida viloyat hukumdori nima deb atalgan?**

A. Voliy. B. Eloqxon.

C. Tudun. D. Noib.

**505. Shahar hokimi?**

A. Rais. B. Noib.

C. Voliy. D. Hokim.

**506. G’aznaviylar davrida viloyat va shahar boshqaruv ishlari qaysi amaldorlar tomonidan amalga oshirilgan?**

A. Viloyatlar-amir, shaharlar-kutvol.

B. Rais va amir.

C. Noib va Voliy.

D. Amir va Hokim.

**507. G’aznaviylar davlatida bosh qo’mondon nima deb atalgan?**

A. Sipohsolar. B. Lashkarboshi.

C. Oliy qo’mondon. D. Sarkarda.

**508. Solar kim?**

A. Lashkarboshi. B. Sipohsolar.

C. Saroy soqchisi. D. Askar.

**509. Harbiy qismlar nima deb atalgan?**

A. Sarhang. B. Yuzboshi.

C. Tumanlar. D. Askarlar.

**510. M.G’aznaviy o’z saroyiga qacha olim va shoirlarni to’plagan?**

A. 400 dan ortiq. B. 500 ta.

C. 300 ta. D. 1000 dan ortiq.

**511. Shohnoma asarining mualifi kim?**

A. A.Q.Firdavsiy. B. Farididun Attor.

C. Rumiy. D. Fuzuliy.

**512. Firdavsiy o'z "shohnoma"sini kimga taqdim etgan?**
A. Mahmud G'aznaviyga. B. Ma'sud G'aznaviyga.
C. Alp Teginga. D. Ismoil Somoniyga.
**513. Qorluqlar davlati qachon tashkil topgan edi?**
A. VIII asr o'rtalarida Yettisuv o'lkasida.
B. IX asrda sharqiy Turkistonda.
C. X asrda Oltoyda.
D. V asrda Farg'onada.
**514. Qorluqlar IX asr o'rtalarida qaysi qabilalar bilan yagona ittifoqga birlashgan?**
A. Yag'mo, chikil va o'g'uz. B. Qipchoq, qoraxitoy.
C. Nayman, turkman. D. Mang'it, qo'ng'irot.
**515. Qoraxoniylar davlatining asoschisi kim?**
A. Abdulkarim Sotuq Bug'roxon. B. Qoraxon.
C. Alp Arslon. D. Saljuqbey.
**516. Sabuqtegindan so'ng G'aznaviylar davlatini hukmdori kim bo'lgan?**
A. O'g'li Mahmud G'aznaviy. B. Ma'sud Gaznaviy.
C. Malikshoh. D. Alp Arslon.
**517. Somoniylar davlati qachon barham topgan?**
A. 999-yilda. B. 1000-yilda.
C. 998-yilda. D. 1023-yilda.
**518. Movarounnahr egallangandan so'ng Qoraxoniylar nechanchi yillarda Hurosonga harbiy hujum qiladilar?**
A. 1006-1008-yillarda. B. 1005-1009-yillarda.
C. 1003-1008-yillarda. D. 1006-1010-yillarda.
**519. Saljuqiylar davlatiga kimlar asos solgan?**
A. Og'uzlar, Saljuq boshlig'ida. B. Saljuqiylar.
C. Turkmanlar. D. Xorazmliklar.
**520. Qoraxoniylar davlati hududiga qoraxitoylar qachon hujum boshlaydilar?**
A. XII asrning 30-yillari oxirida.
B. XII asrning 50-yillarida.
C. XII asrning 20-yillarida.
D. XII asrning 40-yillari oxirida.
**521. Ko'chmanchi qoraxitoylar qayerdan kirib kelgan?**
A. Ular mo'g'ullarga mansub qabila bo'lib, sharq tamonidan kirib kelgan.

B. G’arb tomondan.
C. Shimoldan.
D. Janubdan.

**522. Qoraxitoylar hukmdori nima deb atalgan?**

A. Go’rxon. B. Qoraxon.
C. Bug’raxon. D. Qoraxitoy.

**523. Qoraxitoylar qaysi shaharni poytaxtga aylantirganlar?**

A. Bolasog’unni. B. Qashqar.
C. Yettisuv. D. Shosh.

**524. Movarounahrda yerdan foydalanishning “iqto” tartiboti qachon keng yoyildi?**

A. XI asrdan. B. XI asr oxiridan.
C. XII asrdan. D. X asr boshidan.

**525. Minorai Kalon qachon bunyod etilgan?**

A. XII asrda Buxoroda.
B. XII asr o’rtalarida Samarqandda.
C. XI asr oxirida Buxoroda.
D. XII asrda Keshda.

**526. Qachon dehqon atamasi “qishloq hokimi” ma’nosini yo’qotadi?**

A. XI-XII asrdan boshlab. B. XI-XIII asrdan boshlab.
C. X-XII asrdan boshlab. D. XI -XIII asrdan boshlab.

**527. Qoraxoniylar davrida qanday tangalar zarb qilingan?**

A. Kumush tanga va mis chaqalar.
B. Oltin va kumush tangalar.
C. Faqat oltin tangalar.
D. Kumush, oltin va mis chaqalar.

**528. Qoraxoniylar davrida qaysi shaharlarda pul chiqariladigan zarbxonlar bo’lgan?**

A. Bolasog’un, Taroz, O’zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro.
B. Shosh, Taroz.
C. Buxoro, Samarqand.
D. Taroz, Bolasog’un.

**529. Xorazm hududi IX-X asrlar davomida qaysi davlatlar tarkibida bo’lgan?**

A. Toxiriylar, safforiylar va somoniylar davlatlari tarkibida.

B. Saljuqiylar.
C. Qoraxoniylar.
D. Qoraxitoylar.

**530. X asr oxirida Xorazm hududidagi shaharlar soni qanchaga yetadi?**

A. 32 taga. B. 40 taga.
C. 30 taga. D. 50 taga.

**531. VIII asrlar boshlarida ularning soni qanchaga yetadi?**

A. 3 ta. B. 5 ta. C. 10 ta. D. 15 ta.

**532. Xorazm 1017 yildan qaysi davlatga qaram bo'lib qoladi?**

A. G'aznaviy davlatiga. B. Saljuqiylar davlatiga.
C. Qoraxoniylar davlatiga. D. Qoraxitoylarga.

**533. Xorazm undan so'ng qaysi davlat tarkibiga qo'shib olinadi?**

A. 1040-yildan saljuqiylar davlatiga.
B. G'aznaviy davlatiga.
C. Qoraxoniylar davlatiga.
D. Qoraxitoylarga.

**534. Saljuqiylar hukmori Malikshoh kimni Xorazmga noib etib tayinlaydi?**

A. Anushteginni. B. Mahmudni.
C. Alp Arslonni. D. Ma'sudni .

**535. "Xorazmshox" unvonini kim qayta tiklagan?**

A. Anushtegindan so'ng Xorazmni boshqargan uning o'g'li Qutbiddin Muhammad (1097-1127).
B. Anusha. C. Otsiz. D. Malikshoh.

**536. Muhammad Xorazmshoh nechanchi yildan Movarounahrni qoraxitoylardan ozod etishga kirishadi?**

A. 1206-yilda. B. 1204-yilda.
C. 1210-yilda. D. 1200-yilda.

## IX-XIII ASR BOSHLARIDA MADANIY HAYOT

**537. Qachondan boshlab Movarounnahr va Xuroson-da madaniy hayot yaxshilana boshlagan?**

A. IX asrdan. B. X asrdan.

C. XI asrdan. D. X-XI asrlardan.

**538. IX-X asrda Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi?**

A. Bog'dod shahri. B. Toshkent shahri.

C. Buxoro shahri. D. Termiz shahri.

**539. "Baytul Hikmat" qachon tashkil etilgan?**

A. IX asrda Bog'dodda. B. X asrda Samarqandda.

C. XI asrda Buxoroda. D. X asrda Termizda.

**540. Muhammad Muso al-Xorazmiy nechanchi yillarda yashagan ?**

A. 783-850-yillar. B. 780-890-yillar.

C. 778-830-yillar. D. 700-801-yillar.

**541. Xorazmiy qaysi fanlar rivojiga o'z hissasini qo'shgan?**

A. Matematika, astranomiya, geografiya.

B. Tarix, geodeziya.

C. Handasa.

D. Falakiyotshunoslik.

**542. "Al-jabr val-muqobala" qachon lotin tiliga tarjima qilingan?**

A. XII asrda Ispanyada. B. X asrda Italiyada.

C. XII asrda Yunonistonda. D. X asrda Fransiyada.

**543. Farg'oniyning nechta asari bizgacha yetib kelgan?**

A. 81 asari. B. 70 asari.

C. 100 asari. D. 79 asari.

**544. Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik sifatida foydalanib kelingan Al-Farg'oniyning asari qaysi?**

A. "Astronomiya asoslari". B. Aljabr val muqobala.

C. Geodeziya. D. Tarix.

**545. Al-Farg'oniyning 1200 yilligi qachon nishonlandi?**

A. 1998-yil oktabrda. B. 1996-yil dekabrda.

C. 1998-yil noyabrda. D. 1997-yil aprelda.

**546. Imom al-Buxoriy kim bo'lgan?**

A. Muhaddis olim – Hadisshunos (810-870).

B. Adabiyotshunos.

C. Islomshunos.

D. Tarixshunos.

**547. Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga oid qancha asar yozgan**?

A. 20 dan ortiq. B. 10 dan ortiq.

C. 15 dan ortiq. D. 30 dan ortiq.

**548. "Al-Jome as-sahih" asari qanday tuzilishga ega?**

A. 7275 Hadis kiritilgan. B. 3456 Hadis kiritilgan.

C. 4563 Hadis kiritilgan. D. 4576 Hadis kiritilgan.

**549. 1998-yil oktabrda Imom Al-Buxoriy tavalludining necha yilligi nishonlandi?**

A. 1225-yilligi. B. 1250-yilligi.

C. 1235-yilligi. D. 1200 –yilligi.

**550. "Imom Al-Buxoriy yodgorlik majmui" qayerda barpo etildi?**

A. Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida.

B. Buxoroda. C. Termizda. D. Keshda.

**551. Imom Al-Buxoriyning zamondoshlari shogirdi muhaddis olim kim?**

A. Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-894).

B. Moturidiy.

C. G'azzoliy.

D. Samarqandiy.

**552. Hadis nima?**

A. Arabcha so'z bo'lib, rivoyat, naql degan ma'nolarni bildiradi.

B. Ibrat ma'nosini anglatadi.

C. Odob ma'nosini anglatadi.

D. Itoat ma'nosini anglatadi.

**553. Abu Mansur al-Motrudiy qayerda tug'ilgan?**

A. Samarqand yaqinidagi Motrudiy qishlog'ida (870-944).

B. Termizda. C. Buxoroda. D. Keshda.

**554. Kalom qanday ilm sohasi?**

A. Islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm.

B. Hadis ilmi.

C. Arab grammatikasi.

D. Tarix.

**555. Motrudiy tavalludining 1130 yilligi qachon nishonlangan?**

A. 2000-yil noyabrda. B. 2000-yil oktabrda.

C. 2001-yil martda. D. 2002-yil noyabrda.

**556. Motrudiyning qaysi asarlari bizgacha saqlanib qolgan?**

A. “Kitob at-Tavhid”, “Ta’vilot ahl as-sunna”.

B. Sunan.

C. Kitob at tarix.

D. Hadis as sahih.

**557. Motrudiy xotirasiga bag’ishlab qaysi shaharda yodgorlik majmui barpo etilgan?**

A. Samarqandda. B. Buxoroda.

C. Qarshida. D. Farg’onada.

**558. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosondagi ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy etgan shaharlar qaysilar?**

A. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur, Balx.

B. Kesh. C. Farg’ona. D. Termiz.

**559. “Ma’mun akademiyasi” qachon tashkil etilgan?**

A. 1004-yilda “Dorul hikmat va maorif”.

B. 1014-yilda. C. 1017-yilda. D. 1009-yilda.

**560. “Xorazm Ma’mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qachon chiqqan?**

A. 1997-yil 11-noyabrda. B. 1995-yil.

C. 1999-yil. D. 2001-yil.

**561. Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi qachon nishonlandi?**

A. 2006-yil. B. 2008-yil.

C. 2007-yil. D. 1999-yil.

**562. Abu Nasr Farobiy qayerda tug’ilgan?**

A. Sirdaryoning quyilish joyidagi Farob qishlog’ida (873-850).

B. Termizda. C. Buxoroda. D. Samarqandda.

**563. Farobiy qancha asar yozgan?**

A. 160 dan ortiq. B. 20 ta.

C. 45 ta. D. 200 ta.

**564. Farobiy sharqda qanday nom bilan shuhrat topgan?**

A. Muallim us-soniy. B. Alfraganus.

C. Al farob. D. Birinchi muallim.

**565. Abu Ali ibn Sino qayerda tavallud topgan?**

A. Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida (980-yil).

B. Samarqandda. C. Termizda. D. Keshda.

**566. Abu Ali ibn Sinoning ustozi kim?**

A. Abu Abdulloh. B. Abu lays Samarqandiy.

C. Xorazmiy. D. Chag'miniy.

**567. Abu Ali ibn Sino kimlarni asarlarini puxta o'rgangan?**

A. Gippokrat, Galen, Abu Bakr ar-Roziy.

B. Sokrat. C. Aristotel. D. Platon.

**568. Ibn Sino qayerda vafot etgan?**

A. 1037-yilda Hamadonda. B. 1041-yilda Tarozda.

C. 1038-yilda Marvda. D. 1035-yilda Termizda.

**569. Ibn Sino qancha asar yozgan?**

A. 450 dan ortiq, 43 tasi tibbiyotga oid.

B. 350 dan ortiq, 13 tasi tibbiyotga oid.

C. 450 dan ortiq, 33 tasi tibbiyotga oid.

D. 450 dan ortiq, 53 tasi tibbiyotga oid.

**570. Ibn Sinoning mashhur asari?**

A. 5 jildlik "Al qonun fit-tib". B. Saydana.

C. Tarix. D. Geodeziya.

**571. Ibn Sino sharq va g'arbda qanday nom bilan shuhrat topgan?**

A. Shayx ur-Rais, Avitsenna. B. Meditsina.

C. Madasino. D. Tibbiyot sultoni.

**572. Abu Rayhon Beruniy qayerda tavallud topgan?**

A. Xorazmning Kat shahrida (973-yil).

B. Samarqandda.

C. Keshda.

D. Termizda.

**573. Abu Rayhon Beruniy qayerda vafot etgan?**

A. 1048-yil G'aznada. B. 1037-yilda Samarqandda.

C. 1045-yilda G'aznada. D. 1038-yilda Marvda.

**574. Beruniy qanday sohalarga oid asarlar yozgan?**

A. Astronomiya, geografiya, matematika va tarix (160 dan ortiq).

B. Tibbiyot, tarixga oid 170 ga yaqin.

C. Geografiya, adabiyotga oid 140 ta.

D. Geografiya, matematika va tarix (140 dan ortiq).

**575. Beruniyning mashhur asarlari?**

A. “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”.

B. Mineralogiya, saydana.

C. Geodeziya.

D. Hindiston, tib qonunlari.

**576. Mahmud Zamaxshariy qayerda tavallud topgan?**

A. 1075-yilda Xorazmning Zamaxshar qishlog’ida.

B. 1019-yilda Marvda.

C. 1093-yilda Xorazmda.

D. 1092-yilda Samarqandda.

**577. Mahmud Zamaxshariy nechta asar yozgan?**

A. 50 dan ortiq. B. 40 ta.

C. 45 ta. D. 56 ta.

**578. Burhonuddin al-Marg’inoniy qayerda tug’ilgan?**

A. Rishtonda 1123-yilda. B. Marg’ilonda 1121-yilda.

C. Quvada 1125-yilda. D. Samarqandda 1121-yilda.

**579. 2000-yilda Burhoniddin al-Marg’inoniy tavalludining necha yilligi nishonlandi?**

A. 910 yilligi. B. 800 yilligi.

C. 950 yilligi. D. 850 yilligi.

**580. “Qutadg’u bilig” asarining mualifi kim?**

A. Yusuf Xos Hojib (XI asr). B. Ahmad Yugnakiy.

C. Mahmud Qoshg’ariy. D. Ahmad Yassaviy.

**581. “Devonu lug’atit-turk” asarining muallifi kim?**

A. Mahmud Qoshg’ariy. B. Yusuf Xos Hojib (XI asr).

C. Ahmad Yugnakiy. D. Ahmad Yassaviy.

**582. “Hibat ul-haqoyiq” asarining mualifi?**

A. Ahmad Yugnakiy. B. Mahmud Qoshg’ariy.

C. Yusuf Xos Hojib (XI asr). D. Ahmad Yassaviy.

**583. Ahmad Yassaviyning mashhur asari qaysi?**

A. “Hikmat”. B. “Devonu lug’atit-turk”.

C. “Hibat ul-haqoyiq”. D. “Qutadg’u bilig”.

**584. O’rta asrlarda O’rta Osiyoda suv ombori qanday nomlar bilan atalgan?**

A. Band, nova, sardoba, kori.
B. Nova, sardoba, kori.
C. Band, sardoba, kori.
D. Band, nova, kori.

**585. Movarounnahrda ochilgan birinchi madrasa qaysi?**

A. X asrda Buxroda Kavushdo’zlar mahallasida “Farjak” madrasasi.
B. X asrda Mir arab.
C. Minorai Kalon.
D. Chor Minor.

**586. IX asrdan Buxoro shahri qanday nom bilan shuhrat topadi?**

A. “Qubbat ul-islom”.
B. Yer yuzining sayqali.
C. Islom markazi.
D. Islom gumbazi.

**587. Bahouddin Naqshband qayerda dunyoga kelgan?**

A. Buhoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog’ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida 1318-yilda.
B. 1345-yilda.
C. 1332-yilda.
D. 1123-yilda.

## MO’G’ULLAR ISTILOSI DAVRI. VATANIMIZ XALQLARINING OZODLIK KURASHI

**588. Timuchin nechanchi yillarda yashagan?**

A. 1155-1227-yillarda. B. 1221-1291-yillarda.
C. 1291-1340-yillarda. D. 1156-1229-yillarda.

**589. Timuchin qachon ulug’ xon deb e’lon qilingan?**

A. 1206-yilda Onon daryosi bo’yida.
B. 1156-yilda. C. 1204-yilda. D. 1200-yilda.

**590. Soqchilar qismi qanday nomlangan?**

A. (Kezik) Keshik. B. Yanichar.
C. Yasovul. D. Soqchilar.

**591. Mo’g’ullar tomonidan 1206-yilda dastlab kimlar bo’ysundirilgan?**

A. Naymanlar. B. Poloveslar.
C. Jujanlar. D. Qiyotlar.

**592. 1207-1208 yillarda mo’g’ullar qaysi hududlarni egallaydilar?**

A. Enasoy havzasi, Yettisuv shimoli va uyg’urlar hududi.
B. Sibir hududlarini.
C. Xitoyni.
D. Samarqandni.

**593. Chingizxon nechinchi yillarda Xitoyga yurish qilgan?**

A. 1211-1215-yillarda, Xitoyning markazi Szindi shahri egallanadi.
B. 1213-1216-yillarda.
C. 1215-1217-yillarda.
D. 1221-1227-yillarda.

**594. Xitoy shimolidagi qaysi sulola taxtdan ag’dariladi?**

A. Szin sulolasi. B. Min sulolasi.
C. Tan sulolasi. D. Xan sulolasi.

**595. Mo’g’ullar tomonidan Sharqiy Turkiston va Yettisuv hududi qachon egallangan?**

A. 1218-1219-yillarda. B. 1217-1218-yillarda.
C. 1215-1216-yillarda. D. 1216-1217-yillarda.

**596. Chingizxon bu hududdagi qaysi davlatni tugatadi?**

A. Kuchluk davlatini. B. O’g’uzlar davlatini.
C. Xorazmshohlar davlatini. D. Sharqiy Turkiston davlatini.

**597. Xorazmshox kim boshchiligida elchilarni Chingizxon huzuriga yuborgan?**

A. 1216-yilda Bahouddin Roziy.

B. 1217-yilda Mahmud Yalavoch.

C. 1218-yilda Bahouddin Roziy.

D. 1215-yilda Mahmud Yalavoch.

**598. 1218-yilda Xorazmga Chingizxon qanday karvon jo'natadi?**

A. 500 tuyaga ortilgan mollar va 450 savdogardan iborat savdo va elchilar karvonini.

B. 50 tuyaga ortilgan mollar va 50 savdogardan iborat savdo va elchilar karvonini.

C. 500 tuyaga ortilgan mollar va 550 savdogardan iborat savdo va elchilar karvonini.

D. 600 tuyaga ortilgan mollar va 450 savdogardan iborat savdo va elchilar karvonini.

**599. Chingizxonning bu karvoni qayerda ushlab qolinadi?**

A. Chegaradagi O'tror shahrida. B. Marvda.

C. Samarqandda. D. Xivada.

**600. O'tror noibi harakatlaridan so'ng Chingizxon kimni Xorazmshoxni huzuriga elchi sifatida yuboradi?**

A. Ibn Kafroj Bug'roni. B. Mahmud Yalavochni.

C. Bahouddin Roziyni. D. Mahmud Yalangtushni.

**601. Sulton Muhammad tomonidan qanday boshqaruv organi tashkil etilgan?**

A. 6 kishidan iborat "Davlat kengashi".

B. Devon. C. Dargoh. D. Mahkama.

**602. Chingizxonning Movarounnahrga bostirib kirishi uchun qaysi voqealar bahona bo'ldi?**

A. O'tror voqeasi va Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi.

B. O'tror voqeasi.

C. Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi.

D. Unga hech nima bahona bo'lmagan.

**603. Chingizxon qachondan Xorazmshoxlar hududiga harbiy yurishlarini boshlaydi?**

A. 1219-yilning kuzida. B. 1218-yil bahorida.

C. 1217-yil yozida. D. 1219-yil bahorida.

**604. Chingizxon qo'shinining soni qancha bo'lgan?**

A. 200 mingga yaqin. B. 220 ming.

C. 120 ming. D. 300 ming.

**605. O'tror shahrini qamal qilish kimlarga topshirilgan?**

A. Og'illari Chig'toy va O'qtoylarga.

B. Hubilayga. C. Subitoyga. D. Jo'jiga.

**606. Sirdaryo bo'yidagi shaharlarni egallash vazifasi kimga yuklatilgan?**

A. Jo'ji boshchiligidagi qo'shinga.

B. Og'illari Chig'toy va O'qtoylarga.

C. Hubilayga. D. Subitoyga.

**607. O'tror qamali qancha vaqt davom etgan?**

A. 5 oy. B. 6 oy. C. 3 oy. D. 1 oy.

**608. Xorazmshoh Muhammad kimni taxt vorisi etib tayinlaydi?**

A. O'g'li Jaloliddin Manguberdini. B. Temur Malikni.

C. O'zlagshohni. D. Oqshohni.

**609. Urganch mudofaasi uchun mo'g'ullarga qarshi qurol ko'targan 76 yoshli buyuk alloma kim?**

A. Najmiddin Kubro. B. Temur Malik.

C. Bahouddin Naqshband. D. Xorazmiy.

**610. Najmiddin Kubro qanday iltijoli xitob ostida jang qilgan?**

A. "Yo vatan, yo sharofatli o'lim".

B. Dushmanga qarshi otlaning.

C. Vatan muqaddas.

D. Yurtimizda dushmanga joy yo'q.

**611. Chingizxon kimga shahar tashqarisiga chiqib jon saqlash taklifini bergan?**

A. Najmiddin Kubroga.

B. Muhammad Xorazmshohga.

C. Temur Malikka.

D. Turkon Xotunga.

**612. Jaloliddin Manguberdi qayerda mo'g'ullrni dastlabki yirik mag'lubiyatga uchratgan?**

A. G'aznadagi Valiyon qal'asida. B. Samarqandda.

C. Termizda. D. Urganchda.

**613. Hind daryosi bo'yida Chingizxon va Jaloliddin Manguberdi o'rtasidagi jang qachon bo'lib o'tgan?**

A. 1221-yilning 25-noyabrida. B. 1220-yilda.
C. 1219-yilda. D. 1218-yilda.

**614. Hozirgi kunda hind daryosining qirg'oqlari qanday nomlar bilan ataladi?**

A. "Ot sakrash", "Cho'li Jaloliy".
B. Temur Malik cho'li.
C. Manguberdi cho'li.
D. "Cho'li Jaloliy".

**615. Jaloliddin Manguberdi qachon vafot etgan?**

A. 1231-yilda. B. 1230-yilda.
C. 1232-yilda. D. 1219-yilda.

**616. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi qachon nishonlangan?**

A. 1999-yilda, Xorazmda unga haykal o'rnatilgan.
B. 2000-yilda. C. 2001-yilda. D. 1998-yilda.

**617. "Jaloliddin Manguberdi" ordeni qachon ta'sis etilgan?**

A. 2000-yil 30-avgust. B. 2001-yil 20-sentabr.
C. 1999-yil mart. D. 1998-yil may.

**438. Chingizxon Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrni boshqaruvini kimga topshirgan?**

A. Ikkinchi o'g'li Chig'atoyga. B. O'qtoyga.
C. Tuluga. D. Jo'jiga.

**618. Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo'yi, Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar kimga berildi?**

A. To'ng'ich o'gli Jo'ji va undan so'ng nabirasi Botuga topshirildi.
B. Ikkinchi o'g'li Chig'atoyga.
C. O'qtoyga.
D. Tuluga.

**619. Ulug' xoqon qarorgohi qayerda bo'lgan?**

A. Qoraqurum shahrida. B. Oloyda.
C. Urganchda. D. Buxoroda.

**620. Mo'g'ullar davlatida uluslar hukmdorlari nima deb atalgan?**

A. Xon. B. Bey.

C. No’yon. D. Ulus begi.

**621. Mo’g’ullar tomonidan Rus davlati qachon egallangan?**

A. 1236-1241-yillarda. B. 1235-1237-yillarda.

C. 1236-1238-yillarda. D. 1237-1239-yillarda.

**622. Rus davlati hududida mo’g’ullar qaysi davlatga asos soladilar?**

A. Oltin O’rdaga. B. Oq O’rdaga.

C. Sariq O’rdaga. D. Botu ulusiga.

**623. Mo’g’ullar Eronni qachon egallaydilar?**

A. 1256-yilda. B. 1221-yilda.

C. 1224-yilda. D. 1156-yilda.

**624. Eron hududida mo’g’ullar qaysi davlatga asos soladilar?**

A. Xulogular davlatiga. B. Oq O’rdaga.

C. Sariq O’rdaga. D. Botu ulusiga.

**625. Muhammad Yalovoch Movarounnahrni idora qilishda qayerni o’ziga qarorgoh qilgan?**

A. Xo’jand shahrini. B. Samarqandni.

C. Termizni. D. Marvni.

**626. Mo’g’ullar davrida ziroatchilardan qanday soliq olingan?**

A. Kalon, hosilning 6/2 miqdorida.

B. Ushr, hosilning1/10 miqdoroda.

C. Jizya.

D. Qopchur.

**627. Qopchur solig’i kimlardan, qancha miqdorda olingan?**

A. Chorvadorlardan chorva mollari sonining 1/4 (25%) miqdorida olingan.

B. Dehqonlardan.

C. Hunarmandlardan.

D. Savdogarlardan.

**628. Mo’g’ullar davrida olingan oziq-ovqat solig’i nima deb atalgan?**

A. Shulen. B. Qopchur.

C. Ushr. D. Zakot.

**629. Targ’u solig’i kimlardan olingan?**

A. Hunarmand va savdogarlardan (ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan molning 1/30 hajmida) olingan.

B. Dehqonlardan.

C. Chorvadorlardan.

D. Ustalardan.

**630. Yuqoridagilardan tashqari yana qanday soliqlar olingan?**

A. Tuz solig'i, jun va kumush solig'i.

B. Yer solig'i.

C. Jon solig'i.

D. Mol solig'i.

**631. Mo'g'ullar davriga oid "yom" atamasining ma'nosi nima?**

A. Savdo yo'llarida joylashgan bekatlar.

B. Karvonsaroylar.

C. Do'konlar.

D. Rastalar.

**632. 1238-yilda mo'g'ullar va mahalliy mulkdorlarga qarshi qayerda qo'zg'olon boshlangan?**

A. Buxoroning Torob qishlog'ida. B. Samarqandda.

C. Termizda. D. Marvda.

**633. Movarounnahrda 1271-yilda pul islohotini amalga oshirgan hukmdor kim?**

A. Ma'sudbek (Movarounahrning 16 shahar va viloyatlarida bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb etiladi, Samarqand, Buxoro, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlar).

B. Kebekxon.

C. Tulu.

D. Mahmud.

**634. 1318-1326-yillarda Chig'atoy ulusini kim boshqargan?**

A. Kebek xon. B. Tulu.

C. Botu. D. Munke.

**635. Kebekxon qayerda o'ziga saroy qurdirgan?**

A. Nasaf shahri yaqinida "Qarshi" deb atalgan.

B. Qarshida.

C. Samarqandda.

D. Buxoroda.

**636. Kebekxon davrida Samarqand va Farg'ona nechtadan ma'muriy tumanlarga bo'lib boshqarilgan?**

A. Samarqand viloyatida 7 ta, Farg'ona vodiysi 9 ta tumanga bo'lingan.

B. Samarqand viloyatida 8 ta, Farg'ona vodiysi 9 ta tumanga bo'lingan.

C. Samarqand viloyatida 7 ta, Farg'ona vodiysi 6 ta tumanga bo'lingan.

D. Samarqand viloyatida 9 ta, Farg'ona vodiysi 9 ta tumanga bo'lingan

**637. Mulki inju?**

A. Hukmdor va noiblarga qarashli yerlar.

B. Davlat yerlari.

C. Diniy muassasalar.

D. Ijaraga berilgan yerlar.

**638. Mulk yerlar?**

A. Xususiy yerlar. B. Davlat yerlari.

C. Diniy muassasalar. D. Ijaraga berilgan yerlar.

**639. Suyurg'ol yerlar kimlarga berilgan?**

A. Harbiy ma'murlarga.

B. Xonning eng yaqin qarindoshlariga.

C. Zodagonlarga.

D. Dindorlarga.

**640. Chig'atoy ulusi qachon ikki qismga bo'linib ketgan?**

A. XIII asrning 40-yillarida Mo'g'uliston va Movarounnahrga.

B. XII asrning 40-yillarida Mo'g'uliston va Movarounnahrga.

C. XIII asrning 50-yillarida Mo'g'uliston va Movarounnahrga.

D. XIV asrning 40-yillarida Mo'g'uliston va Movarounnahrga.

**641. 1348-yilda kim Mo'g'uliston xoni deb elon qilingan?**

A. Tug'luq Temur. B. Amir Temur.

C. Amir Xusayn. D. Ilyosxo'ja.

**642. Mo'g'ulllar davriga oid Sayfuddin Boharziy va Bayonqulixon maqbaralari qaysi shaharda bunyod etilgan?**

A. Buhoro shahrida. B. Samarqandda.

C. Termizda. D. Xivada.

**643. 36 ming baytdan iborat "Masnaviyi ma'naviy" asarining muallifi kim?**

A. Jaloliddin Rumiy (1207-1273). B. Farididdin Attor.
C. Alisher Navoiy. D. Sa'diy Sheroziy.

**644. Sa'diy Sheroziyning (1219-1293) mashhur asarlari qaysilar?**

A. "Guliston", "Bo'ston". B. "Guliston".
C. "Bo'ston". D. "Guliston yohud axloq".

**645. Amir Xusrav Dexlaviy asarlari?**

A. "Zafarlar kaliti", "Falakning to'qqiz gumbazi ".
B. "Guliston".
C. "Zafarlar kaliti".
D. "Bo'ston".

**646. XIII asrning ikkinchi yarmida yashagan tarixchilarni aniqlang.**

A. Juzjoniy, Juvayniy, Rashiduddin Fazlulloh.
B. Mirxond, Xondamir.
C. Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh.
D. Ahmad Donish.

**647. "Tarixi jaxonkushoy" asarining mualifi kim?**

A. Juvayniy. B. Juzjoniy.
C. Rashididdin Fazlulloh. D. Mirxond.

**648. "Jome at-tavorix" asarining mualifi kim?**

A. Rashiduddin Fazlulloh. B. Juvayniy.
C. Juzjoniy. D. Mirxond.

**649. "Yasoq" qanday kitob?**

A. Mo'g'ullarning huquqiy qonunlar to'plami.
B. Soliqlar to'plami.
C. Jinoiy jazolar haqidagi kitob.
D. Tarixiy kitob.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI

**670. XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahr nechta mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan edi?**

A. 10 ga yaqin. B. 7 ta.
C. 17 ta. D. 12 ta.

**671. Bu vaqtda Samarqand viloyatining hokimi kim edi?**

A. Amir Bayon Sulduz. B. Amir Husayn.
C. Amir Qozog'on. D. Amir Temir.

**672. Kesh shahrining hokimi kim edi?**

A. Amir Hoji Barlos. B. Amir Bayon Sulduz.
C. Amir Husayn. D. Amir Qozog'on.

**673. Ho'jandda kimning hokimiyati o'rnatilgan edi?**

A. Amir Boyazid Jaloyir. B. Amir Bayon Sulduz.
C. Amir Husayn. D. Amir Qozog'on.

**674. Balxda kim hokim edi?**

A. O'ljoytu Sulduz. B. Amir Boyazid Jaloyir.
C. Amir Bayon Sulduz. D. Amir Husayn.

**675. Amir Temir qayerda tug'ilgan?**

A. Kesh shahri yaqinidagi Xo'jailg'or qishlog'ida.
B. Samarqandda.
C. Xivada.
D. Buxoroda.

**676. Amir Temurning piri kim bo'lgan?**

A. Shayx Shamsiddin kulol. B. Bahouddin Naqshband.
C. Axmad Yassaviy. D. Xoja Axror Valiy.

**677. Amir Temurning safdoshlariga aylangan yoshligidagi do'stlari kimlar?**

A. Abbos bahodir, Jahonshohbek, Qimori Inoq, Sulaymonshohbek, Sayfuddinbek.
B. Sulaymonshohbek, Sayfuddinbek.
C. Abbos bahodir, Jahonshohbek.
D. Jahonshohbek, Qimori Inoq.

**678. Amir Temur dastlab kimga uylangan?**

A. Amir Joku Barlosning qizi Turmush Og'oga.
B. Amir Husaynning singlisiga.
C. Bibixonimga.
D. O'ljoy Turkon Og'aga.

**679. Amir Temur va Balx hokimi Amir Husayn o'rtasida ittifoq qanday yuzaga kelgan?**

A. 1355-yilda Amir Temur Qozog'onning nabirasi, Amir Husayinning singlisi O'ljoy Turkon Og'ani o'z nikohiga olgandan so'ng.

B. 1370-yilda Ilyosxo'jaga qarshi kurashda.

C. 1365-yilda ikki tomon qo'shinlarining birikuvidan.

D. 1370-yilda Amir Temur taxtga o'tirgach.

**680. 1360-1361-yillarda Movarounnahrga kim bostirib kirgan?**

A. Mo'g'uliston Xoni Tug'luq Temur 2 marta.

B. Ilyosxo'ja.

C. Suyurg'otmish.

D. Amir Husayn.

**681. Amir Temur qachon Kesh viloyatining Dorug'asi etib tayinlangan?**

A. 24 yoshida Tug'luq Temur yorlig'i bilan.

B. 30 yoshida.

C. 26 yoshida.

D. 40 yoshida.

**682. Tug'luq Temur kimni Movarounnahr hukmdori etib tayinlaydi?**

A. O'g'li Ilyosxo'jani. B. Amir Husaynni.

C. Amir Temurni. D. Suyurg'otmishni.

**683. Nechanchi yilda Mo'g'ullar Movarounnahrdan haydab chiqariladi?**

A. 1364-yilning oxirida. B. 1340-yilda.

C. 1400-yilda. D. 1370-yilda.

**684. "Loy jangi" qachon va qayerda bo'lib o'tgan?**

A. 1365-yil 22-mayda Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida.

B. 1367-yilda. C. 1370-yilda. D. 1356-yilda.

**685. Bu jangda Amir Temurning chekinishiga nima sabab bo'lgan?**

A. Amir Husayn o'z qoshinlarini raqibning so'l qanotiga tashlamay, jang maydonini tark etganligi.

B. Amir Temur qo'shinining kam sonligi.

C. Ob-havoning yomonligi.

D. Qo'shinning tarqoqligi.

**686. Samarqanda bu vaqtda qanday qo'zg'olon boshlangan edi?**

A. Sarbadorlar harakati.

B. Hunarmandlar qo'zg'oloni.

C. Ilyosxo'jaga qarshi qo'zg'olon.

D. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni.

**687. Sarbadorlar harakatining yetakchilari kimlar?**

A. Mudarris Mavlonzoda Samarqandiy, hunarmand Abu Bakr Kalaviy, Mohir Mergan Xurdaki Buxoriy.

B. Shamsiddin Mahbubiy, Xurdaki Buxoriy.

C. Mavlonzoda Samarqandiy, hunarmand Abu Bakr Kalaviy.

D. Shamsiddin Mahbubiy, Abu Bakr Kalaviy.

**688. Mo'gullar haydab chiqarilgach Movaraunnahrda qanday soliq bekor qilindi?**

A. Jiz'ya. B. Zakot. C. Ushr. D. Qopchur.

**689. Sarbadorlar harakati bostirilgach Movarounnahrda kimning hokimiyati o'rnatiladi?**

A. Amir Husayinni. B. Ilyosxo'ja.

C. Amir Xusayn. D. Bayon Sulduz.

**690. 1370-yil bahorida Amir Temur kimga qarshi yurish boshlaydi?**

A. Balx hukumdori Amir Husaynga qarshi.

B. To'xtamishga.

C. Suyurg'otmishga.

D. Bayon Sulduzga.

**691. Amir Temurga oliy hokimiyat ramzi tabl va yalovbayroq kim tomonidan beriladi?**

A. Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'ida Sayyid Baraka tomonidan.

B. Shamsiddin kulol tomonidan.

C. Ilyosxo'ja tomonidan.

D. Suyurg'otmish tomonidan.

**692. Tabl nima?**

A. Katta Nog'ora. B. Gerb.

**C.** Sur. D. Bayroq.

**693. Amir Temur qachon Movarounnahr amiri deb e'lon qilinadi?**

A. 1370-yil 11-aprelda Chiga'toy ulusining bek va amirlari, dorug'alar amir Temurning yoshligidan do'stlari hamda Sayyid Baraka ishtirokida bo'lib o'tgan qurultoyda.

B. 1365-yilda. C. 1368-yilda. D. 1375-yilda.

**694. Bu qurultoyda Movarounnahr poytaxti etib qaysi shahar belgilandi?**

A. Samarqand. B. Kesh.

C. Termiz. D. Qarshi.

**695. Amir Temurning sharqiy viloyatlarga yurishlari natijasida qaysi hududlar egallanadi?**

A. Sharqiy Turkiston, Farg'ona vodiysi, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayram.

B. Oloy, Farg'ona vodiysi, O'tror, Yassi.

C. Sharqiy Turkiston, Farg'ona vodiysi.

D. Yassi (Turkiston) va Sayram.

**696. Amir Temur 1381-yilda qayerlarni egallagan?**

A. Hirot, Sieston, Mozandaron.

B. Oloy, Farg'ona vodiysi, O'tror, Yassi.

C. Sharqiy Turkiston, Farg'ona vodiysi.

D. Yassi (Turkiston) va Sayram.

**697. Amir Temur Movarounnahr va Hurosonni birlash-tirgandan so'ng qayerga o'z yurishlarini boshlaydi?**

A. Xorazmga. B. Oltin O'rdaga.

C. Oq O'rdaga. D. Oltoyga.

**698. Xorazm mo'g'ullar davrida nechi qismga bolinib ketgan edi?**

A. Ikki qismga. B. Uch qismga.

C. Besh qismga. D. Bo'linmagan.

**699. Markazi Urganch bo'lgan Shimoliy Xorazm qaysi davlatga bo'ysungan?**

A. Oltin O'rdaga. B. Oq O'rdaga.

C. Oltoyga. D. Mo'g'ul davlatiga.

**700. Markazi Kat bo'lgan Janubiy Xorazm qaysi davlatga bo'ysungan?**

A. Chig'atoy ulusi. B. Oltin O'rdaga.

C. Oq O'rdaga. D. Oltoyga.

**701. Amir Temur Xorazmga necha marta yurish qilgan?**

A. 1372-yildan boshlab 5 marta. B. 3 marta.

C. 4 marta. D. 2 marta.

**702. Amir Temur Xorazmni qachon bo'ysundiradi?**

A. 1388-yilda. B. 1387-yilda.

C. 1378-yilda. D. 1387-yilda.

**703. Amir Temur To'xtamishxonga qarshi necha marta yurish qilgan?**

A. 3 marta. B. 4 marta.

C. 1 marta. D. 2 marta.

**704. Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi so'nggi shiddatli jang qachon bo'lgan?**

A. 1395-yil 15-aprelda Shimoliy Kavkazdagi Tarak daryosi bo'yida.

B. 1394-yil 15-aprelda Shimoliy Kavkazdagi Tarak daryosi bo'yida.

C. 1395-yil 10-aprelda Shimoliy Kavkazdagi Tarak daryosi bo'yida.

D. 1398-yil 15-aprelda Shimoliy Kavkazdagi Tarak daryosi bo'yida.

**705. Amir Temur bu jangda dushmanga qarshi qanday jang usulini qo'llaydi?**

A. Otdan tushib dushmanni kamondan o'qqa tutish.

B. Dushmanga pistirma qo'yish.

C. Ot ustida jang qilish.

D. Fillardan foydalanish.

**706. Amir Temurning Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom ustiga oshirgan yurishlari (3 marta) tarixga qanday nom bilan kirgan?**

A. 3 yillik, 5 yillik va 7 yillik yurishlar.

B. 3 yillik urushlar.

C. 5 yillik urushlar.

D. 7 yillik urushlar.

**707. Amir Temur Hindistonga nechanchi yillar yurish qilgan?**

A. 1398-1399-yillar Dehlini egallagan.

B. 1399-1400-yillar.

C. 1398-1401-yillar.

D. 1399-1402-yillar.

**708. Nechanchi yillarda yetti yillik yurishlar amalga oshirilgan?**

A. 1399-1404-yillarda Eron, Old va Kichik Osiyoga.

B. 1398-1403-yillrada Eron, Old va Kichik Osiyoga.

C. 1397-1402-yillarda Eron, Old va Kichik Osiyoga.

D. 1398-1401-yillarda Eron, Old va Kichik Osiyoga.

**709. Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi jang qachon bo'lib o'tgan?**

A. 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida.

B. 1401-yil 21-iyulda Anqara yaqinida.

C. 1403-yil 20-iyulda Anqara yaqinida.

D. 1404-yil 2-iyulda Anqara yaqinida.

**710. Boyazid ustidan ga'laba qozongach Amir Temur nomiga qaysi Yevropa davlatlarining rahbarlari tabriknoma jo'natadi?**

A. Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV, Kastiliya Leon qiroli Genrix III.

B. Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV.

C. Kastiliya Leon qiroli Genrix III.

D. Angliya qiroli Genrix IV.

**711. Amir Temur Xitoyga qarshi qachon yurish boshlaydi?**

A. 1404-yil 27-noyabr 200 ming qo'shin bilan.

B. 1403-yil 27-noyabr 200 ming qo'shin bilan.

C. 1402-yil 27-noyabr 200 ming qo'shin bilan.

D. 1405-yil 27-noyabr 200 ming qo'shin bilan.

**712. Amir Temur qachon vafot etgan?**

A. 1405-yil 18-fevralda. B. 1408-yil 20-aprelda.

C. 1410-yil 17-mayda. D. 1402-yil 15-fevralda.

**713. Amir Temur necha yil mamlakatni boshqargan?**

A. 35 yil davomida. B. 30 yil davomida.

C. 25 yil davomida. D. 47 yil davomida.

**714. Amir Temur o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan shaharlarga qanday o'lpon solig'i solgan?**

A. Moli omon. B. Jizya.

C. Zakot. D. Qopchur.

**715. Amir Temur saltanatining markaziy hokimiyati tizimida faoliyat ko'rsatgan yirik amaldorlar qaysilar?**

A. Shayhulislam qozikalon, sadri a’zam, dodxoh, yasovul, muhassil, tavochi, muhtasib.

B. Shayhulislam qozikalon, sadri a’zam, dodxoh.

C. Sadri a’zam, dodxoh, yasovul, muhassil.

D. Yasovul, muhassil, tavochi, muhtasib.

**716. Dargohda bosh vazir hizmatida bo’lgan xizmatchilar kimlar?**

A. Bosh hojib, hazinabon, xonsolar, qo’shchi, bakovul, kotiblar, tabiblar, sozandalar, dasturhonchilar.

B. Bosh hojib, hazinabon, xonsolar.

C. Xonsolar, qo’shchi, bakovul.

D. Kotiblar, tabiblar, sozandalar, dasturhonchilar.

**717. Amir Temur o’limidan oldin o’z saltanatini taqsimlab berganda Ozarbayjon, G’arbiy Eron, Iroq, Armaniston va Gurjiston kimga berilgan?**

A. Mirzo umar Ibn Mironshohga.

B. Pirmuhammadga.

C. Umarshayhga.

D. Halil Sultonga.

**718. Fors hududini kimga bergan?**

A. Pirmuhammad Ibn Umar Shayxga.

B. Mironshohga.

C. Halil Sultonga.

D. Umarshayhga.

**719. Farg’ona, Tarozdan to Xo’tangacha, ya’ni Sharqiy Turkistonning Janubi-g’arbi kimga berilgan?**

A. Ibrohim Sultonga. B. Mirzo Ulug’bekka.

C. Umarshayhga. D. Halil Sultonga.

**720. Amir Temur qo’shini qanday harbiy birikmalardan iborat bo’lgan?**

A. O’ng ming qo’shin – tuman, minglik qo’shin – hazora, yuzlik – qo’shin, o’nlik – ayllardan.

B. Minglik qo’shin – hazora.

C. Yuzlik – qo’shin, o’nlik – ayllardan.

D. O’ng ming qo’shin – tuman.

**721. Tavochining vazifasi nima bo’lgan?**

A. Askariy qismlarni viloyatlardan to’plash.

B. Xonning yaqin xizmatchisi.

C. Lashkarboshi.

D. Soliq yig'uvchi.

**722. Amir Temur qo'shinidagi "Izofa" qism nima?**

A. Manglay va qo'shinning asosiy qismlari oralig'idagi qo'mondonning qarorgohi va uning yonida joylashgan zahira qism.

B. Old qismi.

C. Markaziy qismi.

D. Qo'shinning o'ng tomoni.

**723. Amir Temur qo'shinining asosiy jangovar qismi qanday harbiy bo'linmalardan iborat bo'lgan?**

A. Markaz, o'ng – burong'or va so'l – juvong'or qanotlardan.

B. O'ng – burong'or.

C. So'l – juvong'or.

D. Markaziy qanot.

**724. Umuman olganda Amir Temur qo'shini necha qismdan iborat bo'lgan?**

A. Yetti qism. B. Olti qism.

C. Sakkiz qism. D. O'n ikki qism.

**725. Amir Temur birinchi bo'lib qo'shinni yetti qismga bo'lganligi haqida kim ma'lumot bergan?**

A.. Sharofiddin Ali Yazdiy. B. Ibn Arabshoh.

C. Xondamir. D. Mirxond.

**726. Amir Temur saltanatida dodhox qanday mansab hisoblangan?**

A. Shikoyatlarni qabul qiluvchi va ko'ruvchi.

B. Jarchi. C. Soliq yig'uvchi. D. Tarozibon.

**727. Muhassil kim?**

A. Soliq unduruvchi.

B. Shikoyatlarni qabul qiluvchi va ko'ruvchi.

C. Jarchi.

D. Tarozibon.

**728. Muhtasib kim?**

A. Shariat qoidalari ijrosi, bozordagi tartibni nazorat qiluvchi.

B. Shikoyatlarni qabul qiluvchi va ko'ruvchi.

C. Soliq unduruvchi.

D. Tarozibon.

**729. Vaqf mulklarini kim boshqargan?**

A. Sadri a'zam. B. Muxtasib.

C. Muhassil. D. Ustod.

**730. Yasovullar kimlar bo'lgan?**

A. Hukmdorning shahsiy topshirig'ini bajaruvchilar.

B. Saroy soqchilari.

C. Harbiy askarlar.

D. Podsoning xos soqchisi.

**731. "Temur Tuzuklari"ning asosiy mazmuni nimaga bag'ishlangan?**

A. Amir Temurning harbiy san'ati va davlatini boshqarish uslubiga.

B. Tarixiy asar.

C. Qonunlar to'plami.

D. Avlodlarga nasihat.

**732. Amir Temur o'z davlati shon-shuhratini oshirish uchun asosan nimaga e'tiborini ko'p qaratgan?**

A. Movarounnahr va ayniqsa Samarqand shahrining obodonligiga.

B. Qo'shinning kuch-qudratiga.

C. Harbiy yurishlarga.

D. Adolatga.

**733. Amir Temur Movarounnahrdan tashqari qaysi hududlarda mashhur me'moriy yodgorliklarni bino qildirgan?**

A. Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bog'dodda madrasa.

B. Tabrizda masjid, Sherozda saroy.

C. Sherozda saroy, Bog'dodda madrasa.

D. Bog'dodda madrasa.

**734. Amir Temur Turkiston shahrida qanday me'moriy yodgorlik qurdirgan?**

A. Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan.

B. Masjid.

C. Madrasa.

D. Suv inshooti.

**735. Amir Temur Shahrisabzda kimlarga atab maqbara qurdirgan?**

A. Otasi va o'g'li Jahongirning qabri ustiga.

B. Onasiga atab maqbara.

C. Xotiniga atab maqbara.

D. Piriga atab maqbara.

**736. Amir Temur mashhur Oqsaroyni qayerga qurgan?**

A. Sahrisabzga. B. Samarqandga.

C. Buxoroga. D. Qarshiga.

**737. Oqsaroy peshtoqiga guldor naqshlar bilan Amir Temurning qanday mashhur xitobnomasi bitib qo'yilgan?**

A. "Agar bizning kuch va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq".

B. Ilm olish muslim va muslimalar uchun farz.

C. Kuch adolatda.

D. Rosti rusti.

**738. Amir Temur davrida Samarqand shahrining nechta darvozasi bo'lgan?**

A. Oltita. B. Yettita.

C. O'nta. D. O'n beshta.

**739. Ular qanday nomlar bilan atalgan?**

A. Oxanim, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron, Feruza.

B. Chig'atoy, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron.

C. Korizgoh, So'zangaron, Feruza.

D. Chorsu, Korizgoh, So'zangaron.

**740. Amir Temur qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qaysi shaharda joylashgan?**

A. Samarqandda. B. Buxoroda.

C. Keshda. D. Buxoradan bir necha chaqirim narida.

**741. Amir Temurning olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratda qolgan Ispanya elchisi Klavixo nechanchi yillarda Samarqandda bo'lgan?**

A. 1403-1404-yil. B. 1405-1407-yil.

C. 1402-1407-yil. D. 1407-1410-yil.

**742. Amir Temur Bibixonim nomiga atab qanday me'moriy obida bunyod ettirgan?**

A. Jome masjidi. B. Oqsaroyni.

C. Ko'k saroyni. D. Bibixonim madrasasini.

**743. Bog'u Dilkusho nomi bilan atalgan bog' Samarqand shahrining qaysi qismida joylashgan?**

A. Shaharning sharq tomonida.

B. Shaharning qoq markazida.

C. Shaharning g’arbiy tomonida.
D. Shaharning sharqiy tomonida.

**744. Amir Temur Klavixoni qaysi bog’da kutib olgan?**
A. Bog’i Dilkushoda. B. Bog’i Zog’onda.
C. Bog’i Jahonkushoyda. D. Bog’i Davlatobodda.

**745. Amir Temur davrida Samarqandda qaysi sohalar yuksak darajada rivoj topgan?**
A. Savdo va hunarmandchilik.
B. Kulolchilik va temirchilik.
C. Chilangarlik va binokorlik.
D. Chilangarlik va hunarmandchilik.

**746. Amir Temur nima maqsadda Genuya Venetsiyaga elchi yuborgan?**
A. Boyazid bilan bo’ladigan to’qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanish maqsadida.
B. Savdo-sotiq ishlari uchun.
C. Madaniy aloqalr uchun.
D. Harbiy ittifoq uchun.

**747. Amir Temur 1402-yil 15-may kuni kimning nomiga maktub yo’llaydi?**
A. Konstantinopol noibi Ioan VII Paleolog nomiga.
B. Fransiya qiroli Karl VI.
C. Angliya qiroli Genrih IV.
D. Turk sultoni Boyazidga.

**748. Amir Temur elchilari Parijga qachon yetib boradilar?**
A. 1403-yil may oyida. B. 1406-yil mart oyida.
C. 1410-yil yanvar oyida. D. 1403-yil oktabr oyida.

**749. Maktubda ikki davlatlar o’rtasida qaysi sohani rivojlantirish ko’zda tutilgan edi?**
A. Savdo sohasini. B. Elchilikni.
C. Harbiy sohasini. D. Temirchilik sohasini.

**750. Fransiya qiroli Karl VI qachon Amir Temurga javob maktubini yo’llaydi?**
A. 1403-yil 15-iyunda. B. 1406-yil 15-iyulda.
C. 1403-yil 20-mayda. D.1408-yil 17-oktabrda.

**751. Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan munosabatlarda Amir Temur nomidan kim faoliyat olib borgan?**

A. Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz va Sultoniya hududlari noibi g’arbiy viloyatlar hokimi Mironshoh.

B. Umarshayx.

C. Halil Sulton.

D. Pirmuhammad.

**752. Mironshoh g’arbda qanday nom bilan shuhrat qozongan?**

A. Katolik dinining homiysi. B. Bag’rikenglik homiysi.

C. Buyuk siyosatchi. D. Adolatli shoh.

**753. Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III qachon dastlabki elchilarni Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuborgan?**

A. 1402-yilning bahorida. B. 1407-yilning kuzida.

C. 1403-yilning bahorida. D. 1406-yilning qishida.

**754. Amir Temur Ispan elchiligiga javoban kimni Ispaniyaga elchi sifatida yuborgan?**

A. Muhammad qozi ismli o’z vakilini.

B. Mironshohni.

C. O’zining eng yaqin do’stini. D. Umarshayxni.

**755. Amir Temur huzuriga ikkinchi marta Ispaniya echilari qachon jo’natilgan?**

A. Klavixo boshchiligida 1403-yil. B. 1402-yilda.

C. 1401-yilda. D. 1399-yilda.

**756. Klavixo qachon Ispaniyadan Samarqandga jo’nab ketgan?**

A. 1403-yil 21-mayda. B. 1405-yil 20-mayda.

C. 1407-yil 18-yanvarda. D. 1402-yil 10-oktabrda.

**757. Ispaniya elchilari qachon Samarqanddan jo’nab ketgan?**

A. 1404-yil 21-noyabrda. B. 1405-yil 26-oktabrda.

C. 1410-yil 20-martda. D. 1403-yil 30-dekabrda.

**758. Klavixo boshchiligidagi Ispan elchilari qachon Ispaniyaga yetib keladilar?**

A. 1406-yil mart oyida. B. 1405-yil oktabr oyida.

C. 1400-yil yanvar oyida. D. 1410-yil iyun oyida.

**759. Klavixoning Samarqandga amalga oshirgan safari taassurotlari qanday nomlar ostida nashr qilindi?**

A. “Buyuk Temur tarixi” va “Samarqandga sayohat kundaligi”.

B. Samarqandga sayohat.

C. Temuriylar tarixi.

D. Buyuk sayohat.

## TEMURIYLAR DAVRIDA MAMLAKATNING IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

**760. Amir Temur qaysi shaharda vafot etgan?**

A. O'tror shahrida 1405-yil 18-fevralda.
B. Samarqandda 1404-yil 12-martda.
C. O'tror shahrida 1405-yil 11-mayda.
D. O'tror shahrida 1404-yil 18-fevralda.

**761. Amir Temur vafotidan oldin kimni taxt vorisi etib tayinlaydi?**

A. Nabirasi Pirmuhammadni. B. Og'li Mironshohni.
C. Halil Sultonni. D. Umarshayxni.

**762. Pirmuhammad qaysi viloyatlar hukmdori edi?**

A. Qobul, Qandahor va Hindiston. B. Farg'ona, Shosh.
C. Xorazm. D. Eron.

**763. Pirmuhammadga qattiq qarshilik ko'rsatgan temuriyzodani aniqlang.**

A. Mironshoxning o'g'li Xalil Sulton.
B. Umarshayx.
C. Mirzo Ulug'bek.
D. Mironshoh.

**764. Xalil Sulton Mirzo Samarqand taxtini qachon egallaydi?**

A. 1405-yil 18-mart kuni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb elon qiladi.
B. 1404-yilda. C. 1406-yilda. D. 1403-yilda.

**765. Xalil Sulton hokimiyatiga kimlar birinchi bo'lib qarshi chiqadilar?**

A. Turkiston va Farg'onaning hokimi amir Hudoydod bilan Shayx Nuriddin.
B. Umarshayx.
C. Pirmuhammad.
D. Mirzo Ulug'bek.

**766. Amudaryoning chap sohilida kim Xalil Sultonga qarshi bosh ko'taradi?**

A. Ukasi Sulton Husayn Mirzo. B. Pirmuhammad.
C. Shohruh. D. Mirzo Ulug'bek.

**767. Amudaryodan kechib o'tib Xalil Sultonga qarshi Nasaf tomonga kim askar tortadi?**

A. Amir Temur taxtining qonuniy hukmdori Pirmuhammad.

B. Ukasi Sulton Husayn Mirzo.

C. Shohruh.

D. Mirzo Ulug'bek.

**768. Movarounnahrda toj-taxt uchun kurash avj olgan vaqtda Xurosonda kimning hukmronligi o'rnatildi?**

A. Amir Temurning o'g'li Shohruh hukmronligi.

B. Mirzo Ulug'bek hukmronligi.

C. Mironshoh hukmronligi.

D. Pirmuhammad hukmronligi.

**769. Pirmuhammadning mustaqil hokimiyati qayerda o'rnatiladi?**

A. Balx, G'azna va Qandahorda.

B. Shoshda.

C. Samarqandda.

D. Xurosonda.

**770. G'arbiy Eron va Ozarbayjonda kimlar mustaqil boshqaruvni qo'lga kiritadilar?**

A. Mironshohning o'g'illari Umarshayx Mirzo bilan Abu Bakr Mirzolar.

B. Shohruh.

C. Mirzo Ulug'bek.

D. Pirmuhammad.

**771. Sirdaryodan shimolda joylashgan hududlar kimning tasarrufiga o'tadi?**

A. Turkiston, Sarbon, O'tror, Sayram hudulari amir Berdibek tassarufiga o'tadi.

B. Amir Hudaydod Husayniy.

C. Oltin O'rdaning amirlaridan bo'lgan Idiku.

D. Pirmuhammad.

**772. O'ratepa va Farg'onani kim egallab oldi?**

A. Amir Husaydod Husayniy.

B. Oltin O'rdaning amirlaridan bo'lgan Idiku.

C. Amir Berdibek.

D. Shoxruh.

**773. Temuriylar o'rtasidagi kurashdan sababli qulay vaziyatdan foydalanib Xorazmni kim bosib oldi?**

A. Oltin O'rdaing amirlaridan bo'lgan Idiku.

B. Amir Husaydod Husayniy.

C. Amir Berdibek.

D. Abu Said.

**774. Pirmuhammad qachon vafot etgan?**

A. 1407-yil 22-fevralda vaziri pir Ali Toz boshliq fitnatichilar tomonidan.

B. 1405-yilda Mironshoh bilan bo'lgan jangda.

C. 1408-yilda to'satdan.

D. 1409-yilda kasallik tufayli.

**775. Mironshoh qachon vafot etgan?**

A. Qoraqo'yinli turkmanlarning qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda 1408-yil 22-aprelda.

B. 1407-yil 22-fevralda vaziri pir Ali Toz boshliq fitnatichilar tomonidan.

C. 1408-yilda to'satdan.

D. 1409-yilda kasallik tufayli.

**776. Mironshohning halok bo'lishi qaysi hududlarni temuriylar qo'lidan ketishiga sabab bo'lgan?**

A. Ozarbayjon va Iroq viloyatlarini. B. Eronni.

C. Qandaxor va Balxni. D. Qobulni.

**777. Shohruh qachondan boshlab Movarounnahrni egallash uchun harakat boshlaydi?**

A. 1409-yil 25-aprelda Amudaryodan o'tib Samarqand sari yurish boshlaydi.

B. 1407-yilda. C. 1405-yilda. D. 1410-yilda.

**778. Movarounnahrda kimning davrida nisbatan osoyishtalik o'rnatila boshlandi?**

A. Shoxruh davridan. B. Mirzo Ulug'bek.

C. Umarshayx. D. Halil Sulton.

**779. Shoxruh tomonidan birlashtirilgan davlat qanday qismlarga bo'lib boshqarilgan?**

A. Ikki qism: Markazi Hirot shahri bo'lgan Amudaryoning janubi va markazi Samarqand bo'lgan Movarounnahr va Turkiston hududlariga bo'lib boshargan.

B. Markaziy boshqaruv bo'lgan.

C. Uch qismga bo'lingan.

D. To'rt ulusga bo'lingan.

**780. Movarounnahr va Turkiston hududi kim tomonidan boshqarilgan?**

A. 1409-yilda Shohruh Samarqanddan Hirotga qaytish oldida Mirzo Ulug'bekka topshirgan.

B. Umarshayx.

C. Mironshoh.

D. Abu Said.

**781. Shoxruh Farg'onadan O'zgangacha bo'lgan hududni boshqarishni kimga topshirgan?**

A. Amirak Ahmadga.
B. Mirzo Ulug'bekka.
C. Mironshoxga.
D. Abu Saidga.

**782. Turkiston hududi kimning boshqaruv tasarrufida edi?**

A. Shayx Nuriddin tasarrufida.
B. Amirak Ahmadga.
C. Mirzo Ulug'bekka.
D. Mironshoxga.

**783. Mirzo Ulug'bek tomonidan 1414-yilda qayerlar egallanadi?**

A. Farg'ona va Qoshg'ar.
B. Issiqko'l va Mo'g'uliston.
C. Xorazm va Farg'ona.
D. Dashti Qipchoq va Xuroson.

**784. Xorazm Shohrux tomonidan Oltin O'rda xonlaridan qachon qaytarib olinadi?**

A. 1413-yilda.
B. 1412-yilda.
C. 1414-yilda.
D. 1410-yilda.

**785. Ulug'bek Mo'g'ulistonga qachon yurish boshlaydi?**

A. 1425-yilning erta bahorida.
B. 1413-yilning boshida.
C. 1417-yilning oxirida.
D. 1425-yilning qishida.

**786. Mirzo Ulug'bek mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonganligi to'g'risidagi "Zafarnoma"ni qayerga yozib qoldirgan?**

A. Jizzax yaqinidagi Ilono'tti darasida, 1428-yil.

B. O'zining saroy tarixchisiga.

C. To'rt ulus tarixida.

D. Mo'g'ulistondagi qoyaga.

**787. Shohruh Mirzo qachon vafot etgan?**

A. 1447-yil 12-mart kuni nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida.

B. 1449-yilda.
C. 1448-yilda.
D. 1500-yilda.

**788. Shohruhdan so'ng uning taxtini kim egallaydi?**

A. Boysunqurning o'g'li Alauddavla.

B. Mirzo Ulug'bek.

C. Abu Said.

D. Sulton Muhammad.

**789. Ulug'bekning o'g'li Abdullatif Alauddavlaga qachon asir tushib qoladi?**

A. 1447-yilning bahorida.
B. 1445-yilda.

C. 1447-yilning kuzida.
D. 1448-yilda.

**790. Ulug'bek farmoni bilan Abdulatif qayerga noib etib tayinlanadi?**

A. Balxga.
B. Xirotga.

C. Xurosonga
D. Buxoroga.

**791. Abdullatif Balxda qanday qilib savdogarlarni o'z tomoniga ag'darib oladi?**

A. "Tamg'a" solig'ini bekor qilib.

B. Ularga katta yerlar in'om qilib.

C. Ular bilan ittifoqchi bo'lib.

D. Otasiga qarshi fitna uyushtirib.

**792. Ulug'bek qayerda bo'lgan jangda o'g'li Abdullatif qo'shinlaridan yengiladi?**

A. 1449-yil oktabrda Damashq qishlog'i yaqinida.

B. 1445-yilda Samarqandda.

C. 1448-yilda Keshda.

D. 1447-yilda Sultoniyada.

**793. Mirzo Ulug'bek necha yoshida halok bo'lgan?**

**A.** 55 yoshida 1449-yil 27-oktabrda Samarqand yaqinida.

B. 47 yoshida 1449-yil 20-oktabrda Haj safariga ketayotganda.

C. 50 yoshida 1447-yil 27-noyabrda Samarqandda.

D. 49 yoshida 1448-yil 27-oktabrda Samarqand yaqinida.

**794. 1451-yilda kim Abu Said yordami bilan Samarqandga Mirzo Abdullaga qarshi yurish qiladi?**

A. Dashti Qipchoq hukmdori Toshkent, Chinoz va Jizzax orqali Abulhayirxon yurish boshlaydi.

B. Shayboniyxon.

C. Umarshayx.

D. Kuchkunjixon.

**795. Abulhayrxon va Mirzo Abdullo o'rtasidagi jang qayerda bo'lib o'tgan?**

A. Sheroz qishlog'i yaqinida Bulung'ur anhori bo'yida.

B. Samarqandda. C. Keshda. D. Buxoroda.

**796. Samarqand hukmdori Mirzo Abdullo bu jangda yengilgach, kim Movarounnahr hokimi bo'ladi?**

A. Abulhayrxon yordami bilan Abu Said.

B. Abulxayrning og'li.

C. Mirzo Abdulloning ukasi.

D. Abu Saidning o'g'li.

**797. Bu vaqtda Xuroson kimning tasarrufida edi?**

A. Shoxruhning nabirasi Abulqosim Bobur.

B. Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdulaziz.

C. Abu Said.

D. Boysunqur Mirzo.

**798. Abulqosim Bobur hukmronligi davrida Xuroson necha qismga bo'linib ketgan edi?**

A. 11 qismga. B. 10 qismga.

C. 19 qismga. D. 9 qismga.

**799. 1457-yilda Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Hirot taxtini kim egallaydi?**

A. Abu Said. B. Boysunqur.

C. Sulton Muhammad. D. Sulton Ali Mirzo.

**800. Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Xorazmni kim egallab olgan?**

A. Umarshayx Mirzoning avlodi Sulton Husayn.

B. Boysunqur.

C. Sulton Muhammad.

D. Sulton Ali Mirzo.

**801. Xurosonda Sulton Husayn hukmronligi o'rnatilgan vaqtda Movarounahrda kimning hukmronligi boshlandi?**

A. Abu Saidning o'g'li Sulton Ahmad hukmronligi.

B. Boysunqur hukmronligi.

C. Sulton Muhammad hukmronligi.

D. Sulton Ali Mirzo hukmronligi.

**802. Sulton Ahmad nechanchi yillarda Movarounahrni boshqardi?**

A. 1469-1494-yillar. B. 1441-1468-yillar.

C. 1456-1497-yillar. D. 1469-1493-yillar.

**803. Sulton Ahmaddan so'ng Movarounnahrni kimlar boshqargan?**

A. Ukasi Sulton Mahmud (1494-1495) va keyinchalik Mahmudning o'g'li Sulton Ali (1498-1501).

B. Zahiriddin Bobur.

C. Umarshayx.

D. Abu Said.

**804. Movarounnahrda temuriylar o'rtasida avj olgan nizolarni bartaraf etish uchun harakat qilgan so'fiylik tariqatining namoyondasi kim?**

A. Xo'ja Ubaydulloh Ahror. B. Shamsiddin Kulol.

C. Said Baraka. D. Najmiddin Kubro.

**805. Alisher Navoi qayerda tug'ilgan?**

A. 1441-yil Hirotda. B. 1430-yil Samarqandda.

C. 1440-yil Hirotda. D. 1456-yil Hirotda.

**806. Sulton Husayn va Alisher Navoiy yoshlik chog'larida qaysi temuriy hukmdor xizmatida bo'lganlar?**

A. Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur.

B. Mahmud Sulton.

C. Sulton Ali.

D. Jahongir Mirzo.

**807. Sulton Husayn va Alisher Navoiy Abulqosim Bobur vafotidan so'ng necha yil davomida boshqa shaharlarda yashaganlar?**

A. 12 yil davomida. B. 13 yil davomida.

C. 10 yil davomida. D. 8 yil davomida.

**808. Alisher Navoiyning Hirotni tashlab Samarqandga borib yashashning sababi?**

A. Alisher Navoiy o'ziga nisbatan Abu Saidda adovat kayfiyatini sezib qolganligi sababli.

B. Ilm olish maqsadida.

C. Hokimlik vazifasiga tayinlanganligi uchun.

D. Obodonchilik ishlari uchun.

**809. Alisher Navoiy davrida Xurosonda kimlarning isyonlari boshlandi?**

A. Taxt vorislari Sulton Husayn o'g'illari Badiuzzamon va Muzaffar Husayn Mirzolarning.

B. Eron qo’shinlarining.
C. Ko’chmanchi o’zbeklarning.
D. Hunarmandlarning.

**810. Temuriylar davrida kimlar bir-ikki yil davomida soliq va to’lovlardan ozod etilishi mumkin edi?**

A. Dashtliklardan yangi yerlarni ochgan, qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni o’zlashtirib, sug’orib bog’ barpo etganlar.
B. Hukmdorga sadoqatli xizmat qilganlar.
C. Hunarmandlar.
D. Kambag’allar.

**811. Temuriylar davrida qaysi suv inshootlarining qayta tiklanishi natijasida kam suvli Qashqadaryo vohasiga qo’shimcha suv chiqarildi?**

A. Zarafshon daryosidan boshlangan, Darg’om anhoridan chiqarilgan qadimgi Angor kanalining qayta tiklanishi natijasida.
B. Amudaryodan suv o’tkazilishi orqali.
C. Surxondaryo orqali.
D. Sirdaryo orqali.

**812. Qaysi temuriy hukmronligi davrida Buxoro vohasining janubiy-sharqiy chegarasida suv chiqarilib, yangi yerlar o’zlashtirilgan?**

A. Mirzo Ulug’bek davrida. B. Shoxrux davrida.
C. Baduizzamon davrida. D. Sulton Husayn davrida.

**813. Murg’ob daryosining bosh to’g’oni Sultonband kim tomonidan tiklandi?**

A. Shoxrux tomonidan.
B. Mirzo Ulug’bek tomonidan.
C. Baduizamon tomonidan.
D. Sulton Husayn tomonidan.

**814. Sultonbandning tiklanishi qaysi hududlarni suv ta’minotini yaxshiladi?**

A. Marv shahri va Murg’ob vohasini.
B. Samarqandni.
C. Farg’onani.
D. Termizni.

**815. Kimning tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal qaziladi?**

A. Sulton Husayn. B. Mirzo Ulug’bek.

C. Shohruh. D. Badiuzzamon.

**816. Alisher Navoiy tashabbusi bilan qayerda suv ombori quriladi?**

A. Tus viloyatining yuqori qismida Turband suv ombori.

B. Xirotda.

C. Qobulda.

D. Samarqandda.

**817. XV asr davomida Xuroson va Movarounnahrda yer egaligining necha xil turi mavjud edi?**

A. 4 xil. B. 5 xil. C. 7 xil. D. 8 xil.

**818. “Mulki devoniy”?**

A. Davlat yerlari. B. Hukmdorga tegishli yerlar.

C. Diniy muassasa yerlari. D. Jamoa yerlari.

**819. “Mulk”?**

A. Xususiy yerlar. B. Davlat yerlari.

C. Hukmdorga tegishli yerlar. D. Diniy muassasa yerlari.

**820. Mulki vaqf”?**

A. Madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar.

B. Davlat yerlari.

C. Hukmdorga tegishli yerlar.

D. Jamoa yerlari.

**821. “Jamoa yerlari”?**

**A.** Butun jamoa yoki qishloq a’zolarining yerlari.

**B.** Madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar.

**C.** Davlat yerlari.

D. Hukmdorga tegishli yerlar.

**822. Suyurg’ol qanday mulk hisoblangan?**

A. Temuriylar davrida oliy hukmdor tomonidan in’om tariqasida berilgan yer-mulk.

B. Madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar.

C. Davlat yerlari.

D. Hukmdorga tegishli yerlar.

**823. Tarxonlik yorlig’i kimlarga berilgan?**

A. Yirik mulk egalari biron xizmatlari uchun soliq va to’lovlardan ozod etilgan. Bunday yorliq olgan mulkdor ismiga “tarxon” so’zi qo’shilib aytilgan.

B. Sadoqatli harbiy xizmatchilarga.

C. Savdogarlarga.

D. Amirning yaqinlariga.

**824. Muzoriy kim?**

A. Temuriylar davrida davlat vaqf yeri yoki yirik mulkdorning yerida ishlovchi.

B. Savdogar. C. Askar. D. Harbiylar.

**825. Sug'orma dehqonchilik yerlaridan asosan qanday soliq olingan?**

A. Xiroj. B. Ushr. C. Zakot. D. Qopchur.

**826. Daryo, buloq va koriz suvlari bilan sug'oriladigan yerlardan qancha miqdorda soliq olingan?**

A. Hosilning uchdan bir qismi (33 foizi) miqdorida.

B. 4/10. C. 2/5. D. 2/6.

**827. Lalmikor yerlardan qancha miqdorda soliq olingan?**

A. Hosilning oltidan bir (16,5 foizi)dan to sakkizdan bir (12,5 foiz)gacha bo'lgan miqdorda.

B. 4/10. C. 2/5. D. 2/6.

**828. Mulk yerlaridan hosilni o'ndan biri (1/10) miqdorda qanday soliq olingan?**

A. Ushr. B. Qopchur. C. Shulen. D. Zakot.

**829. Chorva mollaridan qanday soliq olingan?**

A. 2,5 foizi miqdorida zakot olingan.

B. Qopchur. C. Shulen. D. Ushr.

**830. Begor nima?**

A. Davlatga qarashli bo'lgan yerlar, inshootlar, yo'l qurilish va tuzatish ishlarida tekinga ishlab berish majburiyati.

B. Yer solig'i. C. Jon solig'i. D. Yer egaligi.

**831. Qaysi shaharlarda zargarlik rivoj topgan?**

A. Samarqand va Hirotda.

B. Shahrisabz va Buxoroda.

C. Zarafshon va Surxondaryoda.

D. Termiz va Qarshida.

**832. "Banno" kim?**

A. G'isht teruvchi usta. B. Ko'prik quruvchi.

C. Binokor. D. Hunarmand.

**833. Kimlar "ustod" deb atalgan?**

A. Imoratga pardoz beruvchi ustalar.

B. G'isht teruvchi.

C. Binokor.

D. Hunarmand.

**834. XV asrda qaysi shaharda shishasozlar mahallasi bo'lgan?**

A. Samarqandda. B. Buxoroda.

C. Keshda. D. Zarafshonda.

**835. Qaysi Temuriy hukmdorlar muntazam ravishda Xitoy bilan elchilik aloqalari olib borganlar?**

A. Shoxruh va Mirzo Ulug'bek. B. Mirzo Bobur.

C. Mironshoh. D. Shohruh.

**836. 1418-yilda Shoxruh kim boshchiligida Xitoyga o'z elchilarini yuboradi?**

A. Ardasher boshliq. B. O'z vazirini yuborgan.

C. Mahmud boshliq. D. Ahmad boshliq.

**837. Bunga javoban qachon Xitoydan elchilar kelgan?**

A. 1419-yilda Li Do va Jong Eu boshchiligida Samarqand va Hirotga.

B. 1415-yilda Jong Eu boshchiligida Samarqand va Hirotga.

C. 1421-yilda Li Do boshchiligida Samarqand va Hirotga.

D. 1423-yilda Li Do va Jong Eu boshchiligida Samarqand va Hirotga.

**838. 1420-yilda Shoxruh va Ulug'bekning Xitoyga jo'natgan elchilik karvonida necha nafar odam bo'lgan?**

A. 530 nafar. B. 500 nafar.

C. 450 nafar. D. 600 nafar.

**839. Tibetdan Buxoro va Samarqandga nechanchi yilda elchilar kelgan?**

A. 1421-yilda. B. 1423-yilda.

C. 1419-yilda. D. 1420-yilda.

**840. Shoxruh Hindistonga qachon o'z elchilarini yuborgan?**

A. 1441-yilda tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligida.

B. 1442-yilda tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligida.

C. 1445-yilda Ahmad boshchiligida.

D. 1446-yilda Mahmud boshchiligida.

**841. Mirzo Ulug'bek nechanchi yilda pul islohotini amalga oshirgan?**

A. 1428-yilda "fulusi adliya" deb nomlangan pullar islohotini amalga oshirgan.

B. 1420-yilda “fulusi adliya” deb nomlangan pullar islohotini amalga oshirgan.

C. 1421-yilda “fulusi adliya” deb nomlangan pullar islohotini amalga oshirgan.

D. 1422-yilda “fulusi adliya” deb nomlangan pullar islohotini amalga oshirgan.

**842. Tamg’a?**

A. Savdo boji.

B. Mol-mulk solig’i.

C. Dehqonlardan olinadigan soliq.

D. Karvonboshidan olinadigan soliq.

**843. Fulus?**

A. Mayda mis chaqa pul. B. Kumush tanga.

C. Oltin tanga. D. Bronza pul.

**844. Mirzo Ulug’bek qaysi qadimgi yunon olimlari asarlarini o’rgangan?**

A. Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey.

B. Gippokrat, Gipparx.

C. Aflotun, Arastu.

D. Gipparx, Ptolomey.

**845. Ulug’bek farmoni bilan Buxoroda qachon madrasa bunyod etiladi?**

A. 1417-yilda. B. 1418-yilda.

C. 1415-yilda. D. 1423-yilda.

**846. Ulg’bek bundan tashqari qayerda madrasa bunyod ettirgan?**

A. G’ijdivonda 1433-yilda. B. Keshda 1435-yilda.

C. Xurosonda 1436-yilda. D. Balxda 1467-yilda.

**847. Buxoro madrasasining darvozasiga qanday kalima yozib qo’yilgan?**

A. “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir”.

B. Kuch adolatda.

C. Rosti-rusti.

D. Bizning kuch-qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan imoratlarga boq.

**848. Samarqandagi Ulug’bek madrasasida yetakchi mudarris kim edi?**

A. Shamsiddin Muhammad Havofiy bo'lib, madrasa ochilganda birinchi darsni o'qigan.

B. Abdurazzoq Samarqandiy.

C. Fazlulloh Samarqandiy.

D. Qozizoda Rumiy.

**849. Madrasada ilmi hay'at (astronomiya)dan kim dars bergan?**

A. Qozizoda Rumiy. B. Abdurazzoq Samarqandiy.

C. Fazlulloh Samarqandiy. D. Qozizoda Rumiy.

**850. Madrasada o'qish qancha vaqt davom etgan?**

A. Kamida 15-16 yil. B. 4-5 yil.

C. 10-11 yil. D. 15 yil.

**851. Madrasani tamomlaganlarga qanday hujjat berilgan?**

A. Sanad yozib berilgan.

B. Ustozlik huquqini beruvchi tamg'a.

C. Muxr berilgan.

D. Yorliq.

**852. Sanad nima?**

A. Shahodatnoma.

B. Ustozlik huquqini beruvchi tamg'a.

C. Muxr berilgan.

D. Yorliq.

**853. Mirzo Ulug'bek boshchiligida rasadxona qachon qurilgan?**

A. 1424-1428-yillarda Samarqand shahri yaqinidagi Obirahmat anhori bo'yida.

B. 1415-yilda Buxoroda.

C. 1423-yilda Termizda.

D. 1425-yilda Samarqanda.

**854. Rasadxonaning balandligi qancha bo'lgan?**

A. 31 metr. B. 30 metr.

C. 45 metr. D. 34 metr.

**855. Ulug'bek rasadxonasining sekstanti kim boshchiligida o'rnatilgan?**

A. G'iyosiddin Jamshid. B. Qozizoda Rumiy.

C. Abdurazzoq Samarqandiy. D. Ali Qushchi.

**856. Rasadxona tashkil etilgan kutubhonada qancha kitob saqlangan?**

A. Fanning barcha sohalariga oid qariyb 15 ming jild.
B. 3000. C. 10000. D. 12000.

**857. Rasadxonada Ulug'bek bilan faoliyat yuritgan Qozizoda Rumiy qanday nom bilan shuhrat qozongan?**

A. Aflotuni zamon. B. Ikkinchi muallim.
C. Ikkinchi Arastu. D. Zamon Donishmandi.

**858. "O'z davrining Ptolomeyi" kim?**

A. Alouddin Ali Qushchi. B. Qozizoda Rumiy.
C. Abdurazzoq Samarqandiy. D. Abullays Samarqandiy.

**859. Ulug'bek rasadxonasida olib borilgan ilmiy kuzatishlar natijasida qanday bilimlar to'plangan?**

A. 1018 ta qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuzilgan.

B. 1028 ta qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuzilgan.

C. 1038 ta qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuzilgan.

D. 1048 ta qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuzilgan.

**860. Mirzo Ulug'bekning shoh asari qaysi?**

A. "Zijji jadidi Ko'ragoniy" (astronomik jadval).
B. To'rt ulus tarixi.
C. Temurnoma.
D. Osmon jismlari.

**861. Ulug'bekning yil hisobi hozirgi hisob kitoblardan qancha farq qilgan?**

A. Bir minutu ikki sekundga.
B. Ikki minutu uch sekundga.
C. Bir minutu to'rt sekundga.
D. Uch minutu yetti sekundga.

**862. Mirzo Ulug'bek musiqa ilmiga bag'ishlab nechta asar yozgan?**

A. 5 ta risola. B. 7 ta risola.
C. 10 ta risola. D. 3 ta risola.

**863. Mirzo Ulug'bek Samarqandda akademiya tashkil etganligi haqida qaysi yevropalik faylasuf yozib ketgan?**

A. Fransuz faylasufi, yozuvchisi va tarixchi olimi Volter (1694-1778).

B. Klaviho. C. Vamberi. D. Dante.

**864. XIV asrda nastaliq deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kim kashf qilgan?**

A. Mashhur xattot Mirali Tabriziy (1330-1404).

B. Xattot Sultonali Mashhadiy.

C. Xattot Samarqandiy.

D. Xattot Shomiy.

**865. Sultonali Mashhadiy davrida qanday nomlar bilan shuhrat topgan?**

A. “Qiblat ul-quttob” (Kitoblar qiblasi) va “Sulton ul-Xattotun” (Xattotlar Sultoni).

B. Buyuk xattot.

C. Buyuk ustoz.

D. Buyuk ustod.

**866. Samarqand va Hirotda tashkil etilgan maxsus kitobxona ishlariga kimlar boshchilik qilgan?b**

A. Kitobxona dorug’asi yoki kitobdorlar.

B. Hukmdjrning ishonchli kishisi.

C. Devon xodimi.

D. Shoir bo’lishi shart bo’lgan.

**867. Hirotda Ulug’bekning ukasi Boysunqur Mirzo kitobxonasida nechta xattot va naqqoshlar faoliyat ko’rsatgan?**

A. 40 ta xattot va bir qancha naqqoshlar.

B. 45 ta xattot va o’nta naqqoshlar.

C. 30 ta xattot va o’n beshta naqqoshlar.

D. 50 ta xattot va yigirmata naqqoshlar.

**868. Alisher Navoiy tasvirini hassaga tayangan qomati bir muncha bukchaygan holda hamda qarashlarida horg’inlik alomatlari, ham ulug’vorlik va oliyjanoblik holatini yaqqol tasvirlab bergan mashhur rassom kim?**

A. Mahmud Muzahhib. B. Kamoliddin Behzod.

C. Sultonali Mashhadiy. D. Mirali Tabriziy.

**869. Kamoliddin Behzod qaysi tarixiy siymolar portretlarini chizgan?**

A. Husyan Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy.

B. Amir Temir. C. Ulug’bek. D. Shohrux.

**870. Mirzo Ulug’bek qanday kuylarni ijod qilgan?**

A. Bulujiy, Shodiyona, Axloqiy, Tabriziy, Usuli ravon, Usuli otlig'.

B. Shashmaqom.

C. Tabriziy, Usuli ravon.

D. Axloqiy.

**871. Navoiy tomonidan qaysi kuy ijod qilingan?**

A. Isfaxoniy. B. Ushshoq.

C. Tanovor. D. Mustahzod.

**872. XV asrda yashagan Durbek tomonidan qayta ishlangan doston qaysi?**

A. Yusuf va Zulayho. B. Farxod va Shirin.

C. Shohnoma. D. Layli va Majnun.

**873. Lavvoh kim?**

A. Kitobga lavha yasovchi usta. B. Binokor.

C. Hunarmand. D. Usta.

**874. Nastaliq xati qanday ko'rinishda bo'lgan?**

A. Arab mumtoz xatim uslublaridan biri bo'lib, unda yozilgan yozuvlarning 5/6 qismi egri, 1/6 qismi esa to'g'ri chiziqlar asosida yozilgan.

B. Arab harflarining geometrik shaklda yozilishi.

C. Arab harflarining o'simlik shaklida yozilishi.

D. Doirasimon yozuv.

**875. Sahhoflik qanday kasb?**

A. Muqavosoz. B. Kitobga rasm chizuvchi.

C. Kitobni tahrir etuvchi. D. Kitobga rang beruvchi.

**876. Navoiygacha o'zbek sheriyatida yetakchilik qilgan shoir kim?**

A. Lutfiy. B. Jomiy.

C. Rumiy. D. Sheroziy.

# Foydalanilgan adabiyotlar

## Mundarija

O'zbekistonda ibtidoiy jamoa tuzumi davri va ilk davlat birlashmalari yuzasidan test savollari 3
Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot (IV-VII asrlar) 24
IX-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning shakllanishi 54
IX-XIII asr boshlarida madaniy hayot 67
Mo'g'ullar istilosi davri. Vatanimiz xalqlarining ozodlik kurashi 73
Amir Temur va Temuriylar davri 81
Temuriylar davrida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti 94
Foydalanilgan adabiyotlar 110

Muharrir
Texnik muharrir

Bosishga ruxsat etildi 00.00.14. Qog’oz bichimi 60x84 1/16.
Hajmi 7,0 fiz.b.t. 25-14 raqamli shartnoma. Adadi 000 nusxa.
000-son buyurtma.

O’zDJTI nashriyot-matbaa bo’limi, 100052, Toshkent,
Oqqo’rg’on ko’chasi, 2-uy.

O’zDJTI bosmaxonasi, 100052, Toshkent,
Oqqo’rg’on ko’chasi, 2-uy.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

# O'ZBEKISTONDA IBTIDOIY JAMOA TUZIMI DAVRIDAN XV ASRGACHA BO'LGAN TARIXIY DAVRNI O'Z ICHIGA OLGAN TEST VARIANTLARI

TOSHKENT – 2014